O‘ZBEKISTON ILM-FANINING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI:

NAZARIYADAN AMALIYOTGACHA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI



TOSHKENT

www.academscience.com

Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

«O‘ZBEKISTON ILM-FANINING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: NAZARIYADAN AMALIYOTGACHA»

konferensiya materiallari to‘plami

Toshkent,
8-iyul, 2026

****

O‘zbekiston ilm-fanining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari: nazariyadan amaliyotgacha // Konferensiya materiallari to‘plami. 8-iyul, 2026. Toshkent.

Konferensiya tahririyat a’zolari

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J**. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J**. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B**. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo‘shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

Tadbirning maqsadi turli ilmiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarni muhokama qilish, yangi ilmiy g‘oyalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda jahon miqyosidagi innovatsion jarayonlarga uyg‘un ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Konferensiya doirasida olimlar, tadqiqotchilar, yosh izlanuvchilar va amaliyotchi mutaxassislar o‘z ilmiy-tadqiqot natijalarini taqdim etish, ilmiy g‘oyalar almashish hamda xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi turli ilmiy sohalarda olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish hamda ilg‘or ilmiy yondashuvlar asosida fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishdan iborat.

Mualliflar maqolalarda keltirilgan mazmun, ma'lumotlar, faktlar va statistik ko‘rsatkichlarning haqqoniyligi hamda ishonchliligi uchun to‘liq javobgardirlar.

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher“** (London, United Kingdom) and recommended for publication (July 5, 2026, Protocol No. 24).

MUNDARIJA

AGRAR SEKTOR BARQARORLIGI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 6

ХИМОЯЛАНГАН МАЙДОНЛАРДА ЕТИШТИРИШГА МОС БЎЛГАН, ИНДЕТЕРМИНАНТ ТИПИДАГИ ПОМИДОР ЭКИНИДА МАРКЕРГА АСОСЛАНГАН СЕЛЕКЦИЯНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ, АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА ЮТУҚЛАРИ 7

GEOGRAFIK TADQIQOTLAR, KOSMOTEXNOLOGIYALAR VA GEOEKOLOGIYA 20

O‘ZBEKISTONDA CHO‘LLANISH JARAYONI VA UNING OQIBATLARI 21

O‘ZBEKISTONDA GEOGRAFIK VA KOSMIK TADQIQOTLARNING ORQADA QOLISH SABABLARI: INSTITUTSIONAL, MOLIYAVIY VA TEXNOLOGIK MUAMMOLARNING TANQIDIY TAHLILI 35

MILLIY IQTISODIYOT VA HUQUQIY TIZIMNI ISLOH QILISH 50

JINOYAT PROTSESSIDA ADOLATLI SUD MUHOKAMASIGA BO'LGAN HUQUQNI TA'MINLASHDA SUDYALARNING CHINAKAM MUSTAQILLIGI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING AHAMIYATI 51

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASIDA PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI VA TENDENSIYALARI 64

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGI VA HUQUQIY TIZIMNI ISLOH QILISHNING KONSEPTUAL MASALALARI 79

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF TOURIST-RECREATIONAL ZONES IN UZBEKISTAN: AN ANALYSIS BASED ON INTERNATIONAL TOURIST FLOW DYNAMICS 89

OILA INSTITUTIDAGI IJTIMOIY ME’YORLARNING XOTIN-QIZLAR IQTISODIY FAOLLIGIGA TA’SIRI 100

MILLIY TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA 111

THE NATURE AND STRUCTURE OF DECLARATIVE KNOWLEDGE 112

INGLIZ TILI DARSLARIDA 5–9-SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI BAHOLASHNING METODIK YONDASHUVLARI 116

ZAMONAVIY MAKTABDA ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA O'QITISHNING YANGI YONDASHUVLARI VA USULLARI..... 123

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA ONA TILI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH 128

TEZ AYTISHLAR - BOLA TILINI O‘STIRISHNING TARBIYAVIY VOSITASI SIFATIDA..... 136

YOSH AVLODNI AXLOQIY TARBIYALASHDA OTA-ONANING ROLI 142

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОСЕТЕЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРЕИМУЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ..... 148

ВЛИЯНИЕ ВИДЕОИГР НА МОТИВАЦИЮ ДОСТИЖЕНИЯ И УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОДРОСТКОВ..... 153

IJTIMOIY-GUMANITAR MAKON: TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY MEROS 165

SHAHRISABZ SHAHRIDAGI DORUT-TILOVAT MAJMUASI: TARIXIY-MADANIY MEROS SIFATIDA O‘RGANISH VA TA’MIRLANISHI 166

JANUBIY XORAZM VOHASINING ANTIK VA ILK O‘RTA ASR QAL’ALARI: JOYLASHUV TIZIMI, ME’MORIY SHAKLLARI VA TALQINI 175

AGRAR SEKTOR BARQARORLIGI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

ХИМОЯЛАНГАН МАЙДОНЛАРДА ЕТИШТИРИШГА МОС БЎЛГАН, ИНДЕТЕРМИНАНТ ТИПИДАГИ ПОМИДОР ЭКИНИДА МАРКЕРГА АСОСЛАНГАН СЕЛЕКЦИЯНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ, АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА ЮТУҚЛАРИ

Камилов Муроджон Муқумжонович, қ.х.ф.ф.д

ORCID ID: 0009-0006-9445-4485

Эсонов Садриддин Олимович, мустақил изланувчи

ORCID ID: 0009-0007-7993-8656

Абдуллаев Исмоилжон Ибрахимжонович, қ.х.ф.ф.д., доцент

ORCID ID: 0000-0003-0222-0763

Раҳмонов Шухратбек Ҳусанбоевич, қ.х.ф.ф.д.

ORCID ID: 0009 -0009 -9264-4738

Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий-тадқиқот институти Андижон илмий-тажриба станцияси.

Аннотация. *Мазкур мақолада химояланган майдонларда (иссиқхона) етиштиришга мос помидор навларини яратишда маркерга асосланган селекция (МАС) технологиясининг илмий-амалий аҳамияти ёритилган. Анъанавий фенотипик селекция усуллари билан таққослаган ҳолда, МАС нинг генетик жиҳатдан аниқ, вақт ва меҳнат сарфини қисқартирувчи, бир вақтнинг ўзида бир нечта хўжалик-биологик белгини (касалликларга чидамлилик, ҳосилдорлик, мева сифати, сақланувчанлик) бирлаштириш имконини берувчи афзалликлари кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, жаҳон ва маҳаллий селекция амалиётидаги*

эришилган натижалар, ДНК-маркер тизимлари (SSR, SNP, CAPS, KASP), маркер-ёрдамида орқага қайтариш селекцияси (МАБЦ) ва геномик танлов усулларининг иссиқхона помидорчилигида қўлланилиши таҳлил қилинган. Мақола охирида МАС технологиясини республикамиз селекция амалиётига жорий этишнинг истиқболли йўналишлари бўйича тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: *помидор, иссиқхона селекцияси, маркерга асосланган селекция (МАС), молекуляр маркерлар, SNP, SSR, генларни пирамидалаш, касалликларга чидамлилик, геномик танлов, МАВС.*

Abstract. *This article examines the scientific and practical significance of marker-assisted selection (MAS) in developing tomato varieties adapted to greenhouse conditions. Compared with conventional phenotypic selection, MAS offers greater genetic precision, reduces the time and labour required for cultivar development, and enables the simultaneous pyramiding of several agronomically important traits, including disease resistance, yield, fruit quality and shelf life. The paper further analyses global and domestic breeding achievements, DNA-marker systems (SSR, SNP, CAPS, KASP), marker-assisted backcrossing (MABC) and genomic selection approaches applied to greenhouse tomato breeding, concluding with recommendations for the wider adoption of MAS in national breeding practice.*

Keywords: *tomato, greenhouse breeding, marker-assisted selection (MAS), molecular markers, SNP, SSR, gene pyramiding, disease resistance, genomic selection, MABC (marker-assisted backcrossing).*

КИРИШ. Ўзбекистонда сабзавотчилик, жумладан иссиқхона помидорчилиги, аҳолини йил давомида узлуксиз озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш нуқтаи назаридан устувор соҳалардан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда мамлакатимизда замонавий

иссиқхона комплекслари сони кескин ортиб бормоқда, бу эса маҳаллий шароитга — яъни чекланган ҳаво алмашинуви, юқори намлик, зич экиш тартиби ва йил давомида узлуксиз етиштириш циклига — мослашган, юқори ҳосилдор ҳамда касалликларга чидамли помидор навлари ва дурагайларига бўлган эҳтиёжни кучайтирмоқда.

Анъанавий селекция усуллари, яъни фенотипик белгиларга асосланган танлов, кўп йиллик тажриба давомида ўзининг самарадорлигини исботлаган бўлса-да, унинг бир қатор объектив чекловлари мавжуд: жараённинг узоқ давом этиши (8–10 йил ва ундан ортиқ), атроф-муҳит шароитининг натижаларга кучли таъсири, рецессив генларни аниқлашдаги қийинчиликлар ҳамда бир нечта белгини бир вақтда бирлаштиришнинг мураккаблиги. Ушбу муаммоларни ҳал этишда молекуляр биология ва геномика фанлари ютуқларига асосланган маркерга асосланган селекция (Marker-Assisted Selection, MAC) технологияси муҳим алтернатив восита сифатида кенг эътироф этилмоқда.

Мазкур мақоланинг мақсади — иссиқхона шароитига мослаштирилган помидор экинида MAC технологиясини қўллашнинг илмий-назарий асосларини, унинг анъанавий усуллардан устун жиҳатларини ҳамда жаҳон ва маҳаллий амалиётда қўлга киритилган натижаларни тизимли равишда таҳлил қилишдан иборат.

MAC тушунчаси ва молекуляр маркерлар турлари

Маркерга асосланган селекция — бу ўсимликнинг генотипида мавжуд бўлган, аниқ бир хўжалик-биологик белги (масалан, касалликка чидамлилик ёки мева сифати) билан узвий генетик боғлиқликка эга бўлган ДНК маркерларидан фойдаланган ҳолда, керакли аллелларга эга ўсимликларни эрта — одатда ниҳол босқичидаёқ — аниқлаш ва танлаш усулидир. Бунда селекционер белгининг фенотипик намоён бўлишини (масалан, мева пишишини ёки ўсимликнинг

касалликка чалинишини) кутиб ўтирмасдан, ДНК даражасида объектив хулоса чиқариш имкониятига эга бўлади.

Ҳозирги кунда помидор селекциясида қуйидаги молекуляр маркер тизимларидан фойдаланилади:

- SSR (Simple Sequence Repeats) — оддий такрорланувчи кетма-кетликлар асосидаги маркерлар; юқори полиморфизм ва такрорланувчанликка эга;
- SNP (Single Nucleotide Polymorphism) — якка нуклеотид полиморфизми; юқори аниқлик ва автоматлаштириш имконияти туфайли замонавий геномик танловнинг асосини ташкил этади;
- CAPS/dCAPS (Cleaved Amplified Polymorphic Sequences) — рестрикция ферментлари ёрдамида аниқланадиган маркерлар;
- KASP (Kompetitive Allele Specific PCR) — юқори унумли, кўп намунани бир вақтда таҳлил қилиш имконини берувчи замонавий технология;
- SCAR (Sequence Characterized Amplified Region) — муайян генга хос, оддий ПЗР асосида аниқланадиган маркерлар.

Ушбу маркерлар генетик хариталаш, QTL (миқдорий белги локуслари) таҳлили ҳамда геномда мақсадли генларнинг аниқ жойлашувини белгилаш орқали селекция жараёнини илмий асосда бошқариш имконини беради.

МАС нинг асосий турлари

1. Оддий маркерга асосланган танлов (MAS) — битта ёки бир нечта мақсадли ген учун тўғридан-тўғри танлов;
2. Маркер-ёрдамли орқага қайтариш селекцияси (Marker-Assisted Backcrossing, MABC) — донор навдан керакли генни реципиент навга киритиш ва фонни тезда тиклаш;
3. Генларни пирамидалаш (Gene Pyramiding) — бир нечта чидамлилик генини битта генотипга бирлаштириш;

4. Геномик танлов (Genomic Selection, GS) — бутун геном бўйлаб тарқалган минглаб SNP маркерлар асосида GEBV (геномик кўрсатилган наслий қиймат) ни ҳисоблаш орқали кўп генли (полигеник) белгиларни (масалан, умумий ҳосилдорлик) башорат қилиш.



1-диаграмма. *Иссиқхона помидорида маркерга асосланган селекциянинг асосий технологик босқичлари*

Иссиқхона шароитида етиштириладиган помидорда МАС нинг аҳамияти

Иссиқхона экотизими очиқ далага нисбатан бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга: назорат остидаги ҳарорат ва намлик режими, чекланган ҳаво алмашинуви, юқори экиш зичлиги ҳамда йил давомида узлуксиз етиштириш цикли. Айнан ушбу хусусиятлар туфайли иссиқхонада вирус, замбуруғ ва нематода каби патогенларнинг тарқалиш хавфи очиқ далага қараганда сезиларли даражада юқори бўлади. Шу боис иссиқхона помидорчилигида МАС технологиясининг қуйидаги йўналишлардаги аҳамияти алоҳида ажралиб туради:

Касалликларга чидамлиликни таъминлашдаги аҳамияти

Ёпиқ иссиқхона муҳитида юқори намлик ва барқарор ҳарорат замбуруғ ҳамда вирус касалликларининг (айниқса ToMV, Fusarium, Verticillium, Cladosporium) тезкор тарқалишига қулай шароит яратади. МАС ёрдамида Tm-2a, I/I-2/I-3, Ve1/Ve2, Cf-9 каби генларни аниқ ва тезкор равишда назорат қилиш имконияти пестицид ва фунгицидлардан фойдаланишни камайтириш, шу орқали экологик тоза маҳсулот етиштириш имконини беради.

Мева сифати ва сақланувчанлигини оширишдаги аҳамияти

Иссиқхона помидори кўпинча узоқ масофаларга ташилади ёки узоқ муддат сотув расталарида сақланади. Шу сабабли Rin ва Nor каби мева пишишини секинлаштирувчи генларни МАС орқали аниқ назорат қилиш, шунингдек Brix даражаси (қанд миқдори) билан боғлиқ QTL локусларини танлаш — маҳсулот сифати ва бозор рақобатбардошлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади.

Ресурс ва вақт самарадорлигини оширишдаги аҳамияти

Иссиқхона инфратузилмасини қуриш ва юритиш юқори харажат талаб қилгани сабабли, янги нав яратиш жараёнининг тезлашуви (МАС орқали 4–6 йилгача қисқариши) инвестицияларнинг тезроқ қайтишини таъминлайди ҳамда илмий-тадқиқот муассасалари учун чекланган ер майдони ва иссиқхона ресурсларидан оқилона фойдаланиш имконини беради.

МАС технологиясининг анъанавий селекцияга нисбатан асосий афзалликлари

Маркерга асосланган селекциянинг анъанавий фенотипик селекция усулидан асосий фарқловчи жиҳатлари қуйидаги 1-жадвалда умумлаштирилган.

1-жадвал.

Анъанавий ва МАС усулларининг қиёсий таснифи

Кўрсаткич	**Анъанавий фенотипик селекция**	**Маркерга асосланган селекция (МАС)**
Нав яратиш муддати	8–10 йил ва ундан кўп	4–6 йил
Танлов босқичи	Асосан мева пишиш даврида, фенотип шаклланганда	Ниҳол (сеянец) босқичида, ДНК даражасида
Атроф-муҳит таъсири	Юқори (натижа йил шароитига боғлиқ)	Амалда йўқ (ДНК генотипи барқарор)
Рецессив аллелларни аниқлаш	Қийин (гетерозигота ва гомозиготани фарқлаш мураккаб)	Аниқ ва ишончли
Бир вақтда бир нечта белгини бирлаштириш (пирамидалаш)	Амалда жуда мураккаб	Молекуляр маркерлар орқали қулай амалга оширилади
Харажат ва меҳнат сарфи (узоқ муддатли)	Юқори (кўп йиллик дала синовлари)	Дастлабки инвестиция юқори, лекин умумий самара юқори

Жадвалдан кўриниб турибдики, МАС нинг энг муҳим устунлиги — селекция жараёнининг эрта босқичларида, ҳали ўсимлик фенотипик белгиларини намоён қилмасдан туриб, генотип даражасида объектив ва барқарор танлов ўтказиш имкониятидир. Бу, ўз навбатида, иссиқхона майдонлари ва меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишга, шунингдек нотўғри танлов натижасида юзага келадиган йўқотишларни минималлаштиришга хизмат қилади.



2-диаграмма. Наслдан-наслга ўтишда генотипик танлов аниқлигининг ортиб бориши

Мураккаб (полигеник) белгиларни бошқаришдаги афзаллиги

Ҳосилдорлик, мева массаси, эрта пишиш каби кўпчилик хўжалик аҳамиятга молик белгилар полигеник хусусиятга, яъни бир нечта генлар ва уларнинг ўзаро таъсири орқали намоён бўлиш хусусиятига эга. Анъанавий усулда бундай белгиларни назорат қилиш деярли имконсиз даражада мураккаб бўлса, замонавий геномик танлов (GS) технологияси минглаб SNP маркерлар асосида GEBV кўрсаткичини ҳисоблаб, полигеник белгиларни юқори аниқлик билан башорат қилиш имконини беради.

Генларни пирамидалаш орқали кўп томонлама чидамликка эришиш

MAC технологиясининг яна бир муҳим афзаллиги — бир нечта чидамлилик генини (масалан, Tm-2a + Mi-1.2 + Ve каби) битта генотипга бирлаштириш, яъни генларни пирамидалаш имкониятидир. Анъанавий усулда бундай комбинацияларни аниқлаш учун ўнлаб авлодлар давомида мураккаб фенотипик синовлар ўтказиш талаб этилади, MAC эса буни бир неча авлод давомида, ДНК таҳлили орқали аниқ амалга ошириш имконини беради.

Жаҳон ва маҳаллий амалиётда қўлга киритилган ютуқлар

Сўнгги йигирма йил давомида дунёнинг етакчи селекция марказлари ва илмий-тадқиқот муассасаларида МАС технологияси иссиқхона помидорчилигига фаол жорий этилмоқда. Қуйидаги 2-жадвалда баъзи йирик тадқиқот йўналишлари ва уларнинг амалий натижалари келтирилган.

2-жадвал.

Жаҳон ва маҳаллий амалиётда МАС бўйича эришилган асосий натижалар

Йўналиш / муассаса	Эришилган натижа	Амалий аҳамияти
AVRDC – Дунё сабзавот маркази	Кўп чидамли (Tm-2a + Mi-1.2 + Ve) пирамидал линиялар яратилди	Бир нечта касалликка бир йўла чидамли иссиқхона гибридлари
Нидерландия (Wageningen UR)	Юқори технологияли иссиқхоналар учун QTL-асосида ҳосилдорлик селекцияси	Назорат остидаги муҳитда энергия ва сув самарадорлигини ошириш
Хитой (кўп марказли лойиҳалар)	МАБЦ орқали маҳаллий навларга вирусга чидамлилик генларини киритиш	Маҳаллий нав хусусиятларини сақлаган ҳолда чидамлиликни ошириш
Ўзбекистон (илмий-тадқиқот институтлари)	Маҳаллий помидор коллекцияларини SSR/SNP маркерлар билан генотиплаш ишлари бошланган	Иссиқхона шароитига мослашган миллий генофондни аниқлаш ва сақлаш

Ўзбекистон илмий муассасаларида ҳам сўнгги йилларда маҳаллий помидор коллекцияларини SSR ва SNP маркерлар ёрдамида генотиплаш, шунингдек хорижий донор навлардан олинган чидамлилик генларини маҳаллий, иссиқхона шароитига мослашган навларга МАБЦ усулида киритиш бўйича дастлабки илмий-амалий ишлар олиб борилмоқда. Бу борада халқаро илмий ҳамкорлик, лаборатория жиҳозларини замонавийлаштириш ҳамда ёш селекционер-биоинформатикларни тайёрлаш алоҳида аҳамият касб этади.

Помидорда МАС қўлланиладиган асосий генлар ва белгилар

Иссиқхона помидорида амалиётда энг кўп қўлланиладиган молекуляр маркерлар ва улар назорат қиладиган генлар қуйидаги 3-жадвалда келтирилган.

3-жадвал.

Иссиқхона помидорида МАС учун асосий генлар ва уларнинг аҳамияти

Ген / локус	**Боғлиқ маркер**	**Назорат қиладиган белги**	**Аҳамияти иссиқхона шароитида**
Tm-2a	SCAR/KASP маркерлари	Томат мозаика вирусига (ToMV) чидамлилик	Ёпиқ иссиқхонада вирус тезда тарқалиши хавфини камайтиради
Mi-1.2	REX-1, Mi23	Нематодаларга (Meloidogyne spp.) чидамлилик	Иссиқхона тупроғида нематода эҳтимоли юқори бўлганда муҳим
Ve1 / Ve2	Ve-маркерлари (CAPS)	Вертициллёз сўлишига (Verticillium) чидамлилик	Иссиқхонада намлик юқорилиги туфайли замбуруғ хавфи ортади
I / I-2 / I-3	SSR, SNP маркерлари	Фузариоз сўлишига (Fusarium oxysporum) чидамлилик	Иссиқхона тупроғида доимий хавф — узоқ муддатли ҳимоя зарур
Cf-9, Cf-4	CAPS, SCAR	Барг мажруҳлигига (Cladosporium fulvum) чидамлилик	Ёпиқ шароитда намлик юқори бўлганда касаллик тез тарқалади
rin, nor	InDel маркерлари	Мева пишишини секинлаштирувчи, сақланувчанликни ошириш	Узоқ транспорт ва сотиш муддатини узайтиради
QTL (Brix)	SNP-чипли QTL таҳлили	Мева таркибидаги қанд миқдори (шакар даражаси)	Истеъмолчилар учун маза сифатини оширади



3-диаграмма. Иссиқхона помидорида МАС қўлланиладиган асосий хўжалик-биологик белгилар гуруҳлари

Муаммолар ва истиқболли йўналишлар

МАС технологиясининг сезиларли афзалликларига қарамасдан, унинг республикамиз селекция амалиётига кенг жорий этилишида бир қатор муаммолар мавжуд:

• молекуляр-генетик лабораторияларнинг замонавий асбоб-ускуналар (ПЗР амплификаторлари, генотиплаш платформалари) билан етарли даражада таъминланмаганлиги;

• маҳаллий помидор генофондининг молекуляр маркерлар асосида тўлиқ паспортлаштирилмаганлиги;

• биоинформатика ва геномика соҳасида малакали мутахассис кадрларнинг етишмаслиги;

• дастлабки босқичда лаборатория ва реактив харажатларининг юқорилиги.

Ушбу муаммоларни бартараф этиш мақсадида қуйидаги истиқболли йўналишлар тавсия этилади:

1. илмий-тадқиқот институтлари ҳузурида замонавий молекуляр-генетик лабораторияларни жиҳозлаш ва мавжудларини модернизация қилиш;
2. маҳаллий помидор коллекцияларини SNP-чиплар асосида кенг кўламли генотиплашдан ўтказиш ва миллий геномик маълумотлар базасини яратиш;
3. хорижий етакчи илмий марказлар (AVRDC, Wageningen UR ва бошқалар) билан илмий-техник ҳамкорликни кенгайтириш;
4. ёш селекционер ва биоинформатикларни халқаро дастурлар асосида тайёрлаш ва малакасини ошириш;
5. иссиқхона шароитига мослашган, генлари пирамидаланган миллий помидор гибридларини яратиш бўйича узоқ муддатли давлат дастурларини ишлаб чиқиш.

ХУЛОСА. Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатадики, маркерга асосланган селекция (МАС) технологияси иссиқхона шароитига мослаштирилган помидор навлари ва дурагайларини яратишда анъанавий фенотипик селекцияга нисбатан бир қатор устувор афзалликларга эга, яъни селекция муддатини қисқартиради, генотипик танлов аниқлигини оширади, атроф-муҳит таъсиридан мустақил объектив натижа беради ҳамда бир нечта хўжалик-биологик белгини бир вақтда бирлаштириш (пирамидалаш) имконини яратади. Жаҳон амалиётида қўлга киритилган натижалар ушбу технологиянинг иқтисодий ва илмий жиҳатдан юқори самарадорлигини тасдиқлайди.

Ўзбекистон шароитида иссиқхона помидорчилигини янада ривожлантириш, экспорт салоҳиятини ошириш ҳамда озиқ-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлаш мақсадида МАС технологиясини илмий-тадқиқот муассасалари ва селекция-уруғчилик хўжаликлари амалиётига кенг жорий этиш, тегишли моддий-техник

база ва малакали кадрлар салоҳиятини яратиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Collard B.C.Y., Mackill D.J. Marker-assisted selection: an approach for precision plant breeding in the twenty-first century // Philosophical Transactions of the Royal Society B. — 2008. — Vol. 363. — P. 557–572.

2. Foolad M.R., Panthee D.R. Marker-assisted selection in tomato breeding // Critical Reviews in Plant Sciences. — 2012. — Vol. 31, № 2. — P. 93–123.

3. Bai Y., Lindhout P. Domestication and breeding of tomatoes: what have we gained and what can we gain in the future? // Annals of Botany. — 2007. — Vol. 100, № 5. — P. 1085–1094.

4. Gonzalo M.J., van der Knaap E. Tomato breeding: molecular tools and marker-assisted selection // Genomic Designing for Biotic Stress Resistant Vegetable Crops. — Springer, 2020. — P. 1–37.

5. Ганиев М.А. ва бошқ. Помидор селекциясида молекуляр маркерларнинг қўлланилиши // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. — 2022. — № 4. — Б. 22–27.

6. AVRDC — The World Vegetable Center. Tomato disease resistance breeding: annual technical report. — Taiwan, 2021.

7. Meuwissen T.H.E., Hayes B.J., Goddard M.E. Prediction of total genetic value using genome-wide dense marker maps // Genetics. — 2001. — Vol. 157. — P. 1819–1829.

8. Xu Y., Crouch J.H. Marker-assisted selection in plant breeding: from publications to practice // Crop Science. — 2008. — Vol. 48, № 2. — P. 391–407.

GEOGRAFIK TADQIQOTLAR, KOSMOTEXNOLOGIYALAR VA GEOEKOLOGIYA

O‘ZBEKISTONDA CHO‘LLANISH JARAYONI VA UNING OQIBATLARI

Raimova Durdona Shuxrat qizi

O‘zbekiston Millliy universiteti

E-mail: draimova866@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistondagi cho‘llanish jarayonlari, ularning kelib chiqish sabablari va ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari batafsil tahlil qilingan.Cho‘llanishni keltirib chiqaruvchi tabiiy omillar (iqlim o‘zgarishi, shamol eroziyasi, suv tanqisligi) va antropogen ta’sirlarni (sug‘orish tizimlarining eskirishi, yaylovlar degradatsiyasi) alohida ko‘rib chiqilgan. Maqolada Orol dengizining qurigan tubida vujudga kelgan “Orolqum” cho‘lining salbiy oqibatlarini yumshatish borasida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi, o‘rmonlashtirish ishlari hamda Xitoy va Isroil kabi davlatlarning ilg‘or xalqaro tajribalari o‘rganilgan. Shuningdek, ekologik muammolarni hal etishda ilm-fan, innovatsion texnologiyalar (“Agroparvo”) va ta’lim tizimining integratsiyalashuvi hal qiluvchi rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Cho‘llanish, ekologik inqiroz, Orolqum, tuproq degradatsiyasi, antropogen omil, shamol eroziyasi, Yashil makon, xalqaro tajriba, halofitlar, ekologik ta’lim.*

bAstract. *This article provides a comprehensive analysis of desertification processes in Uzbekistan, examining their underlying causes alongside their environmental and socio-economic consequences. The author distinguishes between natural factors driving desertification (such as climate change, wind erosion, and water scarcity) and anthropogenic impacts (including outdated irrigation systems and*

pasture degradation). The study highlights Uzbekistan's strategic mitigation efforts against the negative impacts of the “Aralkum” desert, formed on the dried bed of the Aral Sea, focusing on the “Yashil Makon” (Green Nation) initiative, extensive afforestation projects, and the adaptation of advanced international expertise from countries like China and Israel. Furthermore, it emphasizes the critical role of integrating science, innovative technologies (such as the “Agroparvoz” seed-sowing technique), and the educational system in addressing these pressing environmental challenges.

Keywords: *Desertification, ecological crisis, Aralkum, land degradation, anthropogenic factor, wind erosion, Yashil Makon, international experience, halophytes, environmental education.*

Аннотация. *В данной статье подробно анализируются процессы опустынивания в Узбекистане, причины их возникновения, а также экологические и социально-экономические последствия. Автор отдельно рассматривает природные факторы, вызывающие опустынивание (изменение климата, ветровая эрозия, дефицит воды), и антропогенные воздействия (устаревшие оросительные системы, деградация пастбищ). В статье изучаются меры, принимаемые в Узбекистане по смягчению негативных последствий пустыни “Аралкум”, образовавшейся на высохшем дне Аральского моря, включая общенациональный проект “Яшил макон” (Зеленый край), лесомелиоративные работы и внедрение передового международного опыта таких стран, как Китай и Израиль. Также показано, что интеграция науки, инновационных технологий (технология “Агропарвоз”) и системы образования играет решающую роль в решении экологических проблем.*

Ключевые слова: *Опустынивание, экологический кризис, Аралкум, деградация почв, антропогенный фактор, ветровая эрозия, Яшил макон, международный опыт, галофиты, экологическое образование.*

Kirish. Hozirgi kunda yer sharida global iqlim o‘zgarishi va antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelayotgan ekologik tangliklar xalqaro miqyosdagi eng dolzarb global muammolardan biriga aylandi. Tabiiy resurslarning kamayishi, biosfera muvozanatining buzilishi va yerlarning inqirozga uchrashi ko‘plab mamlakatlar qatori Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligiga ham jiddiy xavf solmoqda. Shunday sharoitda qurg‘oqchil hududlarda joylashgan O‘zbekiston Respublikasi uchun yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish ekologik va iqtisodiy xavfsizlikning fundamental asosi hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi va uning oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi va tabiiy-iqlim sharoitiga ko‘ra qurg‘oqchilik va yer resurslarining degradatsiyasiga eng ko‘p moyil bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz umumiy maydonining 80 foizdan ortig‘ini qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil zonalar tashkil etishi, so‘nggi yarim asrda Markaziy Osiyo muzliklarining qariyb 30 foizga qisqargani va yirik daryolar havzasida suv hajmining keskin kamayishi muammoning ko‘lamini yanada kengaytirmoqda. Ayniqsa, Orol dengizining qurishi oqibatida vujudga kelgan, maydoni 5,5 million gektardan ziyod bo‘lgan dunyodagi eng yosh “Orolqum” cho‘li mintaqadagi ekologik barqarorlikka, qishloq xo‘jaligi hosildorligiga va aholi salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston hududida kechayotgan cho‘llanish jarayonlarining tabiiy (iqlimiy, shamol

eroziyasi, tuproq sho‘rlanishi) va antropogen (noto‘g‘ri sug‘orish, yaylovlardan haddan tashqari ko‘p foydalanish, o‘simlik qoplamini yo‘q qilish) omillarini atroflicha tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada davlat darajasida qabul qilingan strategik dasturlar, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, innovatsion “Agroparvoz” texnologiyasi hamda xalqaro tajribalarni tatbiq etish orqali cho‘llanishga qarshi kurashning ilmiy-amaliy samaradorligini va ta’lim tizimining bu jarayondagi o‘rnini baholash vazifasi belgilangan.

Asosiy qism. So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekiston hududida cho‘llanish jarayonlari va iqlim o‘zgarishi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Respublikamiz maydonining 80 foizdan ortig‘i qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil zonalarga kiradi. Shunday sharoitda yer resurslarining degradatsiyasi, suv tanqisligi va biogeotsenozlarining buzilishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy xavfsizlik muammosiga ham aylanmoqda. So‘nggi 50–60 yil ichida Markaziy Osiyodagi muzliklar maydoni qariyb 30 foizga qisqargan, bu esa Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi suv hajmining keskin kamayishiga olib keldi. BMTning 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib mintaqada chuchuk suv tanqisligi yalpi ichki mahsulotning 10-11 foizgacha kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois cho‘llanishga qarshi kurash O‘zbekistonning ekologik siyosatidagi strategik ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Chunki cho‘llanish nafaqat tabiiy resurslarning yo‘qolishiga, balki butun mamlakatning barqaror rivojlanishi, aholi salomatligi va iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Bu jarayonning chuqurlashuvi natijasida tuproq unumdorligining pasayishi, suv resurslarining qisqarishi, o‘simlik va hayvonot dunyosining yo‘qolishi, aholi migratsiyasining kuchayishi kabi ko‘plab murakkab oqibatlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli davlat darajasida cho‘llanish jarayonlarini sekinlashtirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik tizimlarni tiklash va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan boshqaruv siyosatini shakllantirish

O‘zbekistonning uzoq muddatli ekologik strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Bugun cho‘llanishga qarshi kurash respublikaning milliy manfaatlari, xususan, “Yashil makon” tashabbusi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-15) hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi ekologik ustuvor yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Cho‘llanish – qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi, ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashuvi va natijada tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga olib keluvchi tabiiy geografik hamda antropogen jarayonlar majmuyidir. Bu jarayonlar tabiiy o‘simliklar turlari va miqdorining kamayishi, tuproq eroziyasi, tuproqning sho‘rlanishi va unumdorligining kamayib ketishi kabilardan iborat. Cho‘llanish natijasida cho‘llarning maydoni ortadi, cho‘l tavsifli landshaftlar yuzaga keladi. Yer yuzasining 48,5 mln. km² ga yaqin qismi cho‘l va chala cho‘llardan iborat bo‘lib, uning 10 mln. km² ga yaqini antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelgan. Cho‘llanish jarayoni deyarli barcha qit’alarda, ko‘proq Afrika, Osiyo, Avstraliya hamda Janubiy Amerikaning qurg‘oqchil iqlimli hududlarida kuzatilmoqda. Markaziy Osiyoda Orol dengizi va Orolbo‘yi regionida ham mavjud bo‘lib, tang ekologik holat yuzaga keldi. Cho‘llanish murakkab va jahon miqyosidagi ekologik muammoga aylandi.

O‘zbekistonda cho‘llanish jarayoni tabiiy va inson faoliyati bilan bog‘liq omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasida kechmoqda. Har ikkala omil bir-birini kuchaytirib, tabiiy resurslarning degradatsiyasini tezlashtirmoqda. Quyida ushbu omillarni batafsil tahlil qilamiz.

1. Tabiiy omillar

O‘zbekiston hududining katta qismi qurg‘oq va yarim qurg‘oq iqlim zonasiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda yog‘ingarchilik miqdori yiliga o‘rtacha 100–250 millimetrdan oshmaydi, ba’zi cho‘l hududlarida esa 80 millimetr atrofida bo‘ladi. Bunday iqlim sharoitida namlikning keskin tanqisligi tuproqdagi biologik jarayonlarni sekinlashtiradi

va o‘simliklarning tabiiy regeneratsiyasiga to‘sqinlik qiladi.Havo haroratining yil sayin oshib borayotgani ham cho‘llanish jarayonining jadallashuviga olib kelmoqda. So‘nggi 50 yil ichida O‘zbekiston hududida o‘rtacha harorat 1,5–1,7 °C ga ko‘tarilgan. Harorat oshishi bilan birga bug‘lanish hajmi ham ko‘payib, mavjud suv manbalarining qurib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Shamol eroziyasi – cho‘l iqlimining yana bir hal qiluvchi omili. Ayniqsa, bahor va yoz fasllarida esadigan “garmsel” shamollari tuproqning unumdor ustki qatlamini uchirib ketadi. Bu jarayon yiliga o‘rtacha 5–7 million tonna unumdor tuproqning yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi. Buning oqibatida yerlarning mexanik tarkibi o‘zgarib, ular dehqonchilik uchun yaroqsiz holga keladi.Yer osti suvlarining sathi pasayib, minerallashuv darajasi ortib bormoqda. Buning natijasida tuproq sho‘rlanishi, o‘simliklar ildizlari uchun zarur bo‘lgan suv va ozuqa muvozanatining buzilishi sodir bo‘ladi. Bu hodisa ayniqsa, Xorazm, Qoraqalpog‘iston va Buxoro viloyatlarida keskin sezilmoqda.

Sho‘rlangan yerlar yildan yilga kengayib, sug‘oriladigan maydonlarning unumdorligini pasaytiradi.

2. Antropogen omillar.

Tabiiy jarayonlar cho‘llanishga zamin yaratsa, inson faoliyati uni keskin kuchaytiradi. So‘nggi yarim asrda iqtisodiy faoliyatning noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, suv resurslarining samarasiz boshqarilishi va ekologik madaniyatning yetishmasligi bu jarayonni yanada tezlashtirdi.

Mamlakatdagi sug‘oriladigan yerlarning yarmi o‘tgan asrning 60–70-yillarida qurilgan eski kanallar orqali sug‘oriladi. Bu inshootlarning 40 foizdan ortig‘i suvni yo‘qotuvchi ochiq ariqlar tizimiga mansub bo‘lib, bug‘lanish va sizilish yo‘li bilan yillik suvning 25–30 foizi yo‘qotiladi. Buning natijasida ayrim hududlarda suv yetishmasligi, boshqalarida esa ortiqcha sug‘orish tufayli sho‘rlanish jarayonlari kuchaymoqda.

Qishloq xo‘jaligida chorvachilik sohasining jadal o‘sishi tabiiy yaylovarga bosimni kuchaytirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi 22 million gektar tabiiy yaylovlarning 43 foizi allaqachon degradatsiyaga uchragan. Chorva sonining haddan ortiq ko‘payishi natijasida o‘simliklar qoplamining tiklanish davri qisqarmoqda, tuproq quruq, qotgan holga kelmoqda. Quruq hududlarda aholining energiya manbalari (ko‘mir, gaz, elektr) yetarli emasligi sababli, aholi ko‘p hollarda o‘tin va butalarni kesishga majbur bo‘ladi. Bu esa tabiiy o‘rmonzorlardan himoya qatlamini yo‘qotadi, tuproqni eroziyaga ochib qo‘yadi. O‘rmonlarning kamayishi bilan birga shamol tezligi ortadi, natijada chang va tuz bo‘ronlari ko‘payadi. Dehqonchilikda hosildorlikni oshirish maqsadida kimyoviy o‘g‘itlardan haddan tashqari foydalanish tuproqdagi mikroorganizmlar muvozanatini buzadi, suv havzalarini ifloslantiradi. Buning oqibatida biogeokimyoviy jarayonlar o‘zgarib, yerning tabiiy tiklanish qobiliyati susayadi. Suv taqsimoti ko‘pincha iqtisodiy manfaatlar asosida amalga oshiriladi. Natijada ayrim hududlarda suv tanqisligi, boshqalarida esa ortiqcha sug‘orish tufayli sho‘rlanish kuchaymoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining katta qismi (60–70 %) qishloq xo‘jaligiga sarflanadi, biroq ularning 40 foizgacha qismi manzilga yetmasdan bug‘lanish yoki sizilish yo‘li bilan yo‘qotiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, cho‘llanish jarayonining 44 foizi yaylovlarning haddan tashqari foydalanilishiga, 25 foizi esa butalarning kesilishiga to‘g‘ri keladi. Qolgan omillar – qurg‘oqchilik, shamol eroziyasi, sanoat faoliyati, iqlim o‘zgarishlari, kimyoviy ifloslanish va geologik omillar umumiy degradatsiya jarayonining taxminan uchdan bir qismini tashkil etadi.

Cho‘llanish eng kuchli kuzatiladigan zonalar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatalaridir. Bu hududlarning katta qismi tabiiy yaylovlardan iborat, ularda shamol va suv eroziyasi, sho‘rlanish, o‘simlik qoplamining qisqarishi, grunt suvlarining

minerallashuvi va yuzaga yaqinlashuvi kabi degradatsion jarayonlar bir vaqtning o‘zida kechmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida Orol dengizining qurishi bilan deltaning ko‘p yillik sug‘oriladigan yerlari (“qoraqamish” zonalari, quyi Amudaryo deltasining qoldiq oqim zonalari) sho‘rlanib, qumlanishga o‘tmoqda. Saksovul-cherkez zonalari kengayishi shamol eroziyasini sekinlashtirsa-da, dehqonchilik uchun yaroqli maydon qisqarib bormoqda. Chang-tuz aerozollari Mo‘ynoq–Qanliko‘l–Qo‘ng‘irot yo‘nalishida uzoq masofali ko‘chish bilan tavsiflanadi; bahor–yoz mavsumida shaffoflik pasayishi, nafas yo‘llari kasalliklari va hosildorlikka zarba beradi. So‘nggi o‘n yillikda yangi cho‘l – Orolqum vujudga keldi. U Orol dengizining qurigan tubida shakllangan va bugungi kunda 5,5 million gektardan ortiq maydonni egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Orolbo‘yi hududida paxta va g‘alla hosildorligi 40–45 foizgacha kamaygan.

Xorazm viloyatida Amudaryoning o‘zani va kollektor-drenaj tarmog‘iga bog‘liq ikkinchi darajali sho‘rlanish kuchaymoqda. Shamol eroziyasi (ayniqsa, vegetatsiya oralig‘ida) tuproqning chirindi qatlamini yupqartirmoqda; paxta–g‘alla almashlab ekish tizimida yillik agrotexnik uzilishlar hosildorlikni pasaytiradi.

Navoiy va Buxoro viloyatlarida Qizilqum va Tomdi–Uchkuduk yo‘nalishlari cho‘l landshaftlari kuchli deflyatsiya (shamol ko‘chirish) maydonlaridir. Bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi davrida qurilgan ochiq kanallarning eskirishi suvni bug‘lanish, sizilish orqali yo‘qotadi, natijada sho‘r qatlam yuzaga yaqinlashadi va ikkilamchi sho‘rlanish tezlashadi. Yaylov bosimi yuqori, ya’ni bahorgi efemerlar (bahor o‘tlari) qisqa muddatda o‘rilib ketadi, vegetatsiya oralig‘ida tuproq yalang‘ochlanib, deflyatsiya kuchayadi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida Mirzacho‘lda shamol resurslari kuchli, qish–bahor oralig‘ida ko‘tarilgan qum-chang oqimlari sug‘oriladigan massivlarning chekka konturlarini yemiradi. Kollektor-drenaj suvlarining minerallashuvi yuqoriroq bo‘lib,

sho‘r yuvish me’yoriga rioya qilinmasa, dala profilida sho‘r qatlamlar qayta paydo bo‘ladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi Sherobod cho‘li va Qarshi platosi atrofida kuzgi–bahorgi shamollar deflyatsiyani kuchaytiradi, yangi agroerlar konturlari atrofida himoya o‘rmon-belbog‘larining yo‘qligi seziladi. Yirik kanallar bo‘yida ortiqcha sug‘orishda sho‘rlanish o‘choqlari qayta tiklanadi.

Farg‘ona vodiysining (Yozyovon kabi zonalari) markaziy qismi nisbatan namroq bo‘lsa-da, bahorgi chang bo‘ronlari vaqtida Orolbo‘yidan ko‘chgan tuz aerozollari vodiyning g‘arbiy chekkaga yetib keladi, bu bog‘dorchilik va sabzavotchilikda barqarorlikni kuchaytiradi.

Cho‘llanishning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari quyidagilardan iborat: Shamol (deflyatsiya) unumdor chirindi qatlamini uchirib ketadi; sho‘rlanish ikkilamchi tarzda kuchayadi; agroprofilda tuz qatlamlari qayta yuzaga chiqadi. Bu jarayonlar cho‘l va chalacho‘l zonalarida ayniqsa keskin kechadi.

Biologik xilma-xillikning qisqarishi kuzatiladi, ya’ni o‘simlik va hayvon turlarining tabiiy yashash muhitlari yomonlashadi, “Qizil kitob”ga kiritiladigan turlar soni ortib boradi.

Landshaftlarning barqarorligi buziladi, yaylov o‘simliklar qoplamining siyraklashuvi deflyatsiyani jaddallashtiradi, qum-chang oqimlari chastotasi va masofasi ortadi, bardoshli halofit (sho‘r-chidamlil) turlar ulushi ko‘payib, tabiiy biogeotsenoz tuzilmasi o‘zgaradi.

Hosildorlikning pasayishi kuzatiladi. Orolbo‘yi hududida paxta va g‘alla hosildorligi 40–45 foizgacha kamaygan (sho‘rlanish, chang-tuz yotqiziqlari va suv ta’minotidagi uzilishlar natijasida).

Yil sayin sug‘oriladigan yerlar maydoni qisqarib boradi, sho‘rlanish, kollektor-drenaj tarmoqlarining samarasi pasayishi va suv taqchilligi tufayli o‘zlashtirilgan maydonlar barqarorligi zaiflashmoqda.

Tabiiy yaylovlarning 43 foizi degradatsiyaga uchragan; ortiqcha yaylov bosimi chorva uchun yem-xashak bazasini qisqartirmoqda.

Sug‘orish tizimlarining eskirishi, bug‘lanish va sizilish yo‘qotmalarining ko‘pligi pastki oqimdagi maydonlarda tanqislikni chuqurlashtiradi; sho‘r yuvish rejimi buzilganda dala profilida tuz qatlamlari qayta hosil bo‘ladi.

Orolqum yo‘nalishidagi chang-tuz oqimlari yuzlab kilometr masofaga ko‘chib, Qoraqalpog‘iston va Xorazm orqali mamlakat ichkarisiga (Navoiy–Jizzax yo‘nalishlari, hatto Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysiga ham) kirib boradi; bu agrotexnik ishlar sifatini ham pasaytiradi.

Chang-tuz bo‘ronlari va sho‘r aerozollar nafas yo‘llari muammolari va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi; Orolbo‘yida bunday xavf omillarining kuchaygani ilmiy va amaliy kuzatishlarda qayd etilgan.

Hosildorlik pasayishi, suv tanqisligi, yaylov inqirozi va changli kunlar sonining ko‘payishi iqtisodiy barqarorlikka bosim qiladi; daromadlar qisqarishi va ijtimoiy infratuzilmaning zo‘riqishi ichki migratsiya oqimlarini kuchaytiradi.

Cho‘llanishning yuqoridagi kabi salbiy oqibatlarini yumshatish va atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston hukumati cho‘llanish va yer degradatsiyasiga qarshi kurashni milliy ekologik siyosatning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Shu maqsadda so‘nggi yillarda davlat darajasida qator strategik hujjatlar va kompleks dasturlar ishlab chiqildi:

- ✓ “Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi – 2030”;
- ✓ “Suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi – 2020–2030”;
- ✓ “Cho‘l hududlarida himoya o‘rmonlarini barpo etish dasturi – 2025–2030”;
- ✓ “Yashil makon” umummilliy loyihasi.

Ushbu hujjatlar asosida cho‘llanishga qarshi kurash ko‘p tarmoqli, bosqichma-bosqich va natijaga yo‘naltirilgan tizim sifatida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston cho‘llanishga qarshi kurashda Xitoy, Isroil, Turkiya, Koreya va Yaponiya kabi davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganmoqda. Xitoy tajribasi (“Yashil devor” loyihasi): 2050-yilgacha Gobi cho‘lini o‘rmon bilan qoplash rejalashtirilgan. Shu model asosida O‘zbekiston ham Orolqumda millionlab saksovul daraxtlarini ekmoqda.

Isroil tajribasi: qurg‘oqchil hududlarda markazlashgan suv boshqaruvi, chiqindi suvlarni qayta ishlash va suvni to‘plash tizimi. Bu yondashuvlar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilmoqda – xususan, Jizzax va Qoraqalpog‘istonda suvni qayta ishlovchi modullar sinovdan o‘tkazilmoqda.

“Agroparvoz” texnologiyasi yordamida motodeltaplanlar orqali cho‘l o‘simliklari urug‘lari havodan sepiladi, urug‘lar granulalash texnikasi to‘liq mahalliy lashtirildi. Shu sohada 4 ta patent olindi va “Orolqum”da amaliy natijalar qayd etildi.

Xitoyning Shinjon ekologiya va geografiya instituti bilan hamkorlikda 5 ta o‘rmon xo‘jaligida (Arnasay, Nukus, Qorako‘lsoy, Muborak, Qaromiy) halofit bog‘lari tashkil etildi, 1 325 kg urug‘ (35 turdagi tuzga chidamli o‘simliklar) olib kelindi.

2023-yili Orolbo‘yida 23 turdagi halofit o‘simliklari sinovdan o‘tkazildi, shuningdek, Bolgariyaning “ACTA” kompaniyasi bilan 50 ming gektar maydonda o‘rmon barpo etish bo‘yicha shartnoma tuzildi.

2025–2030-yillarda cho‘l hududlarida 1,5 million gektar maydonda cho‘llanishga qarshi himoya o‘rmonlari barpo etilishi belgilangan. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida “Green University”, O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Ekologiya vazirligi huzuridagi ilmiy markazlar cho‘l o‘simliklarini ekish, urug‘larni granulalash va yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazmoqda.

Orol dengizining qurigan tubida 2018-yildan buyon 2 million gektar “yashil qoplama” barpo etildi. Bu yerda saksovul, qandim, cherkez, yulg‘un, tamariks kabi cho‘l o‘simliklari ekilib, deflyatsiyani to‘xtatishda sezilarli natija berdi. Keyingi

bosqichda bu ishlar yiliga 250 ming gektardan 7 ta hududda (Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo) amalga oshiriladi.

Shuningdek, BMT, GEF, JICA, KOICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Orolbo‘yi va cho‘l hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa

O‘zbekistondagi cho‘llanish jarayonlari va ularning oqibatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu muammo nafaqat tabiat hodisasi, balki inson faoliyati va noto‘g‘ri suv boshqaruvi natijasida kuchaygan jiddiy ekologik inqirozdir. Mamlakatimiz hududining katta qismi qurg‘oqchil iqlimga ega bo‘lgani sababli, iqlim isishi va Orol dengizining qurishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. Orol dengizi o‘rnida paydo bo‘lgan “Orolqum” cho‘lidan ko‘tarilayotgan chang va tuz bo‘ronlari qishloq xo‘jaligiga jiddiy zarar yetkazib, ekinlar hosildorligini keskin pasaytirmoqda hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yerlarning sho‘rlanishi va yaylovlarning yemirilishi oziq-ovqat xavfsizligiga hamda iqtisodiy barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid solmoqda.

Biroq so‘nggi yillarda davlat darajasida amalga oshirilayotgan tizimli choralar, xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va Orolning qurigan tubida millionlab gektar o‘rmonlar barpo etilishi vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirmoqda. Cho‘l hududlarida saksovul va boshqa chidamli osimliklarning ekilishi zararli shamollarning tezligini hamda havodagi chang miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Xitoy va Isroil kabi davlatlarning suvni tejash hamda cho‘lga qarshi kurashish borasidagi ilg‘or tajribalari, shuningdek, havodan urug‘ sepuvchi “Agroparvoz” kabi zamonaviy texnologiyalar yurtimiz sharoitiga muvaffaqiyatli moslashtirilmoqda.

Bu muammoning uzoq muddatli va barqaror yechimi jamiyatda, ayniqsa, yosh avlod o‘rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirish bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, bugungi kunda maktab darslarida va oliy ta’lim tizimida “Yashil iqtisodiyot” hamda tabiatni muhofaza qilish mavzularining keng o‘qitilayotgani kelajakda tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Yakuniy xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning cho‘llanishga qarshi olib borayotgan milliy siyosati faqat tabiatni asrashga emas, balki mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi, xalqning salomatligi va kelajak avlod farovonligini ta’minlashga qaratilgan hayotiy strategiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurmahmatov, S. va boshq. O‘zbekistonda cho‘llanish jarayonlari va uning oqibatlari. – Toshkent: Fan, 2002. – 184 b.

2. Alibekov, L. A. Cho‘llanish geografik muammo sifatida (Markaziy Osiyo misolida). Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. – 160 b.

3. Nazarov, I. K. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 232 b.

4. Rafikov, A. A. Geoekologik muammolar va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Universitet, 2011. – 204 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. O‘zbekistonda yerlarning degradatsiyasi va cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha Milliy hisobot. – Toshkent, 2023.

6. United Nations Convention to Combat Desertification (UNCCD). Desertification, Land Degradation and Drought in Central Asia: Country Profile of Uzbekistan. – Bonn, Germany: UNCCD Secretariat, 2021.

7. ResearchGate Electronic Resource. O'zbekistonda cho'llanish jarayoni va uning oqibatlari (Tadqiqot ishlari to‘plami). URL: researchgate.net (Murojaat sanasi: 08.07.2026).

8. CyberLeninka Raqamli Kutubxonasi. Cho‘llanishga qarshi kurashda Markaziy Osiyo tajribasi: muammolar va huquqiy asoslar. URL: cyberleninka.ru (Murojaat sanasi: 08.07.2026).

9. Geografiya- ilmiy-metodologik, ma’naviy-ma’rifiy, ta’limiy jurnal
№ 5 (185) 2025-yil. 34-b.- Toshkent, 2025

O‘ZBEKISTONDA GEOGRAFIK VA KOSMIK TADQIQOTLARNING ORQADA QOLISH SABABLARI: INSTITUTSIONAL, MOLIYAVIY VA TEXNOLOGIK MUAMMOLARNING TANQIDIY TAHLILI

Iskandarov Egamberdi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: egamberdi_iskandarov@vk.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda geografik va kosmik tadqiqotlarning rivojlanish holati tanqidiy-institutsional yondashuv asosida tahlil qilinadi. „Orqada qolish“ tushunchasi subyektiv hukm sifatida emas, balki ilmiy-tadqiqot xarajatlari, geofazoviy ma’lumotlarning mavjudligi va ochiqligi, zamonaviy laboratoriya hamda dala infratuzilmasi, kadrlar tayyorlash sifati, fan–davlat–biznes aloqalari va milliy kosmik texnologiyalar zanjirining yetukligi orqali baholanadi. Tahlil O‘zbekistonning geografik muammolari — suv tanqisligi, Orolbo‘yi inqirozi, cho‘llanish, urbanizatsiya, seysmik xavf va transchegaraviy resurslar — yuqori darajadagi geografik bilimni talab qilishiga qaramay, ilmiy tizim bu ehtiyojni barqaror mahsulotga aylantira olmayotganini ko‘rsatadi. Asosiy sabablar sifatida ilm-fanning surunkali kam moliyalashtirilishi, vakolatlarning idoralar bo‘yicha parchalanishi, geografiyaning maktab predmeti va texnik xizmat oralig‘ida qolib ketishi, fazoviy ma’lumotlarga kirish cheklovlari, hududiy ilmiy maktablarning zaifligi, zamonaviy dasturlash va masofadan zondlash kompetensiyalarining yetishmasligi hamda natijaga yo‘naltirilgan davlat buyurtmasining sustligi ajratiladi. 2019–2026-yillarda yaratilgan huquqiy va tashkiliy baza muhim burilish bo‘lsa-da, u hali mustaqil ilmiy-texnologik ekotizimga aylangan emas. Maqola ochiq milliy geoma’lumotlar infratuzilmasi, missiyaviy moliyalashtirish, hududiy dala stansiyalari, universitet–*

agentlik konsorsiumlari va kichik sun’iy yo‘ldoshlar dasturiga tayangan islohot modelini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: *geografik tadqiqotlar; kosmik tadqiqotlar; O‘zbekkosmos; geofazoviy ma’lumotlar; masofadan zondlash; GIS; ilmiy siyosat; ochiq ma’lumotlar; O‘zbekiston*

Abstract. *This critical policy review examines why geographical and space research in Uzbekistan remains underdeveloped despite the country’s acute water, climate, urban, seismic and land-management challenges. The paper argues that the core problem is not a lack of talent but a fragmented knowledge-production system characterized by low R&D expenditure, limited access to reliable geospatial data, weak university–industry–government links, insufficient long-term field infrastructure, and a space sector focused largely on downstream use of foreign satellite data. Recent reforms—including the creation of Uzcosmos, spatial-data and space-activity legislation, state monitoring services and the proposed 2028 CubeSat mission—represent a meaningful start but not yet a mature research ecosystem. A mission-oriented national Earth-systems programme, open spatial-data infrastructure, regional observatories, interdisciplinary training and a sequenced small-satellite portfolio are proposed.*

Keywords: *geographical research; space policy; geospatial data; remote sensing; GIS; open science; Uzbekistan.*

Kirish

O‘zbekiston geografik jihatdan murakkab va ilmiy kuzatuvga nihoyatda muhtoj mamlakatdir. Hududning katta qismi qurg‘oqchil zonada joylashgan; aholining, sug‘orma dehqonchilikning va sanoatning hududiy konsentratsiyasi suv hamda yer resurslariga bosimni kuchaytiradi. Orol dengizi fojiasi, cho‘llanish va sho‘rlanish, tog‘ muzliklarining qisqarishi, transchegaraviy daryolar, tez sur’atdagi urbanizatsiya,

seysmik xavf, chang-tuz bo‘ronlari va iqlim o‘zgarishi bir-biridan ajralgan muammolar emas. Ularni tushunish uchun fizik geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, kartografiya, geodeziya, geoinformatika, masofadan zondlash hamda matematik modellashtirish bir tizimda ishlashi kerak.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda geografiya ko‘pincha ilmiy qarorlar ishlab chiqaruvchi strategik fan sifatida emas, maktabdagi tavsifiy predmet yoki idoralarning xarita tayyorlash xizmati sifatida qabul qilinadi. Kosmik faoliyat esa uzoq vaqt davomida mustaqil texnologik tarmoq emas, xorijiy sun’iy yo‘ldosh suratlarini sotib olish va ularga ishlov berish vazifasi bilan cheklanib kelgan. Bu holatni faqat “texnika yetishmaydi” yoki “kadrlar kam” degan izoh bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Muammo moliyalashtirish, ma’lumot siyosati, institutlar o‘rtasidagi aloqalar va ilmiy natijaga bo‘lgan real talabni birlashtira olmagan tizimda.

Mazkur maqolaning asosiy tezisi shundan iboratki, O‘zbekistonda geografik va kosmik tadqiqotlarning ortda qolishiga olimlarning qobiliyatsizligi emas, balki bilim ishlab chiqarish zanjirining uzilganligi sabab bo‘lmoqda. Universitet kadr tayyorlaydi, idora ma’lumot yig‘adi, agentlik monitoring qiladi, ilmiy institut loyiha bajaradi, hokimlik esa hududiy qaror qabul qiladi; ammo bu subyektlarning ma’lumotlari, standartlari, mablag‘i va javobgarligi yagona missiya atrofida birlashmaydi. Natijada ko‘p sonli xaritalar va hisobotlar yaratiladi, lekin uzoq muddatli ma’lumot qatori, tekshiriladigan model, ochiq dasturiy kod va muntazam yangilanadigan milliy geoma’lumot mahsuloti kam shakllanadi.

Tadqiqot maqsadi va metodologiyasi

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda geografik va kosmik tadqiqotlar rivojini cheklayotgan tizimli omillarni aniqlash va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan islohot yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Ish narrativ siyosiy-ilmiy sharh usulida bajarildi. O‘zbekistonning kosmik faoliyat, geodeziya, kartografiya va fazoviy ma’lumotlarga oid qonunlari; Jahon banki, UNESCO, UNECE va UNCTAD materiallari;

“O‘zbekkosmos” agentligining rasmiy ma’lumotlari hamda milliy dasturlar tahlil qilindi [1–16]. Maqola yangi bibliometrik yoki sotsiologik so‘rov natijalarini da’vo qilmaydi. Sabab–oqibat bog‘lanishlari hujjatlar va kuzatilgan institutsional tafovutlar asosida analitik talqin qilinadi.

„Orqada qolish“ nimada namoyon bo‘ladi?

Birinchi va eng aniq indikator — ilmiy-tadqiqot xarajatlari. Jahon bankining UNESCO UIS ma’lumotlariga tayangan qatorida O‘zbekistonning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarfi 2024-yilda YAIMning taxminan 0,10 foizini tashkil etgan [1]. Taqqoslash uchun dunyo bo‘yicha 2023-yilgi ko‘rsatkich 2,60 foiz, Koreya Respublikasida 4,94 foiz bo‘lgan. Mamlakatlarning iqtisodiy tuzilmasi turlicha bo‘lgani uchun bu raqamlarni mexanik ravishda tenglashtirish mumkin emas, biroq 0,10 foizlik daraja qimmat sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari, superkompyuter hisoblashlari, uzluksiz dala kuzatuvlari va xalqaro raqobatbardosh laboratoriyalarni barqaror saqlash uchun nihoyatda past bazani anglatadi.

Ikkinchi indikator — tizimning juda kech institutsionallashgani. “O‘zbekkosmos” agentligi 2019-yil 30-avgustdagi PF-5806-son Farmon bilan tashkil etildi [5]. “Fazoviy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun 2021-yilda, Fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish nizomi 2022-yilda, “Kosmik faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-1017-son Qonun esa 2025-yilda qabul qilindi [7, 8, 10]. Huquqiy bazaning yaratilishi ijobiy, ammo sanalarning o‘zi ham mustaqil kosmik siyosat va zamonaviy geoma’lumot boshqaruvi yaqinda boshlanganini ko‘rsatadi.

Uchinchi indikator — ma’lumotlarning yetarli emasligi va ulardan foydalanish qiyinligi. Jahon banki 2025-yilda O‘zbekistonda yer, infratuzilma, transport, suv va energiya tarmoqlariga doir batafsil hamda ishonchli geofazoviy ma’lumotlar taqchilligini, xususiy sektor uchun kirish imkoniyati cheklanganini qayd etdi [11]. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun 2025–2030-yillarda 35 million dollarlik imtiyozli kredit va 5,7 million dollarga yaqin milliy hammoliyalashtirish asosida milliy

geoportal, uchta ma’lumotlar markazi, 80 ta CORS referens stansiyasi, manzil reyestri va Samarqandning 3D modeli ko‘zda tutilgan [11]. Bunday yirik modernizatsiya loyihasiga ehtiyojning o‘zi mavjud infratuzilmaning hali yetuk emasligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi indikator — O‘zbekiston hozircha kosmik texnologiyalar zanjirining asosan quyi, ya’ni tayyor sun’iy yo‘ldosh ma’lumotidan foydalanish bosqichida turibdi. 2026-yil fevralida birinchi milliy 6U formatdagi “Mirzo Ulug‘bek” ilmiy sun’iy yo‘ldoshini 2028-yilda uchirish, muhandislik jamoasini tayyorlash va boshqaruv infratuzilmasini yaratish taklif qilingan [14]. Bu istiqbolli qadam, lekin “birinchi milliy sun’iy yo‘ldosh”ning hanuz loyiha bosqichida ekani apparatni loyihalash, yig‘ish, sinash, boshqarish va ilmiy missiya ma’lumotini kalibrlash bo‘yicha suveren salohiyat endigina shakllanayotganini anglatadi.

Asosiy holatlarning daliliy ko‘rinishi

1-jadval. *Geografik va kosmik tadqiqotlar tizimining ayrim tayanch indikatorlari*

Ko‘rsatkich	Kuzatilayotgan holat	Tanqidiy talqin	Manba
Ilmiy-tadqiqot sarfi	2024-yilda YAIMning ~0,10 foizi	Uzoq muddatli laboratoriya va missiyalar uchun juda tor moliyaviy baza	[1]
Kosmik boshqaruv	Agentlik 2019-yilda tuzilgan	Tarmoqning institutsional tarixi qisqa	[5]
Huquqiy baza	Fazoviy ma’lumotlar — 2021; kosmik faoliyat — 2025	Qoidalar shakllandi, ijro va standartlash hali davom etmoqda	[7, 10]
Geoma’lumotlar	Dolzarb qatlamlar va ularga kirishda bo‘shliqlar mavjud	Takroriy ma’lumot yig‘ish va yopiq “idoraviy orollar” xavfi	[11, 15]
Milliy apparat	Birinchi 6U ilmiy sun’iy yo‘ldosh 2028-yilga taklif qilingan	To‘liq kosmik texnologiya zanjiri hali shakllanmagan	[14]
Amaliy monitoring	Yer, ekin, o‘rmon, chiqindi va suv omborlari kuzatilmoqda	Quyi segmentda real natija bor, lekin ilmiy ochiqlik va validatsiya kuchayishi kerak	[12]

Izoh: “orqada qolish” bitta ko‘rsatkich bilan emas, moliya, institut, ma’lumot va texnologik zanjirning birgalikdagi holati bilan baholanadi.

Asosiy tizimli sabablar

1. Surunkali kam moliyalashtirish va “loyihadan loyihagacha” yashash

Geografik va kosmik tadqiqotlar bir martalik grant bilan rivojlanmaydi. Muzlik, cho‘llanish, yer qoplami, shahar issiqlik oroli, grunt suvlari yoki suv ombori deformatsiyasi bo‘yicha ilmiy xulosa chiqarish uchun yillar davomida bir xil metodika asosida ma’lumot yig‘ish kerak. O‘zbekistonda esa mablag‘ ko‘pincha qisqa muddatli loyiha, jihoz xaridi yoki ma’lum topshiriq bilan bog‘lanadi. Loyiha tugagach server, litsenziya, dala stansiyasi va texnik xodimni saqlash xarajati aniq moliyalashtirilmay qoladi. Natijada yangi loyiha eski ma’lumot tizimini davom ettirish o‘rniga yana boshidan platforma yaratadi.

2020-yilda Jahon banki milliy innovatsion tizimni modernizatsiya qilish uchun 50 million dollarlik MUNIS loyihasini ma’qullagan va o‘sha paytdagi rejalarda ilmiy-tadqiqot sarfini keskin oshirish ko‘zda tutilgan edi [13]. Biroq so‘nggi R&D ko‘rsatkichi pastligicha qolayotgani tashqi loyiha mablag‘i tizimli davlat va xususiy sektor investitsiyasining o‘rnini bosa olmasligini ko‘rsatadi. Ilm-fan siyosati “qancha grant berildi?” bilan emas, besh yoki o‘n yil uzluksiz ishlayotgan kuzatuv tizimlari soni bilan baholanishi kerak.

2. Institutsional parchalanish va yagona ilmiy buyurtmachining yo‘qligi

Geografik ma’lumotlar Kadastr agentligi, gidrometeorologiya xizmati, suv xo‘jaligi, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, geologiya, favqulodda vaziyatlar tizimi, hokimliklar, universitetlar va Fanlar akademiyasi institutlarida yaratiladi. Bu tabiiy mehnat taqsimoti bo‘lishi mumkin edi. Muammo shundaki, qatlamlarning klassifikatori, koordinata tizimi, yangilanish davri, aniqlik darajasi, litsenziyasi va metama’lumotlari ko‘pincha bir xil ishlamaydi. Bir idora yaratgan ma’lumotni boshqasi tez va qonuniy qo‘llay olmasa, davlat bir hududni bir necha marta xaritalaydi.

2021-yilgi qonun va 2022-yilgi 620-son qaror o‘zaro ishlaydigan Fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasini nazarda tutadi [7, 8]. Ammo infratuzilma faqat

portal emas. U umumiy standart, ochiq litsenziya, API, ma’lumot sifati auditi va qatlam uchun aniq javobgar tashkilotni talab qiladi. Muvofiqlashtiruvchi kengash maslahat organi bo‘lib qolsa, idoralararo ma’lumot almashinuvi majburiy operatsion tizimga aylanmaydi.

3. Geografiyaning maqom inqirozi

Eng chuqur muammolardan biri — geografiya fanining o‘zini qanday tushunish masalasi. Ko‘plab ta’lim dasturlarida geografiya hanuz joy nomlari, tabiiy zonalar va iqtisodiy rayonlarni tavsiflashga yaqin usulda o‘qitiladi. Zamonaviy geograf esa ma’lumotlar bazasi tuzishi, Python yoki R da tahlil qilishi, sun’iy yo‘ldosh tasvirini klassifikatsiyalashi, noaniqlikni hisoblay olishi, dala sensori bilan ishlashi va natijani hududiy siyosatga tarjima qilishi lozim. Tavsifiy bilim zarur, lekin hisoblash va eksperimental kompetensiyasiz u qaror qabul qilish faniga aylanmaydi.

Ikkinchi tomondan, geografiya texnik xizmatga qisqartirilganda ham zarar ko‘radi. GIS operatori tayyor xaritani chiroyli ko‘rsatishi mumkin, ammo migratsiya, suv taqchilligi, landshaft barqarorligi yoki shahar segregatsiyasining sababini tushuntirish uchun nazariya va dala bilimlari kerak. Demak, islohot “ko‘proq GIS kursi” bilangina cheklanmasligi; fizik, ijtimoiy va hisoblash geografiyasini birlashtirishi zarur.

4. Ma’lumotlarning yopiq yoki qayta foydalanishga yaroqsiz bo‘lishi

Ilmiy tadqiqotning xomashyosi ma’lumotdir. O‘zbekistonda ayrim geofazoviy ma’lumotlar xavfsizlik, tijorat yoki idoraviy vakolat sabab cheklanadi; ayrimlari PDF xarita yoki rasm ko‘rinishida berilib, mashinada o‘qilmaydi; ayrim qatlamlarda esa yangilanish sanasi va aniqlik metama’lumoti ko‘rsatilmaydi. 2020-yildagi ilmiy tahlil ham shaffoflik va fazoviy ma’lumotlarga kirish pastligini asosiy muammolar qatorida qayd etgan [15]. Bunday sharoit magistrant ham, startap ham, mustaqil tadqiqotchi ham birinchi navbatda ilmiy savol bilan emas, ma’lumot qidirish va ruxsat olish bilan shug‘ullanadi.

“Ochiq” degani barcha qatlamni nazoratsiz tarqatish emas. Maxfiy obyektlar generalizatsiya qilinishi, shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirilishi mumkin. Ammo ma’muriy chegaralar, transport tarmog‘i, yer qoplami, gidrografiya, balandlik, iqlim normallari va ekologik indikatorlarning katta qismi standart veb-servis va ochiq litsenziyada taqdim etilishi kerak. Ochiqlik xatoni ko‘paytirmaydi; aksincha, ko‘proq foydalanuvchi ma’lumotdagi nomuvofiqlikni topib, sifatni oshiradi.

5. Kadrlar, ilmiy uskunalar va hududiy maktablarning zaifligi

Kosmik va geofazoviy soha bir vaqtning o‘zida geograflar, fiziklar, elektronika muhandislari, dasturchilar, geodezistlar, ma’lumotlar muhandislari va sohaviy ekspertlarni talab qiladi. Bitta fakultet bu zanjirni yopib bera olmaydi. 2024-yilda Toshkentdagi INHA universitetida o‘quv-laboratoriya markazi tashkil etilgani va o‘n nafar yoshning xorijdagi ta’limga yuborilgani ijobiy qadamdir [12]. Ammo o‘nlab mutaxassislar milliy tizim uchun boshlang‘ich yadro, xolos. Ularni qaytarib, raqobatbardosh ish haqi, laboratoriya va mustaqil loyiha bilan ta’minlamaslik “kadr tayyorlash”ni kadr eksportiga aylantiradi.

Bundan tashqari, ilmiy salohiyat Toshkentda haddan tashqari markazlashgan. Orolbo‘yi, Qizilqum, Farg‘ona vodiysi, Zarafshon havzasi va G‘arbiy Tyanshan uchun doimiy regional dala stansiyalari zarur. Hududda muntazam ishlamagan geograf sun’iy yo‘ldosh tasviridagi signalni noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Masofadan zondlash dala verifikatsiyasini bekor qilmaydi; u bilan birga ishlaganda ilmga aylanadi.

6. Fan, davlat va biznes o‘rtasidagi talab zanjirining sustligi

UNCTADning 2024-yilgi bahosi O‘zbekistondagi ilmiy-texnologik parklar biznes inkubatsiyasida siljish qilgan bo‘lsa-da, sezilarli texnologik innovatsiya va diversifikatsiyani shakllantirishda yetarli natija bermayotganini; universitet–sanoat aloqalari, venchur kapital va tadbirkorlik madaniyati zaifligini qayd etadi [4]. Geofazoviy sohada ham xuddi shu muammo ko‘rinadi. Vazirlik olimdan tayyor “hisobot” so‘raydi, ammo muntazam obuna qilinadigan geoma’lumot servisi yoki

tekshiriladigan prognoz modeli uchun ko‘p yillik shartnoma kam tuziladi. Biznes esa davlat ma’lumotiga kira olmagani va davlat xaridi innovatsion mahsulot xavfini bo‘lishmagani sabab bozorga kirmaydi.

Davlat buyurtmasi aniq natijani talab qilishi kerak: masalan, suv sarfini tuman kesimida ma’lum xatolik chegarasida baholash, noqonuniy qurilishni yetti kun ichida aniqlash yoki chang-tuz bo‘roni xavfini 72 soat oldin prognozlash. Shunda grant mavhum “GIS tizimi yaratish”ga emas, o‘lchanadigan xizmat sifatiga bog‘lanadi.

7. Kosmik dasturda prestij va ilmiy poydevor ketma-ketligi

Kosmik soha jamoatchilik e’tiborini tez jalb qiladi. Milliy sun’iy yo‘ldosh va kosmonavt tashabbusi yoshlarni ilhomlantirishi, xalqaro hamkorlikni kengaytirishi mumkin. Biroq prestij loyihasi ilmiy poydevordan oldinga o‘tib ketsa, qimmat ramziy tadbirga aylanish xavfi bor. 2026-yildagi rasmiy taqdimotning o‘zida kosmonavt parvozi aniq ilmiy dastur bilan bog‘lanishi kerakligi ta’kidlangan [14]. Bu to‘g‘ri shart, lekin undan ham oldin laboratoriya, missiya dizayni, foydali yuk, yer usti boshqaruvi, ma’lumot kalibrlashi, ochiq ilmiy tanlov va parvozdan keyingi tadqiqot jamoasi tayyor bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston uchun eng katta iqtisodiy samara hozircha insonni orbitaga chiqarishdan emas, Yerni kuzatish, aloqa, navigatsiya va ilmiy CubeSat kompetensiyasidan keladi. Milliy kosmik dastur kosmonavtni alohida maqsad emas, uzluksiz muhandislik va ilmiy dasturining bir elementi sifatida ko‘rishi kerak.

Mavjud ijobiy siljishlar: nega ular hali yetarli emas?

Tanqid mavjud natijalarni inkor etmasligi kerak. “O‘zbekkosmos”ning 2024-yilgi monitoringida sakkiz viloyatda 31,5 ming gektarga yaqin maydondagi 2266 ta dala yong‘ini, foydalanilmayotgan ekin maydonlari, o‘rmon qoplami va 35 ta suv omboridagi jarayonlar kuzatilgan [12]. 2026-yilgi rasmiy ma’lumotga ko‘ra, besh yil ichida masofadan zondlash ma’lumotlariga talab uch baravar oshgan, o‘ndan ortiq

davlat idorasi va barcha hududiy ma’muriyatlar monitoring tizimidan foydalanmoqda [14]. Demak, kosmik ma’lumotning amaliy qiymati allaqachon isbotlangan.

Biroq monitoring natijasining davlat nazoratida qo‘llanishi ilmiy ekotizim yetukligini avtomatik anglatmaydi. Algoritm aniqligi, xato matritsasi, dala verifikatsiyasi, vaqt qatori va qayta ishlash kodi ochiq ilmiy ekspertizadan o‘tmasa, tizim idoraviy “qora quti” bo‘lib qoladi. Keyingi bosqich monitoring ko‘lamini kengaytirishgina emas, uning metodologiyasini tekshiriladigan, takrorlanadigan va universitetlar uchun ochiq qilish bo‘lishi kerak.

Taklif etilayotgan islohot modeli

Birinchidan, 2027–2035-yillarga mo‘ljallangan “Yer tizimlari va kosmik kuzatuvlar” milliy ilmiy dasturi qabul qilinishi lozim. Dastur idoralar ro‘yxati emas, besh–olti aniq missiyadan iborat bo‘lishi kerak: suv xavfsizligi; Orolbo‘yi va cho‘llanish; tog‘ muzliklari va sel xavfi; qishloq xo‘jaligi unumdorligi; barqaror shaharlar; seysmik va texnogen xavf. Har bir missiya uchun o‘lchanadigan natija, ochiq ma’lumot mahsuloti, mas’ul konsorsium va ko‘p yillik budjet belgilanadi.

Ikkinchidan, R&D moliyalashtirish bosqichma-bosqich va qonuniy kafolat asosida oshirilishi kerak. Realistik oraliq maqsad sifatida 2030-yilgacha YAIMning kamida 0,5 foiziga chiqish, keyinchalik 1 foizga yaqinlashish muhokama qilinishi mumkin. Mablag‘ning bir qismi xalqaro ekspertiza qilinadigan ochiq tanlovga, bir qismi esa uzoq muddatli observatoriya va ma’lumot infratuzilmasiga yo‘naltirilishi zarur. Faqat maqola soni emas, ochiq dataset, ishlaydigan model, patent, davlat qaroriga ta’sir va tayyorlangan mutaxassis baholanishi kerak.

Uchinchidan, fazoviy ma’lumotlar “ochiqlik — odatiy, cheklash — asoslantirilgan istisno” tamoyili asosida boshqarilishi lozim. Milliy geoportal OGC standartlaridagi API, yuklab olinadigan format, versiyalar tarixi, sifat pasporti va ochiq litsenziyani taqdim etishi kerak. Sentinel, Landsat va meteorologik reanalizlar bilan

milliy qatlamlarni birlashtiradigan O‘zbekiston geoma’lumotlar kubi universitetlar, startaplar va hokimliklar uchun umumiy hisoblash muhiti bo‘la oladi.

To‘rtinchidan, kadrlar tayyorlash alohida fanlar emas, muammoga asoslangan konsorsiumlar orqali tashkil etilishi kerak. Geografiya talabasi dasturlash va statistika, muhandis geografik jarayonlar, dasturchi esa kartografik proyeksiya va ma’lumot etikasi bilan tanishishi zarur. Har bir magistrlik va doktorlik loyihasida ochiq kod, takrorlanadigan tahlil va dala verifikatsiyasi talab qilinishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, kosmik dastur ketma-ket kichik missiyalar portfeliga aylanishi kerak. Bitta katta ramziy loyiha o‘rniga 6U CubeSatdan boshlab har ikki–uch yilda yangi foydali yukni sinaydigan missiyalar, yer usti stansiyasi, yig‘ish–integratsiya–sinov laboratoriyasi va universitet nanosun’iy yo‘ldosh tanlovlari tashkil etilishi lozim. Xorijiy apparat va ma’lumotlardan foydalanish davom etadi, ammo har bir xarid texnologiya transferi, mahalliy algoritm va mutaxassis tayyorlash sharti bilan bog‘lanadi.

Oltinchidan, geografik tadqiqot hududlarga qaytarilishi kerak. Nukus, Samarqand, Farg‘ona vodiysi va tog‘oldi hududlarida mavjud universitetlar hamda ilmiy muassasalar bazasida uzoq muddatli dala stansiyalari tarmog‘i yaratilsa, poytaxtda ishlab chiqilgan algoritmlar mahalliy sharoitda tekshiriladi. Hududiy hokimliklar ma’lumot iste’molchisi emas, tadqiqot savolini shakllantiruvchi hamkor bo‘lishi kerak.

Xulosa

O‘zbekistonda geografik va kosmik tadqiqotlarning orqada qolishi tabiiy resurslar, tarixiy ilmiy meros yoki iste’dod tanqisligi bilan izohlanmaydi. Asosiy sabab — kam moliyalashtirilgan, idoralar bo‘yicha bo‘lingan, ma’lumotlari to‘liq ochilmagan va natijaga bo‘lgan talab zaif ilmiy boshqaruv modelidir. Geografiya tavsifiy ta’lim bilan texnik kartografiya orasida qolib ketgan; kosmik faoliyat esa uzoq vaqt tayyor xorijiy ma’lumotdan foydalanish darajasida bo‘lgan.

2019-yildan keyingi institutlar, 2021–2025-yillardagi qonunlar, davlat kosmik monitoringi, geofazoviy infratuzilma loyihasi va 2028-yilga mo‘ljallangan milliy CubeSat tashabbusi zarur burilishni boshlab berdi. Ammo qonun, portal yoki bitta apparatning o‘zi ilmiy taraqqiyot emas. Taraqqiyot — o‘n yillik ma’lumot qatori, mustaqil ekspertiza, ochiq metod, malakali jamoa va davlat qarorida qo‘llanadigan tekshirilgan bilimdir.

Shu bois islohotning markazida “kosmosga chiqish” shiori emas, O‘zbekiston hududini aniq o‘lchash, tushuntirish va kelajakdagi xatarlarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati turishi kerak. Milliy kosmik dastur kuchli geografiyasiz mazmunsiz; zamonaviy geografiya esa kosmik kuzatuv, hisoblash texnologiyasi va ochiq ma’lumotsiz kuchsizdir. Bu ikki sohani yagona Yer tizimlari ilmiy siyosatida birlashtirish O‘zbekistonning suv, oziq-ovqat, ekologik va hududiy xavfsizligi uchun strategik zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Research and development expenditure (% of GDP), indicator GB.XPD.RSDV.GD.ZS: Uzbekistan and comparative data. World Development Indicators; updated 2026. https://data.worldbank.org/indicator/GB.XPD.RSDV.GD.ZS

2. UNESCO. Mapping Research and Innovation in the Republic of Uzbekistan. GO-SPIN Country Profiles in Science, Technology and Innovation Policy, Vol. 10. Paris: UNESCO; 2020. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374566

3. United Nations Economic Commission for Europe. Innovation for Sustainable Development Review of Uzbekistan. Geneva: United Nations; 2022. https://unece.org/sites/default/files/2022-06/9789211172966_I4SDR_UZBEKISTAN_2022_web_full%2Bcover.pdf

4. UNCTAD. Science, Technology and Innovation Parks in Uzbekistan: Assessment and Policy Issues. Geneva: United Nations; 2024. UNCTAD/TCS/DTL/INF/2024/7.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi PF-5806-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasida kosmik faoliyatni rivojlantirish to‘g‘risida. https://lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-iyuldagi O‘RQ-626-son Qonuni. Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida. https://lex.uz

7. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-iyuldagi O‘RQ-702-son Qonuni. Fazoviy ma’lumotlar to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-5522838

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-oktabrdagi 620-son qarori. Fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibi. https://lex.uz/uz/docs/-6253377

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-noyabrdagi PQ-429-son qarori. Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. https://lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 13-yanvardagi O‘RQ-1017-son Qonuni. Kosmik faoliyat to‘g‘risida. https://stat.uz/uz/me-yoriy-huquqiy-hujjatlar/o-zbekiston-respublikasining-qonunlari

11. World Bank. World Bank to Support Uzbekistan in Improving Geospatial Data Availability and Use. Press release, 19 May 2025. https://www.worldbank.org/uz/news/press-release/2025/05/19/world-bank-to-support-uzbekistan-in-improving-geospatial-data-availability-and-use

12. Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi. 2024-yil yakunlari bo‘yicha kosmik monitoring natijalari. Hukumat portali; 2025. https://gov.uz/oz/uzspace/news/view/70624

13. World Bank. Uzbekistan to Modernize its National Innovation System with Support from the World Bank. Press release, 28 October 2020. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2020/10/28/uzbekistan-to-modernize-its-national-innovation-system-with-support-from-the-world-bank

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun’iy yo‘ldoshni uchirish va birinchi milliy kosmonavtni tayyorlash bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi. 16 February 2026. https://president.uz/en/lists/view/8944

15. Alikhanov B, Juliev M, Alikhanova S, Mondal I. National Spatial Data Infrastructure of Uzbekistan: vision, challenges and prospects. International Journal of Spatial Data Infrastructures Research. 2020;15:171–199.

16. UNESCO. UNESCO Science Report: The Race Against Time for Smarter Development. Paris: UNESCO; 2021. https://www.unesco.org/reports/science/2021/en

MILLIY IQTISODIYOT VA HUQUQIY TIZIMNI ISLOH QILISH

JINOYAT PROTSESSIDA ADOLATLI SUD MUHOKAMASIGA BO'LGAN HUQUQNI TA'MINLASHDA SUDYALARNING CHINAKAM MUSTAQILLIGI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING AHAMIYATI

Hasanov Abdulmannon Mamatmurodovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

e-mail: *abdulmannonkhasanov76@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni ta'minlashda korrupsiyaga qarshi kurashning o'rni va ahamiyati, sudyalarning moliyaviy mustaqilligini qonun normasida aks ettirish ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda korrupsiyaviy omillar va byurokratik to’siqlarning sud jarayonining xolisligi, oshkoraligi va tomonlar tengligiga salbiy ta'siri o'rganiladi. Xalqaro standartlar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining qiyosiy tahlili asosida amaliy muammolar aniqlanadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar va sohadagi professor olimlarning yordamida korrupsiyaning sud ishonchiga ta'siri baholanadi. Maqola yakunida jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasini kafolatlashga qaratilgan huquqiy va tashkiliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasi, korrupsiyaga qarshi kurash, sudyalar moliyaviy mustaqilligi, byurokratik to’siqlar, manfaatlar to’qnashuvi, sud xolisligi, inson huquqlari, protsessual kafolatlar, sudga ishonch, huquqiy davlat.*

Аннотация. *В статье представлен научный анализ роли и значения борьбы с коррупцией для обеспечения права на справедливое судебное разбирательство в рамках уголовного процесса, а также рассматривается законодательное закрепление финансовой независимости судей. Исследуется*

негативное влияние коррупционных факторов на беспристрастность и прозрачность судебного разбирательства, а также на равноправие сторон. На основе сравнительного анализа международных стандартов и законодательства Республики Узбекистан выявлены актуальные практические проблемы. Кроме того, с опорой на статистические данные и мнения экспертов оценивается влияние коррупции на уровень общественного доверия к судебной системе. В заключение сформулированы правовые и организационные предложения, направленные на обеспечение справедливого судебного разбирательства по уголовным делам.

Ключевые слова: *справедливое судебное разбирательство по уголовным делам, борьба с коррупцией, финансовая независимость судей, бюрократические препятствия, конфликт интересов, беспристрастность суда, права человека, процессуальные гарантии, общественное доверие к судебной системе, правовое государство.*

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the role and significance of combating corruption in ensuring the right to a fair trial within criminal proceedings, as well as the legislative reflection of the financial independence of judges. The study examines the adverse effects of corruption-related factors on the impartiality and transparency of judicial proceedings and the equality of the parties involved. Practical issues are identified through a comparative analysis of international standards and the legislation of the Republic of Uzbekistan. Furthermore, the study assesses the impact of corruption on public trust in the judiciary, drawing upon statistical data and the insights of academic experts in the field. In conclusion, the article puts forward legal and organizational proposals aimed at guaranteeing a fair trial in criminal proceedings.*

Keywords: *fair trial in criminal proceedings, anti-corruption, financial independence of judges, bureaucratic obstacles, conflict of interest, judicial*

impartiality, human rights, procedural safeguards, public trust in the judiciary, rule-of-law state.

Adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquq zamonaviy huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning bosh kafolati hisoblanadi. Ushbu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasi sudning mustaqilligi, xolisligi, tomonlar tengligi, oshkoralik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi bir qator protsessual kafolatlar orqali amalga oshiriladi.

Biroq amaliyotda ushbu kafolatlarning to'liq ro'yobga chiqishiga jiddiy to'siq bo'layotgan omillardan biri korrupsiya hisoblanadi. Korrupsiyaviy holatlar sud tizimining asosiy funksiyasi — adolatni ta'minlash vazifasini buzadi, sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligiga putur yetkazadi, natijada fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurash adolatli sud muhokamasini ta'minlashning ajralmas sharti sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sud-huquq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, Sud hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligi, sud tizimining raqamlashtirilishi va oshkoraligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ushbu jarayonning yorqin ko'rinishidir. Shunga qaramay, jinoyat protsessida korrupsiyaviy xatarlarni to'liq bartaraf etish, sud muhokamasining xolisligini mustahkamlash dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni ta'minlashda korrupsiyaga qarshi kurashning ahamiyatini ilmiy

jihatdan asoslash va shu asosda huquqiy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: adolatli sud muhokamasi tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini ochib berish; korrupsiyaning jinoyat protsessiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash; xalqaro standartlar va milliy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish; korrupsiyaga qarshi kurashning sud xolisligini ta'minlashdagi rolini baholash hamda amaliy takliflar tayyorlash hisoblanadi.

Adolatli sud muhokamasi murakkab huquqiy kategoriya bo'lib, u bir qator o'zaro bog'liq elementlarni o'z ichiga oladi. Bularga sudning qonun asosida tashkil etilganligi va mustaqilligi, sudyaning xolisligi, ishning oqilona muddatlarda ko'rilishi, oshkora sud muhokamasi, tomonlarning tortishuvchanligi va tengligi, hamda aybsizlik prezumpsiyasi kiradi. Ushbu elementlarning har biri jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladi. Korrupsiya esa aynan mana shu elementlarni ichdan yemiradi, chunki u sudyaning yoki jarayon ishtirokchilarining qarorini qonun va dalillar emas, balki noqonuniy manfaatlar asosida shakllantirishga olib keladi.

Korrupsiyaning jinoyat protsessiga ta'sir mexanizmlarini bir necha darajada ko'rib chiqish mumkin. Birinchidan, dastlabki tergov bosqichida korrupsiyaviy holatlar dalillarni yig'ish, baholash va mustahkamlashda buzilishlarga sabab bo'ladi, natijada aybsiz shaxs javobgarlikka tortilishi yoki aybdor shaxs javobgarlikdan qutulishi mumkin. Ikkinchidan, sud bosqichida korrupsiya sudyaning xolisligiga ta'sir qilib, adolatsiz hukm chiqarilishiga zamin yaratadi. Uchinchidan, hukmni ijro etish bosqichida korrupsiyaviy amaliyotlar jazoning muqarrarligi tamoyilini buzadi. Bularning barchasi pirovardida adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqning mazmunini yo'qqa chiqaradi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurash va adolatli sud muhokamasi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003) davlatlarni sud tizimida halollik va shaffoflikni ta'minlash, sud

xodimlarining daxlsizligini mustahkamlash choralarini ko'rishga chorlaydi. Konvensiyaning 11-moddasi sud hokimiyati va prokuratura organlarida korrupsiyaning oldini olishga alohida e'tibor qaratishi lozimligi nazarda tutilgan. Yevropa Kengashining GRECO tavsiyalari ham sudyalar faoliyatining shaffofligi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va axloqiy standartlarni mustahkamlashni talab qiladi. Ushbu xalqaro yondashuvlar korrupsiyani nafaqat iqtisodiy, balki inson huquqlari muammosi sifatida ham talqin qilishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida adolatli sud muhokamasi elementlari kafolatlari Konstitutsiyaning 26, 27 va boshqa moddalarida, Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalarida mustahkamlangan bo’lsada, biroq adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquq tushunchasi mavjud emas. 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari doirasida sudyalar korpusini shakllantirish tartibi takomillashtirildi, Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi, sud majlislarini audio va video yozib borish amaliyoti joriy etildi. Bu chora-tadbirlar sud jarayonining oshkoraligini oshirib, korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017-yil 3-yanvardagi Qonun korrupsiyaning oldini olishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Bu borada ayniqsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2020 yildagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF 6127-sonli Farmoni alohida ahamiyatga ega.

Xususan, Farmonda sudyalar mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo’yicha davlat siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri etib, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo’yicha kasbiy faoliyatini har qanday

ko’rinishdagi tashqi ta’sirlardan samarali muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish vazifasi belgilangan[1].

Bu chora-tadbirlar qaysidir ma’noda o’z samarasini bermoqda. Shu bilan birga aytib o’tish lozimki, sud tizimida korrupsiyaning oldini olish sudyaning chinakam mustaqilligini ta’minlash bu faqat tashqi ta’sirlardan oldini olishning o’zi yetarli emas. Eng achinarlisi quyi sudlarga yoki quyi sudlarning sudyalariga yuqori turuvchi sudyalar tomonidan yoki nazorat qiluvchi sudyalarning aralashuvi ham korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Buni inkor etib bo’lmaydi, chunki ijtimoiy tarmoqlar zamonidan yashayapmiz, ijtimoiy tarmoqlarda guvohi bo’layapmizki, bir nechtalab sudyalar odil sudlovga aralashganlik holati yuzasidan jinoyat ishi ochilganligi holati ham uchrab turibdi[2].

Bunday holatda ishni ko’rib chiqayotgan sudya agarda yuqori turuvchi sudning yoki sudyaning “noqonuniy topshirig’ini” bajarmasa nima bo’ladi degan savol turibdi, amaldagi qonunchilikka ko’ra, bu borada bir qancha byurokratik to’siqlarga duch keladi, jumladan, sudya birinchi navbatda o’ziga ichki ishonchi yetishmaydi va yuqori turuvchi sudda uning qarorlari o’zgarishi yoki bekor bo’lishi nuqtayi nazaridan qaraydi. Ikkinchidan, O’zbekiston Respublikasining “Sudlar to’g’risida”gi qonunining 75-moddasiga ko’ra, faqat sudyalar malaka hay’ati sudyaga nisbatan intizomiy ish qo’zg’atish vakolatiga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga viloyat sudlari sudyaning ish yurituvini har yarim yilda yoki chorakda kelib o’rganadi.

O’rganishda aniqlangan kamchliklar Oliy sud raisi boshchiligidagi hay’atda muhokama qilinishi o’rinli bo’lsada, viloyat sud raisi boshchiligidagi hay’atda ham muhokama qilinishi byurokratik to’siqqa aylanishi mumkin. Chunki, bu kelgusida aniqlangan kamchliklar yuzasidan intizomiy javobgarlikka tortishga vakolati

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2020 yildagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF 6127-sonli Farmoni.
[2] https://www.gazeta.uz. “Akmal Shukurovning jazosini yengillashtirgan sudyalar qamoqqa olindi” sarlavha ostida.

bo’lmagan shaxsning sudyalar malaka hay’ati faoliyatiga aralashishga yoki uning vakolatlarini bajarishga olib keladi.

Shu sababli, sudyaning chinakam mustaqilligini ta’minlash pirovard maqsadimiz ekan, bu borada dastlab tuman sud raislari yoki sudyalarini viloyat sud yoki Oliy sud tomonidan beriladigan noqonuniy topshiriqlarining bajarilishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishimiz lozim. Sudyaning faoliyatiga nafaqat boshqa tashkilot yoki fuqarolar aralashaolmasligi kerak, shu bilan tengma teng ravishda yuqori turuvchi sudlar ham aralasha olmasligi shart va zarur. Buning uchun kerak bo’lsa, “Sudlar to’g’risida”gi qonunga o’zgartirish kiritish lozim. Misol uchun, viloyat sud raislari qonun nuqtayi nazaridan sudyani lavozimiga tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish vakolati bo’lmasada amalda sudyaga ish beruvchi, aslida Sudyalar o’zlarining Malaka hay’ati oldida xuddi shu mas’uliyatni his qilishi lozim. Buning uchun Sudyalar malaka hay’atiga barcha shart-sharoitlarni yaratish, vakolatlarini mustahkamlash, ular tomonidan quyi sudlarning jinoyat ishlarini yuqori instansiyada ko’rmasligi, to’g’ridan to’g’ri Sudyalar oliy kengashiga bo’ysunishi, sudyalarning kamchiligini faqatgina Sudyalar Malaka hay’ati yoki sudyalar Oliy kengashi muhokama qilishga vakolatli bo’lishi lozim bo’ladi. Shundagina sudyalar chinakam mustaqil bo’ladi.

Shuningdek, “Sudlar to’g’risida”gi qonunning 72-moddasida nazarda tutilgan, ya’ni shaxs ayni bir sudda ketma-ket ikki muddatdan ortiq rais, rais o’rinbosari lavozimini egallab turishi mumkin emas, degan qoidaga o’zgartirish kiritish va *“shaxs ayni bir sudda bir muddatdan ortiq rais, rais o’rinbosari lavozimini egallab turishi mumkin emas”* deb belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki, ba’zida sudyaning adolatli qaror qabul qilishiga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan yuqori turuvchi rais yoki rais o’rinbosarining noqonuniy topshirig’ini bajarishga ushbu rais yoki rais o’rinbosarining uzoq muddat ushbu lavozimda turg’un qolishi sabab bo’ladi. Aslida 5 yil bitta viloyat sudda rais yoki o’rinbosar lavozimini

egallab turish ham ko’p muddat hisoblanadi yoki yuqoridagi qonun hujjatlariga o’zgartirish kiritilgan taqdirda viloyat sud raislari yoki rais o’rinbosari kabi lavozimlarga hojat qolmaydi.

Mazkur takliflar qonunchilikka kiritilsa, amaliyotda byurokratik to’siqlar kamayadi, eng muhimi shaxsning adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquqi ta’minlanadi.

Misol uchun, tuman sudi raisi qonunbuzilishiga yo’l qo’ydi deylik, buning uchun sudyani ish beruvchisi bo’lmagan yoki jazolashga vakolati bo’lmagan Oliy sud mansabdor shaxsi o’rta bo’g’in sudi raisi yoki o’rinbosaridan qonunbuzilishi sabab va oqibatlarini so’rashi yoki qonunbuzilishi oqibatlariga javobgarlikni talab qilishi mantiqan to’g’rimi?

Sud organi tizimi, tuzilishi, tarkibi faoliyat ko’rsatishi yoki sudyaning lavozimga tayinlanishi tartibi ijro hokimiyatidan yoki boshqa organlardan tubdan farq qiladi. Shu sababli ham tuman sudi yo’l qo’ygan kamchilik uchun viloyat sudi Oliy sud oldida hisobdor bo’lishi yoki javobgar bo’lishi mantiqan sudyaning chinakam mustaqilligini cheklaydi va bu shaxsning adolatli sud muhokamasiga bo’lgan huquqini ta’minlashda byurokratik to’siq sifatida namoyon bo’ladi.

Xuddi shuningdek, sudlar faoliyatini moliyalashtirish to’liq davlat budjetidan amalga oshirilishi, Oliy sud, Sudyalar oliy Kengashi va Konstitutsiyaviy sud ajratilgan mablag’larni mustaqil ravishda tasarruf etishi, har yili ajratiladigan mablag’lar oldingi yildan kam bo’lmasligi, quyi sudlar tizimi bo’yicha esa buni Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti amalga oshirishi lozimligi biroq departament faqatgina Sudyalar oliy Kengashiga bo’ysunishi lozimligi, har bir sud alohida bino, qo’riqlash tizimi va avtotransport vositasi bilan ta’minlanishi, kelgusida belgilangan muddatlarda zamonaviy ta’mirlanib borishi yoki avtomashinalar zamonaviy avtomashinalarga almashtirib borilishi kabi o’zgartirishlar alohida Qonun normasida yoki “Sudlar

to’g’risida”gi Qonunlariga kiritilishi sudlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur sohada tadqiqot olib borishda bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy usul milliy va xalqaro qonunchilikni solishtirish imkonini berdi. Tizimli-strukturaviy tahlil adolatli sud muhokamasi elementlarining o'zaro bog'liqligini o'rganishga yordam berdi. Statistik usul yordamida korrupsiya darajasi va sudga ishonch ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Sotsiologik usul (ekspert so'rovi va anketalash) amaliyotchi yuristlar va fuqarolar nuqtai nazarini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu usullar majmuasi muammoni har tomonlama, kompleks o'rganish imkonini berdi.

Mavjud ilmiy yondashuvlarni muhokama qilar ekanmiz, tadqiqotchilar o'rtasida ikki asosiy pozitsiya mavjudligini ta'kidlash lozim. Birinchi yondashuv tarafdorlari korrupsiyaga qarshi kurashda repressiv (jazoga asoslangan) choralarga ustuvorlik berish kerakligini ta'kidlaydi. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa profilaktik (oldini oluvchi) va institutsional choralarni birinchi o'ringa qo'yadi. Bizning nazarimizda, jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasini ta'minlash uchun ushbu ikki yondashuvni uyg'unlashtirgan integratsiyalashgan model eng samarali hisoblanadi. Bunda huquqiy javobgarlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, sud tizimida shaffoflik, raqamlashtirish, sudyalarning moddiy va ijtimoiy kafolatlarini oshirish choralari ko'rilishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashning sud xolisligini ta'minlashdagi roli bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Avvalo, shaffof va halol sud tizimi fuqarolarning davlatga va qonunga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ikkinchidan, korrupsiyaviy xatarlarning kamayishi sud qarorlarining sifati va asoslanganligini oshiradi. Uchinchidan, halol sud amaliyoti jinoyatchilikning oldini olishga, jazoning muqarrarligi tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi samarali kurash mamlakatning xalqaro obro'sini oshiradi va investitsiya muhitini

yaxshilaydi. Shu tariqa, korrupsiyaga qarshi kurash adolatli sud muhokamasini ta'minlashning tizimli va strategik yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida olib borilgan ekspert so'rovi va statistik tahlil natijalari korrupsiyaga qarshi kurash bilan adolatli sud muhokamasiga bo'lgan ishonch o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Huquqni muhofaza qilish sohasi mutaxassislari orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning aksariyati korrupsiyaviy xatarlar aynan dastlabki tergov va sud bosqichlarida eng yuqori ekanligini qayd etdi.

So'rov natijalariga ko'ra, jinoyat protsessining turli bosqichlaridagi korrupsiyaviy xatarlarni ekspertlar quyidagicha baholadi: dastlabki tergov bosqichi eng yuqori xatar darajasiga ega deb topildi, undan keyin sud muhokamasi bosqichi va hukmni ijro etish bosqichi turadi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurash choralarini birinchi navbatda tergov va sud bosqichlarida kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, sud tizimida amalga oshirilgan islohotlar samaradorligini baholash natijasida sud jarayonlarini raqamlashtirish, majlislarni audio-video yozib borish va sud qarorlarini ochiq e'lon qilish eng samarali chora-tadbirlar sifatida e'tirof etildi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, oshkoralikni ta'minlovchi choralar joriy etilgan hududlarda fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada oshgan.

Tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurash choralarining kompleks tarzda amalga oshirilishi eng yuqori samara berishini tasdiqladi. Ya'ni faqat jazolash choralari yoki faqat profilaktik choralar alohida olganda cheklangan natija bergani holda, ularning uyg'unlashtirilgan qo'llanilishi sud muhokamasining xolisligini sezilarli darajada mustahkamlashini ko'rsatdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquq jinoyat protsessining fundamental kafolati bo'lib, korrupsiya ushbu kafolatning barcha elementlariga — sudning mustaqilligi, xolisligi, tomonlar tengligi va oshkoraligiga jiddiy putur

yetkazadi. Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurash faqat iqtisodiy yoki ma'muriy muammo emas, balki inson huquqlarini ta'minlashning ajralmas qismi sifatida talqin qilinishi lozim.

Uchinchidan, tadqiqot korrupsiyaviy xatarlarning jinoyat protsessining dastlabki tergov va sud bosqichlarida eng yuqori ekanligini aniqladi, bu esa aynan shu bosqichlarda nazorat va shaffoflik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. To'rtinchidan, sud jarayonlarini raqamlashtirish, majlislarni audio-video yozib borish va sud qarorlarini ochiq e'lon qilish korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalari ekanligi tasdiqlandi.

Yuqorida muhokama qilingan takliflar qonun osti hujjatlarida aks etgan bo’lishi mumkin, biroq qonun normasi sifatida mustahkamlanmagan, shu sababli sudlar mustaqilligini ta’minlashda ushbu taklif etilayotgan normalarning qonun normasi sifatida aks etishi juda ham zarur hisoblanadi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: jinoyat-protsessual qonunchilikda korrupsiyaviy xatarlarga qarshi maxsus protsessual kafolatlarni mustahkamlash; Sudyalar Malaka hay’atining rolini oshirish va viloyat sud raislari va rais o’rinbosarlari lavozimini tugatish yoki amaldagi vakolatini qayta ko’rib chiqish, sudyalar moddiy ta’minotini to’liq budjet mablag’laridan qoplash alohida qonun hujjatini ishlab chiqish; sud majlislarini to'liq audio-video yozib borish amaliyotini barcha jinoyat ishlariga tatbiq etish va uni qonuniy talabi darajasiga ko'tarish; sudyalar faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini oluvchi mexanizmlarni takomillashtirish; sud qarorlarining to'liq matnini yagona elektron platformada ochiq e'lon qilishni ta'minlash; sudyalar korpusining moddiy va ijtimoiy kafolatlarini oshirish orqali korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish; fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish mexanizmlarini soddalashtirish; shuningdek, sudyalarning faoliyatiga yuqori turuvchi sudlar tomonidan

aralashishlarning oldini olish yuzasidan aniq chora tadbirlar belgilab olish; Sudlar faoliyatini moliyalashtirish departamentini Sudyalar oliy kengashi huzuriga o’tkazish.

Ushbu chora-tadbirlarning kompleks tarzda amalga oshirilishi jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: Adolat, 2023. — 76 b.

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2024. — 512 b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2017.

4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasi, 1948. — Toshkent: Adolat, 2019 — 24-b.

5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi pakt. 1966 // BMT hujjatlar to’plami. — Toshkent, 2018. — C. 45–78.

6. Организация Объединённых Наций. Конвенция против коррупции. — Нью-Йорк: ООН, 2004. — 66 с.

7. Гуценко К.Ф., Ковалёв М.А. Правоохранительные органы. — М.: Норма, 2020. — 448 с.

8. А.В.Смирнов, Калиновский К.Б. Уголовный процесс: учебник. — М.: Юрайт, 2021. — 736 с.

9. М.Рахимов, Жиноят процессида инсон ҳуқуқларини таъминлаш масалалари. — Тошкент: ТДЮУ, 2020. — 264 б.

10. X.T.Odilqoriyev, Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. — 320 b.

11. S.V.Bandaletov, Halol sudlov va korrupsiyaga qarshi kurash // Yuridik fanlar axborotnomasi. — 2022. — №3. — B. 34–41.

12. GRECO. Fourth Evaluation Round: Corruption Prevention in Respect of Judges and Prosecutors. — Strasbourg: Council of Europe, 2019. — 58 p.

13. B.A.Karimov. Jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasi kafolatlari // Davlat va huquq. — 2023. — №2. — B. 52–60.

14. Ш.Азизов. Судебно-правовые реформы в Узбекистане: итоги и перспективы // Общество и право. — 2022. — №4. — С. 18–25.

Internet manbalari

1. https//lex.uz
2. https//gazeta.uz
3. https//norma.uz
4. https//regulation.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASIDA PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI VA TENDENSIYALARI

To‘xtayev Bobir-Mirzo Avazovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

boburmirzo.toxtayev@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida parlament nazoratini amalga oshirishning institutsional-huquqiy asoslari, zamonaviy mexanizmlari va so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, 2024-yilda aralash saylov tizimi asosida shakllangan yangi parlament faoliyati hamda 2025–2026-yillarda parlament nazorati amaliyotida yuzaga kelgan sifat o‘zgarishlari alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, parlament eshituvlari, “Hukumat soati”, parlament va deputat so‘rovlari, davlat budjeti ijrosi ustidan nazorat, hukumat a’zolari nomzodlarini ko‘rib chiqish hamda muxolifat va qo‘mitalar vakolatlarining kengayishi kabi nazorat shakllarining amaliy ahamiyati ochib beriladi. Maqolada parlament nazoratining ijro hokimiyati hisobdorligini kuchaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, hududiy muammolarni hal etish hamda xalq manfaatlarini himoya qilishdagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *parlament nazorati, Qonunchilik palatasi, Oliy Majlis, deputat so‘rovi, parlament so‘rovi, Hukumat soati, budjet nazorati, aralash saylov tizimi, siyosiy raqobat, ijro hokimiyati hisobdorligi.*

Аннотация. *В данной статье проводится научно-теоретический анализ институционально-правовых основ, современных механизмов и тенденций*

развития парламентского контроля в Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется принятию Конституции в новой редакции в 2023 году, деятельности парламента нового созыва, сформированного в 2024 году на основе смешанной избирательной системы, а также качественным изменениям в практике парламентского контроля в 2025–2026 годах. Рассматривается практическое значение таких форм контроля, как парламентские слушания, «правительственный час», парламентские и депутатские запросы, контроль за исполнением Государственного бюджета, рассмотрение кандидатур членов Правительства, а также расширение полномочий парламентской оппозиции и комитетов. В статье обосновывается роль парламентского контроля в повышении подотчётности исполнительной власти, обеспечении открытости и прозрачности, решении региональных проблем и защите интересов народа.

Ключевые слова: *парламентский контроль, Законодательная палата, Олий Мажлис, депутатский запрос, парламентский запрос, правительственный час, бюджетный контроль, смешанная избирательная система, политическая конкуренция, подотчётность исполнительной власти.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the institutional and legal foundations, modern mechanisms, and development trends of parliamentary oversight in the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. Special attention is paid to the adoption of the Constitution in its new edition in 2023, the activities of the new parliament formed in 2024 on the basis of a mixed electoral system, and the qualitative changes observed in parliamentary oversight practice in 2025–2026. The article examines the practical significance of such forms of oversight as parliamentary hearings, “Government Hour”, parliamentary and deputy inquiries, control over the execution of the State Budget, consideration of candidates for government membership, and the expansion of the*

powers of parliamentary opposition and committees. The study substantiates the role of parliamentary oversight in strengthening executive accountability, ensuring openness and transparency, addressing regional issues, and protecting the interests of the people.

Keywords: *parliamentary oversight, Legislative Chamber, Oliy Majlis, deputy inquiry, parliamentary inquiry, Government Hour, budgetary control, mixed electoral system, political competition, executive accountability.*

Zamonaviy davlat boshqaruvida parlament nazorati jamiyatdagi siyosiy-huquqiy islohotlar dinamikasiga mos ravishda doimiy o‘zgarib, takomillashib boruvchi dinamik institutdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida shakllangan zamonaviy tendensiyalarning eng yirigi – bu parlament nazoratning sifatli va mutlaqo yangicha institutsional bosqichga ko‘tarilishidir. Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev 2024-yil 18-noyabr kuni yangi chaqiriq Qonunchilik palatasining birinchi majlisida ta’kidlaganidek, *ilgari parlament va deputatlik nazorati asosan ijtimoiy soha bilan cheklanib qolgan bo‘lsa, yangi davr talabiga ko‘ra, endilikda Qonunchilik palatasi ekologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish, investitsiya, eksport, migratsiya kabi strategik masalalarga ham alohida e’tibor qaratishi qat’iy belgilandi*.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida parlament nazoratini amalga oshirishning bugungi kundagi mavjud tendensiyalarini belgilab bergan eng asosiy fundamental omillardan yana biri – bu 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda uning mantiqiy davomi sifatida 2024-yilda ilk bor aralash *(majoritar-proporsional)* saylov tizimi asosida shakllantirilgan yangi chaqiriq parlament faoliyatidir.

Ma’lumki, Saylov kodeksiga kiritilgan tarixiy o‘zgartirishlarga muvofiq, aralash saylov tizimiga o‘tilishi natijasida Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha (majoritar), qolgan 75 nafari esa siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida yagona saylov okrugi bo‘yicha (proporsional) saylandi.

Kuchli raqobat, qizg‘in siyosiy kurash, oshkoralik va shaffoflik muhitida o‘tgan saylovda 5 ta siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan nomzodlar kurash olib bordi.

1. Yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasiga 2024 yilgi deputatlar saylovi natijalariga ko‘ra:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi – 26 ta; O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 14 ta; O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi – 13 ta; O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 12 ta; O‘zbekiston Ekologik partiyasi – 10 ta deputatlik o‘rniga ega bo‘ldi.

2. Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha Qonunchilik palatasiga 2024 yilgi saylangan 75 nafar deputat tarkibining partiyaviy mansubligi esa quyidagicha:

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 38 nafar; O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 15 nafar; O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 9 nafar; O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 7 nafar; O‘zbekiston Ekologik partiyasidan 6 nafar deputat saylandi.

2-rasm.



Siyosiy fanlar metodologiyasi nuqtai nazaridan, parlamentga o‘tkazilgan aralash saylov tizimi palatadagi partiyalararo raqobat muhitini keskin kuchaytiruvchi va bevosita parlament nazoratining sifat darajasini (KPI) oshiruvchi strategik omildir.

Shuningdek, aralash saylovlar natijasida 75 nafar deputat ilk bor partiyaviy ro‘yxatlar asosida saylangani Qonunchilik palatasida quyidagi uchta asosiy amaliy tendensiyani yuzaga keltirdi:

Birinchidan, hukumatni shakllantirish va uning dasturini tasdiqlashdagi deputatlarning siyosiy mas’uliyati keskin oshdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, Qonunchilik palatasiga Hukumat a’zosining hisobotini eshitib, uning yakunlariga ko‘ra ushbu rahbarni iste’foga chiqarish to‘g‘risida Prezidentga taklif kiritishdek mutlaq imperativ huquq berildi. Ushbu norma parlament nazoratini ijro hokimiyati vakilining siyosiy taqdirini hal qiluvchi va jiddiy yuridik oqibat keltirib chiqaruvchi ta’sirchan institutga aylantirdi. Natijada, har bir fraksiya hukumat dasturini tasdiqlashda faqat qo‘llab-quvvatlash pozitsiyasidan emas, balki qat’iy talabchanlik nuqtai nazaridan yondashish tendensiyasini o‘zlashtirmoqda.

Ikkinchidan, Davlat budjeti ijrosi ustidan nazoratni o‘rnatishda sof moliyaviy-auditorlik mexanizmi joriy etildi.

Davlat budjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga kiritilishi munosabati bilan palataning budjet ijrosini nazorat qilish mexanizmlari qat’iylashtirildi. Eng muhim tendensiyalardan biri shundan iboratki, endilikda hukumatning davlat budjetiga doir barcha hisobotlari palataga faqat Budjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu holat parlament eshituvlarida ochiq va isbotlangan raqamlarga tayanishni ta’minlab, budjet mablag‘larini taqsimlovchilar ustidan deputatlik nazoratini yanada chuqurlashtirdi.

Uchinchidan, siyosiy raqobat hamda hududiy muammolarni hal etishda muxolifat va qo‘mitalarning roli kengaytirildi.

Qonunchilik palatasida chinakam xalq uyi va g‘oyalar generatori muhitini yaratish, bahs va munozaralar maydonini shakllantirish maqsadida parlamentda muxolifatni jonlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. *2025 yilning may oyida O‘zbekiston XDP fraksiyasi o‘zini parlamentdagi muxolifat fraksiya deb e’lon qildi.* Qonunchilikka muvofiq, parlamentdagi muxolifatga kafolatlangan huquqlari soni 3 tadan 6 taga oshirildi, ularga 1 nafar qo‘mita raisi va 2 nafar qo‘mita raisi o‘rinbosari lavozimlarini kafolatli egallash huquqi berildi. Shuningdek, har chorakda “Hukumat soati” va parlament so‘rovi doirasida muxolifat tomonidan kamida bittadan masala kiritilishi kafolatlandi.

Shu bilan birga, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish tizimini optimallashtirish maqsadida quyi palatadagi 12 ta qo‘mita o‘rnida 10 ta yangilangan qo‘mita tashkil qilindi va ilk bor Tadbirkorlik, raqobat va sanoat qo‘mitasi tuzildi. Bu esa qo‘mitalar tomonidan ijro hokimiyati faoliyati ustidan o‘tkaziladigan eshituvlarning

aniq sohalar masalan, biznesni himoya qilish, sanoatni rivojlantirish bo‘yicha yanada ixtisoslashuviga xizmat qilmoqda.

2023-2024 yillardagi siyosiy va konstitutsiyaviy islohotlar o‘zining bevosita mantiqiy hamda amaliy natijasini Qonunchilik palatasining 2025-yildagi faoliyatida yaqqol namoyon etdi. Ushbu davrdagi amaliyotni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, parlament nazorati institutlaridan foydalanishda mutlaqo yangi – nafaqat miqdoriy o‘sish, balki ochiq hisobdorlik va sifat ko‘rsatkichlariga qat’iy o‘tish tendensiyasi shakllandi.

Qonunchilik palatasining 2025-yilgi faoliyati yakunlari bo‘yicha rasmiy axboroti tahliliga ko‘ra, parlament nazoratining barcha ta’sirchan shakllari bo‘yicha raqamlar keskin o‘sgan va ijtimoiy yuki ortgan. Ushbu tendensiyalarni quyidagi aniq raqamlar va mexanizmlar misolida tizimlashtirish maqsadga muvofiqdir.

1. Parlament va qo‘mita eshituvi institutlari faolligi yanada ortdi. Qonunchilik palatasida eng muhim va dolzarb masalalarni butun palata e’tiboriga olib chiqish mexanizmi bo‘lgan “parlament eshituvlari” soni sezilarli darajada oshdi. 2025-yil davomida siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo‘mitalar tashabbusiga ko‘ra davlat organlari rahbarlarining faoliyatiga doir axborotlari jami **11 marotaba** eshitildi. Qiyoslash uchun, bu ko‘rsatkich 2024-yilda jami **7 marotabani** tashkil etgan edi. Ushbu eshituvlarda korrupsiyaga qarshi kurashish, qishloq xo‘jaligi, suv resurslarini boshqarish va kommunal xo‘jalik kabi eng muammoli tarmoq rahbarlari bevosita deputatlar savollariga javob berdilar.

Shuningdek, qonunlar bilan belgilangan qat’iy vakolatlar doirasida Hukumat, Hisob palatasi, Ombudsman, Bolalar ombudsmani va siyosiy partiyalar moliyaviy hisobotlari kabi majburiy masalalar yuzasidan yana **16 marotaba** maxsus parlament eshituvlari o‘tkazilishi nazorat qamrovining kengayganidan dalolat beradi.

Qonunchilik palatasining nazorat faoliyatini amalga oshirishda uning qo‘mitalari muhim o‘rin tutadi. Qo‘mitalar davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitishga, qonunlarning ijro etilish holatini o‘rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoring tadbirlarini olib borishga alohida e’tibor qaratib bormoqdalar.

2025 yil davomida qo‘mitalar tomonidan jami 154 ta nazorat-tahlil tadbiri o‘tkazilgan. Ulardan 110 tasi davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitishga, 21 tasi qonunning, 20 tasi esa qonunosti hujjatining ijro etilish holatini o‘rganishga, 1 tasi Qonunchilik palatasining qarori ijrosini monitoring qilishga oid tadbirlardir.

O‘z navbatida, qo‘mitalarning nazorat-tahlil tadbirlari davomida sohaviy muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish borasida muayyan amaliy amaliy natijalarga ham erishilgan.

Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan Sog‘liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar holatini o‘rganish yakunlari bo‘yicha ushbu vazirlik rahbariyatining axboroti qo‘mita majlisida eshitilgan. Eshituv yakuni bo‘yicha qabul qilingan qarorga muvofiq, vazirlik tomonidan tizimdagi 94 ta normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilib, natijasi bo‘yicha aniqlangan huquqiy muammolar Adliya vazirligiga kiritilgan. Vazirlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha 89 ta bosh mutaxassis shtati joriy etilib, korrupsiyaviy holatlar haqida xabarni qabul qilishga mo‘ljallangan ishonch telefoni 24/7 ish tartibiga o‘tkazilgan.

2. Budjet ijrosi ustidan nazoratning maqsadli indikatorlar (KPI) tizimiga o‘tdi. Mavjud tendensiyalar ichida eng salmog‘li o‘zgarish Davlat budjeti ijrosini nazorat qilishda yuz berdi. Ilmiy adabiyotlarda ham ta’kidlanganidek, davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat quruq raqamlarni tinglashdan

ko‘ra, har bir ajratilgan summaning jamiyatga bergan iqtisodiy foydasini (indikatorini) baholashni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, 2025-yilda Quyi palata qo‘mitalarida birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning puldan qanday foydalanganligi bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining bajarilishi bo‘yicha hisobotlarni har chorakda eshitib borish amaliyoti joriy qilindi. Hisobot yilida qo‘mitalar majlislarida 18 ta vazirlik, 4 ta agentlik, 4 ta qo‘mita hamda 6 ta tashkilotning maqsadli indikatorlari bo‘yicha axborotlari jami 35 marotaba ko‘rib chiqildi.

3. “Hukumat soati” va Parlament so‘rovi sohasidagi tendensiyalar yanada ortdi.: Hukumat a’zolarining ochiq hisobdorligini ta’minlovchi “Hukumat soati” tadbirlari soni 2024-yildagi **6 marotabadan** 2025-yilda **9 marotabaga** oshdi. Unda 9 nafar vazir dolzarb savollarga javob berdi.

“Hukumat soati” tadbirlarida suv resurslaridan samarali foydalanish, aholini kambag‘allikdan chiqarish, sog‘liqni saqlash sohasida korrupsion omillarning oldini olish, o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, yo‘l xo‘jaligi sohasini yaxshilash, norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni kengaytirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish, qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilishga doir dolzarb savollar ko‘tarilgan.

Shu bilan birga, butun jamiyatni tashvishga solayotgan tizimli muammolar bo‘yicha ijro hokimiyatiga **15 ta parlament so‘rovi** *(2024-yilda 12 ta)* yuborildi. Ular asosan "yashil iqtisodiyot", qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, onkologik kasalliklarning oldini olish va xorijdagi fuqarolar manfaatlarini himoya qilish kabi global masalalarni qamrab oldi.

4. Deputat so‘rovi instituti natijadorligi sezilarli darajada kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida haqli ravishda e’tirof etganidek: "Parlament nazorati – bu, avvalo, xalq nazorati, xalq so‘rovi ekanini unutmaslik lozim. Afsuski, parlament so‘rovi, deputat so‘roviga yuzaki yondashib, unga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish holatlari ham uchrab turibdi"[3].

Bu fikrning naqadar dolzarbligini 2025-yilgi statistik ko‘rsatkichlar to‘liq isbotlaydi. Xususan, 2025 yilda joylardagi o‘rganishlar va saylovchilar murojaatlari asosida davlat organlari mansabdor shaxslariga jami **169 ta** deputat so‘rovi yuborilgan *(2024-yilda 134 ta)*. Qonunchilik palatasi deputatlari so‘rovi natijasida:

- Namangan viloyatidagi avtomobil yo‘llarining 14 523 m2 ta’mirtalab qismiga 1 201 tonna asfalt yotqizilgan;

- Farg‘ona viloyati, Buvayda tumani tibbiyot birlashmasi hududi chiqindilardan tozalanib, atrofi obodonlashtirilgan. Muassasadan bir martalik shpris korpuslari va sistemalarni olib ketish uchun 2025 yil 16 fevral kuni “Markaziy utilizatsiya” MChJ bilan shartnoma tuzilgan.

Shunga o‘xshash ijobiy hal bo‘lgan ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

5. Hukumatni shakllantirishdagi imperativ yondashuv natijadorligi oshib bordi. 2025-yildagi amaliyot Qonunchilik palatasining kadrlarni tanlash va tasdiqlashdagi salohiyati keskin kuchayganini ko‘rsatdi. Hisobot davrida Vazirlar Mahkamasi a’zoligiga taklif etilgan jami **29 nafar** nomzod qo‘mita va fraksiyalar chig‘irig‘idan o‘tkazilib, palata majlislarida ko‘rib chiqildi va ma’qullangan. Jumladan, 25 fevral kuni favqulodda vaziyatlar vaziri vaziri lavozimiga B. Kudratxodjaev, 3 mart kuni ichki ishlar lavozimiga A. Tashpulatov hamda 31 iyul kuni maktabgacha va maktab ta’limi vaziri lavozimiga E. Karimova nomzodi ko‘rib chiqilib, ma’qullangan.

[3] Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi // "Xalq so‘zi" gazetasi, 2024 yil 21 noyabr.

Bu jarayon parlament nazoratining oldindan o‘tkaziladigan eng ta’sirchan shakli bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi parlament nazoratining kelgusi evolyutsion bosqichini va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi strategik hujjat bo‘ldi. Dastlabki tahlillarga ko‘ra, Murojaatnomada 2026-yil mamlakatimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinib, davlat boshqaruvi hamda sud-huquq tizimini takomillashtirish bo‘yicha oltinchi ustuvor yo‘nalish doirasida bevosita Oliy Majlisning nazorat vakolatlarini kengaytirishga doir aniq institutsional vazifalar ilgari surildi.

Davlat rahbari Oliy Majlis bugungi kunda eng kuchli parlamentlarga xos bo‘lgan barcha nazorat vakolatlariga ega ekanligini e’tirof etib, davlat tashqi qarzini boshqarishda xalq vakillarining mas’uliyatini yanada oshirish tendensiyasini ilgari surdi.

Xususan, 2023-yildan buyon tashqi qarz miqdori parlament tomonidan qat’iy belgilanib kelinayotgan bo‘lsa, endilikda davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma’qullashni ham to‘liq parlament vakolatiga o‘tkazish vazifasi qat’iy belgilandi. Siyosiy-huquqiy jihatdan bu – makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda va xalq pullari sarflanishida ijro hokimiyatining moliyaviy hisobdorligini eng yuqori, imperativ darajaga ko‘tarish demakdir.

Shuningdek, joylarda vakillik nazoratini mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida 2026-yil 1-yanvardan boshlab 208 ta tuman va shaharda hokimlar va mahalliy Kengashlar raislari lavozimlari bir-biridan to‘liq ajratildi. Ushbu jiddiy siyosiy islohot ijro idoralarining Kengashlarga nisbatan munosabatini mutlaqo o‘zgartirishni taqozo etib, bundan buyon deputat so‘rovlari ijrosi har chorakda qat’iy tahlil qilinishi va sustkashlikka yo‘l qo‘yilgan holatlar bo‘yicha

prokuraturaga bevosita taqdimnoma kiritilishi yangi nazorat amaliyoti sifatida joriy etilmoqda.

Yuqoridagi konseptual yondashuvlar 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida o‘zining mutlaq yuridik tasdig‘ini topdi. Mazkur Farmonning davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish hamda ekologik barqarorlikka oid dasturlari asosida parlament nazoratining quyidagi 3 ta istiqbolli yo‘nalishi mustahkamlandi:

Birinchidan, Oliy Majlis palatalarining tashqi qarzni boshqarish sohasidagi vakolatlarini huquqiy jihatdan kengaytirish va ijro hokimiyati xarajatlari ustidan ta’sirchan monitoring o‘rnatish.

Ikkinchidan, deputatlarning ekologik muammolar oqibatlarini yumshatish doirasida aholi uchun mahallalarda yashil bog‘lar, yashil jamoat parklarini tashkil etishdagi vakolatlarini kengaytirish. Bu orqali ekologik nazorat parlament faoliyatining eng dolzarb qismiga aylanmoqda.

Uchinchidan, korrupsiya, giyohvandlik, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik kabi jamiyat oldida turgan dolzarb muammolarga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yo‘lga qo‘yishda parlament ishtirokini ta’minlash kabi yangi yo‘nalishlar belgilab berildi.. Murojaatnomada 2026-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha e’lon qilingan "favqulodda holat" bu jarayonda Qonunchilik palatasining parlament tekshiruvi va so‘rovlari institutlarini maksimal darajada ishga tushirishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida parlament nazoratini amalga oshirishning so‘nggi yillardagi (xususan 2024-2026-yillar kesimidagi) mavjud tendensiyalarini chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, 2024-yildagi aralash (majoritar-proporsional) saylov tizimiga o‘tish va Yangi Konstitutsiya normalarining amaliyotga to‘liq joriy etilishi parlament nazoratining sifat darajasini tubdan o‘zgartirdi. Fraksiyalar va qo‘mitalarning hukumat a’zolari nomzodini ko‘rib chiqish, budjetni taqsimlash va hisobotlarni eshitish jarayonlaridagi qat’iy yondashuvi nazoratning haqiqiy siyosiy raqobat va xalq manfaati himoyasi maydoniga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, raqamlar orqali o‘lchanadigan miqdoriy o‘sish (xususan, 2025-yilda eshituvlar, parlament va deputat so‘rovlari sonining keskin ortgani) e’tirofga loyiq bo‘lsa-da, u har doim ham to‘liq sifat ko‘rsatkichini va amaliy natijadorlikni anglatmaydi. Ayrim ijroiya hokimiyati idoralari tomonidan deputat so‘rovlariga o‘z vaqtida javob bermaslik yoki ularga “qo‘l uchida” yondashib, quyi bo‘g‘in idoralariga tushirib yuborish kabi byurokratik to‘siqlar hanuz saqlanib qolmoqda.

Uchinchidan, Prezident ma’ruzalari va 2026-yilgi davlat dasturi parlament nazoratining obyektlarini an’anaviy ijtimoiy yo‘nalishlardan eng murakkab hisoblangan makroiqtisodiy barqarorlik (tashqi qarz), ekologik xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash sohalariga ko‘chish tendensiyasini qat’iy belgilab berdi.

Umuman olganda, bugungi kunda Qonunchilik palatasida parlament nazoratining institutsional-huquqiy bazasi zamonaviy xalqaro talablarga va xalqparvarlik tamoyillariga to‘liq moslashtirilgan bo‘lsa-da, uning real amaliyotdagi samaradorligi amaldagi byurokratiya kabi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonlar zanjirini sabab-oqibat nuqtai nazaridan chuqur ilmiy tahlil etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi. – 2024 yil 19 noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2023-yil 18-dekabr, O‘RQ-883-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2023. – 19 dekabr. – № 03/23/883/0953.

3. Yagona saylov okrugi bo‘yicha saylov natijalari rasman tasdiqlandi va deputatlik mandatlari siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlandi [Elektron manba] // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti. – URL: https://saylov.uz/oz/press_service_in/yagona-saylov-okrugi-bo-yicha-saylov-natijalari-rasman-tasdiqlandi-va-deputatlik-mandatlari-siyosiy-partiyalar-o-rtasida-taqsimlandi.

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlamentdagi muxolifatning kafolatlangan huquqlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2025-yil 30-iyul, O‘RQ-1077-son [Elektron manba] // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7658631

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yildagi faoliyati yakunlari to‘g‘risida Axborot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025. – B. 31–32.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yildagi faoliyati yakunlari to‘g‘risida Axborot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025. – B. 38.

7. To‘xtayev B.A. O‘zbekiston Respublikasida parlament nazorati institutini rivojlantirishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari // Tizimli tadqiqotlar ilmiy-tahliliy jurnali. – 2025. – № 2(12). – B. 148.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yildagi faoliyati yakunlari to‘g‘risida Axborot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025. – B. 33.

9. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi. – 2024 yil 21 noyabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2025-yildagi faoliyati yakunlari to‘g‘risida Axborot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, 2025. – B. 36–39.

MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGI VA HUQUQIY TIZIMNI ISLOH QILISHNING KONSEPTUAL MASALALARI

Mirsaidova Tamara Oybek qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va uni tizimli modernizatsiya qilishda huquqiy infratuzilmani isloh qilishning dolzarb konseptual masalalari tadqiq etilgan. IMRAD standarti doirasida iqtisodiy o‘sish, investitsiya oqimi va qonun ustuvorligi o‘rtasidagi dialektik aloqalar institutsional hamda tizimli-funksional tahlil metodlari yordamida chuqur o‘rganildi. Tadqiqot davomida xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari, odil sudlov mustaqilligi, ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish hamda xufyona iqtisodiyot tarkibini huquqiy usullar bilan optimallashtirish muammolari tahlil qilindi. Ilmiy tahlillar yakunida davlat boshqaruvi va huquqni qo‘llash amaliyotini servis modeliga o‘tkazish hamda milliy qonunchilik samaradorligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli amaliy tavsiyalar majmuasi ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy islohotlar, mulk daxlsizligi, adliya tizimi, institutsional muhit, tranzaksiya xarajatlari, xufyona iqtisodiyot, IMRAD, raqamli huquq.*

Аннотация.*В данной статье исследуются актуальные концептуальные вопросы реформирования правовой инфраструктуры в условиях глобальных экономических изменений с целью обеспечения устойчивости национальной экономики и её системной модернизации. В рамках стандарта IMRAD с использованием институционального и системно-функционального методов*

анализа всесторонне изучены диалектические взаимосвязи между экономическим ростом, инвестиционными потоками и верховенством закона. В ходе исследования проанализированы проблемы конституционно-правовых гарантий права частной собственности, независимости судебной власти, сокращения административных барьеров, а также оптимизации структуры теневой экономики посредством правовых механизмов. По итогам научного анализа разработан комплекс долгосрочных практических рекомендаций, направленных на перевод государственного управления и правоприменительной практики на сервисную модель, а также на повышение эффективности национального законодательства.

Ключевые слова: *национальная экономика, макроэкономическая стабильность, правовые реформы, неприкосновенность собственности, система правосудия, институциональная среда, трансакционные издержки, теневая экономика, IMRAD, цифровое право.*

Abstract. *article examines the current conceptual issues of reforming the legal infrastructure in the context of global economic transformations to ensure the stability of the national economy and promote its systematic modernization. Within the IMRAD framework, the dialectical relationships among economic growth, investment flows, and the rule of law are comprehensively analyzed using institutional and system-functional research methods. The study explores the constitutional and legal guarantees of private property rights, judicial independence, the reduction of administrative barriers, and the optimization of the shadow economy through legal mechanisms. Based on the findings, a set of long-term practical recommendations has been developed to transform public administration and law enforcement practices into a service-oriented model and to enhance the effectiveness of national legislation.*

Keywords: *national economy, macroeconomic stability, legal reforms, protection of property rights, judicial system, institutional environment, transaction costs, shadow economy, IMRAD, digital law.*

1. KIRISH

1.1. Muammoning dolzarbligi va uning global konteksti

Zamonaviy dunyoda milliy iqtisodiyotlarning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi faqat moddiy ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurslar zaxirasi yoki moliyaviy aktivlarning hajmi bilan belgilanmaydi. Jamiyatdagi institutsional muhit, qonun ustuvorligi darajasi va huquqiy tizimning mukammalligi iqtisodiy taraqqiyotning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi (drayveri) bo‘lib xizmat qilmoqda. Global iqtisodiy inqirozlar, xalqaro ta’minot zanjirlarining uzilishi va geosiyosiy keskinliklar kuchaygan hozirgi davrda har bir davlat o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash maqsadida ichki imkoniyatlarni safarbar etishga intilmoqda. Biroq har qanday iqtisodiy islohot, dastur yoki investitsiyaviy loyiha agar u ishonchli va prognoz qilinadigan huquqiy poydevorga ega bo‘lmasa, uzoq muddatli ijobiy natija bera olmaydi.

1.2. Iqtisodiy barqarorlikning huquqiy determinantlari

Huquqiy tizim bozor iqtisodiyotining o‘yin qoidalarini belgilovchi, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va risklarni minimallashtiruvchi universal mexanizmdir. Xususiy mulk huquqining daxlsizligi, biznes shartnomalarining so‘zsiz va majburiy bajarilishi, davlat organlarining iqtisodiy faoliyatga asossiz aralashuvini cheklash hamda sud tizimining mustaqilligi xorijiy va mahalliy kapitalni faollashtirishning fundamental shartlaridir. Agar huquqiy normalar tarkibida kamsituvchi elementlar, qarama-qarshiliklar yoki subyektiv talqin qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa, iqtisodiyotda tranzaksiya xarajatlari keskin ortadi. Bu holat investorlarda kelajakka bo‘lgan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va pirovardida kapitalning mamlakatdan chiqib ketishiga (kapitalning chiqib ketishi) sharoit yaratadi.

1.3. Muammoning qo‘yilishi va ilmiy bo‘shliqlar

Ko‘plab rivojlanayotgan va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda keng ko‘lamli makroiqtisodiy dasturlar va erkin bozor munosabatlariga o‘tish strategiyalari qabul qilinmoqda. Ammo ularning huquqiy infratuzilmasi uzoq vaqt davomida eski, ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan qolgan jazolash va cheklash falsafasidan to‘liq qutulgani yo‘q. Amaldagi qonunchilik aksariyat hollarda tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga emas, balki ularni qat’iy nazorat ostida ushlashga qaratilgan. Ushbu nomutanosiblik natijasida iqtisodiy subyektlar huquqiy bosim va yuqori moliyaviy risklardan himoyalanish uchun xufyona (yashirin) sektorga o‘tishni afzal ko‘rishadi. Bu esa soliq bazasining qisqarishiga, davlat budjeti daromadlarining kamayishiga va milliy iqtisodiyot barqarorligining zaiflashishiga olib keladi.

1.4. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi milliy iqtisodiyot barqarorligi va huquqiy tizim o‘rtasidagi o‘zaro funksional bog‘liqlikni tizimli tahlil qilish, mavjud institutsional muammolarni aniqlash hamda iqtisodiy o‘sishni jadallashtiruvchi, biznes muhitini himoya qiluvchi yangi konseptual huquqiy islohotlar modelini taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun qonunchilik barqarorligi, sud mustaqilligi va ma’muriy nazorat tizimini optimallashtirish masalalari chuqur tahlil qilinadi.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

2.1. Tadqiqotning uslubiy asosi

Ushbu maqolada iqtisodiy va huquqiy jarayonlarning murakkab va ko‘p qirrali tabiatini inobatga olgan holda, bir qator zamonaviy fanlararo va maxsus ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Iqtisodiyot va huquq chorrahasidagi munosabatlarni tadqiq etishda fundamental metodologik poydevor sifatida «Law and Economics» (Huquq va iqtisodiyot) yondashuvi asos qilib olindi. Bu yondashuv huquqiy normalarni iqtisodiy samaradorlik va resurslarni ratsional taqsimlash prizmasi orqali baholash imkonini beradi.

2.2. Qo‘llanilgan maxsus metodlar

1. Institutsional tahlil metodi: Ushbu metod yordamida jamiyatdagi rasmiy (qonunlar, farmonlar, kodekslar) va norasmiy (urf-odatlar, an’analar, biznes etikasi)

institutlarning iqtisodiy subyektlar xulq-atvoriga ta’siri o‘rganildi. Huquqiy institutlarning sifati bozor kon’yunkturasining barqarorligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi.

2. Qiyosiy-huquqiy metod: Biznes muhitini huquqiy tartibga solish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallagan rivojlangan davlatlar (jumladan, Singapur, Estoniya va Janubiy Koreya) qonunchiligi va huquqni qo‘llash amaliyoti chuqur o‘rganildi. Ularning tajribasidagi ijobiy elementlarni milliy huquqiy tizimga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

3. Tizimli-funksional yondashuv: Iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga soluvchi alohida huquqiy bloklar (soliq, bojxona, litsenziyalash, mehnat huquqi) yaxlit bir tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu normalardagi o‘zaro ziddiyatlar va bo‘shliqlarning umumiy makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’siri mantiqiy xulosalash, deduksiya va induksiya prinsiplari orqali aniqlandi.

2.3. Ma’lumotlar bazasi va empirik asos

Tadqiqotning empirik va nazariy asosini Jahon bankining «Worldwide Governance Indicators» (WGI) va «Rule of Law Index» (Qonun ustuvorligi indeksi) hisobotlari, Xalqaro valyuta jamg‘armasining makroiqtisodiy tahlillari hamda milliy statistika agentliklarining uzoq yillik rasmiy ma’lumotlari tashkil etdi. Shuningdek, nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilgan iqtisodiy-huquqiy yo‘nalishdagi monografiyalar va maqolalar mazmuni tahlil qilindi.

3. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Qonun ustuvorligi va makroiqtisodiy dinamika bog‘liqligi

O‘tkazilgan ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlillar natijasida mamlakatdagi qonun ustuvorligi darajasi, adolat indeksi hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri, chiziqli va proporsional bog‘liqlik mavjudligi to‘liq tasdiqlandi. Huquqiy institutlari shaffof, adolatli va tezkor ishlaydigan jamiyatlarda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari, yuqori investitsiya oqimi va past inflyatsiya darajasi kuzatiladi. Aksincha, huquqiy kafolatlar zaif, ijro intizomi sust

bo‘lgan tizimlarda iqtisodiy o‘sish faqat vaqtinchalik omillar, asosan xomashyo va tabiiy resurslar eksporti hisobiga bo‘lib, har qanday tashqi moliyaviy shokka qarshi o‘ta zaif immunitetni namoyon etadi.

3.2. Konseptual yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida huquqiy tizimni isloh qilishning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi to‘rtta asosiy konseptual natijasi ajratib ko‘rsatildi:

- Mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy daxlsizligi effekti: Mulk daxlsizligi qonun bilan amalda to‘liq kafolatlangan va davlat organlari tomonidan asoslanmagan ma’muriy aralashuvlar to‘liq cheklangan muhitda mahalliy va xorijiy investorlarning o‘z kapitalini uzoq muddatli loyihalarga kiritish va olingan foydani qayta investitsiyalash (reinvestitsiya) darajasi keskin oshadi. Bu holat mamlakatdan kapitalning ofshor hududlarga noqonuniy qochishini to‘xtatuvchi asosiy to‘siqdir.

- Adliya tizimi tezkorligining shartnomaviy intizomga ta’siri: Biznes subyektlari o‘rtasidagi va davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridagi nizolarni hal qilish muddati qisqargan, sud jarayonlari raqamlashtirilgan sharoitda tadbirkorlarning bir-biriga hamda adolat tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Bu o‘z navbatida shartnomaviy majburiyatlarni buzish holatlarini kamaytiradi va iqtisodiyotdagi moliyaviy yo‘qotishlarni, sud xarajatlarini minimallashtiradi.

- Ma’muriy bosimni qisqartirish va biznes faolligini oshirish: Biznes subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash va turli ruxsatnomalar berish tizimining soddalashtirilishi hamda nazorat qiluvchi organlarning tekshirish vakolatlari qisqartirilishi kichik va o‘rta tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada kengaytiradi va diversifikatsiyani ta’minlaydi.

- Xufyona iqtisodiyotni huquqiy tartibga solish natijalari: Soliq va bojxona qonunchiligini murakkab, ko‘p bosqichli va chalkash normalardan xoli qilish orqali soliq to‘lash jarayonlarining osonlashishi biznes subyektlarining yashirin faoliyatdan ochiq, qonuniy sektorga o‘tishini tezlashtiradi.

4. MUHOKAMA

4.1. Institutsional nazariyalar bilan integratsiya

Tadqiqot doirasida olingan natijalar jahon iqtisodiyot ilmidagi zamonaviy institutsional yondashuvlarni, xususan, Daron Ajemoglu va Jeyms Robinsonning «Nega ba’zi davlatlar kambag‘al, ba’zilari esa boy?» nomli asarida ilgari surilgan «inklyuziv va eksklyuziv institutlar» konsepsiyasini nazariy jihatdan boyitadi va tasdiqlaydi. Mualliflar ta’kidlaganidek, jamiyatdagi barcha iqtisodiy agentlar uchun teng o‘yin qoidalarini, adolatli raqobat muhitini va huquqiy himoyani kafolatlovchi «inklyuziv» huquqiy tizimgina davlatning boyishi va iqtisodiy barqarorligini kafolatlaydi. Qonunlar va huquqni qo‘llash amaliyoti faqat ma’muriy resursga ega bo‘lgan tor bir doiradagi guruhlar yoki monopoliyalar manfaati uchun xizmat qiladigan «eksklyuziv» tizim esa iqtisodiyotni inqirozga va turg‘unlikka mahkum etadi.

4.2. Huquqiy subyektivizm va xufyona sektor o‘rtasidagi aloqa

Ilmiy muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hukumatlar tomonidan soliq yoki bojxona stavkalarini shunchaki mexanik ravishda pasaytirilishi iqtisodiyotni xufyona sektordan to‘liq olib chiqish uchun yetarli bo‘lmaydi. Muammo faqat moliyaviy yukning miqdorida emas, balki huquqiy kafolatlarning mavjudligidadir. Agar tadbirkor yoki xorijiy investor o‘zining bugun qonuniy yo‘l bilan topgan mulki, yer maydoni yoki korxonasi kelajakda mahalliy ijro hokimiyati organlari yoki asossiz tekshiruvchilar tomonidan noqonuniy tortib olinmasligiga (ekspropriatsiya qilinmasligiga) huquqiy va sud orqali to‘liq amin bo‘lmas ekan, u o‘z kapitalini mamlakat ichida saqlashdan va kengaytirishdan ko‘ra uni ofshor hududlarga olib chiqib ketishni va xavfsiz davlatlarga joylashtirishni afzal ko‘raveradi.

4.3. Huquqiy tizimni isloh qilishning strategik konseptual ustunlari

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash uchun huquqiy infratuzilmani tubdan isloh qilishda quyidagi strategik yo‘nalishlarni konseptual asos sifatida qabul qilish lozim:

- Normativ-huquqiy hujjatlarning barqarorligi (Qonunchilik immuniteti): Biznes faoliyatiga daxldor bo‘lgan barcha asosiy qonunlar, kodekslar va normativ hujjatlar

qabul qilingandan so‘ng, ularning amal qilish muddati kamida besh yoki yetti yil davomida tadbirkorlik sharoitini og‘irlashtirish yoki soliq yukini oshirish yo‘nalishida o‘zgartirilmasligi haqida qat’iy huquqiy kafolat (immunitet) berilishi kerak.

Har oy yoki har yili o‘zgarib turadigan o‘yin qoidalari sharoitida hech bir iqtisodiy subyekt uzoq muddatli strategik biznes-rejalarni va investitsiya dasturlarini rejalashtira olmaydi.

- Xalqaro odil sudlov va arbitraj standartlarini integratsiya qilish: Milliy sud-huquq tizimida, ayniqsa iqtisodiy va investitsiyaviy nizolarni ko‘rib chiqishda mustaqil «Xalqaro tijorat arbitraji» institutlari va xorijiy huquq prinsiplaridan (masalan, ingliz huquqi elementlaridan) foydalanish ko‘lamini kengaytirish zarur. Bu holat xalqaro investorlarning milliy adliya tizimiga bo‘lgan ishonchini tiklaydi, chunki ular mahalliy davlat organlari bilan bo‘ladigan nizolarda sudning to‘liq xolis va mustaqil bo‘lishini xohlashadi.

- Davlatning iqtisodiyotdagi ma’muriy ishtirokini optimallashtirish: Huquqiy tizim davlat organlarining iqtisodiyotni «boshqaruvchi va buyruq beruvchi» funksiyasidan uni «tartibga soluvchi, himoya qiluvchi va servis ko‘rsatuvchi» modelga o‘tishini huquqiy jihatdan mustahkamlashi shart. Davlat korxonalariga beriladigan eksklyuziv imtiyozlar va monopol huquqlarni qonunchilik darajasida taqiqlash orqali barcha subyektlar uchun teng raqobat maydoni yaratilishi lozim.

5. XULOSA VA TAVSIYALAR

5.1. Umumiy xulosalar

O‘tkazilgan keng ko‘lamli ilmiy-nazariy va institutsional tadqiqotlar xulosa qilib shuni ko‘rsatadiki, milliy iqtisodiyot barqarorligi huquqiy tizimning adolatliligi, shaffofligi, daxlsizligi va eng muhimi – oldindan oldindan bashorat qilinuvchanligiga (bashorat qilinuvchanlik) bevosita va uzviy bog‘liqdir. Adliya tizimi tadbirkorlik faoliyatini jazolovchi va cheklovchi apparatdan biznes subyektlarining qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi hamda makroiqtisodiy taraqqiyot drayveriga aylanuvchi servis modeliga o‘tishi davr talabidir. Qonun ustuvorligi ta’minlanmagan iqtisodiyotda

har qanday moliyaviy islohot va pul-kredit siyosati kutilgan yuqori samarani bera olmaydi.

5.2. Amaliy tavsiyalar majmuasi

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodiyot barqarorligini huquqiy islohotlar orqali ta’minlash bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. «Aqlli tartibga solish» (Smart Regulation) va RIA tizimini mukammallashtirish: Har qanday iqtisodiy, soliq va bojxona xarakteriga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi qabul qilinishidan avval majburiy tartibda «Tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini baholash» (Regulatory Impact Assessment – RIA) ekspertizasidan o‘tkazilishi shart. Agar yangi qonun loyihasi biznes subyektlari uchun qo‘shimcha moliyaviy xarajat yoki ma’muriy yuk olib kelishi aniqlansa, uni qabul qilish qonun darajasida rad etilishi lozim.

2. Qonun hujjatlaridagi korrupsiyaviy normalarni to‘liq filtrlash va tozalash: Milliy qonunchilik bazasidagi barcha normativ hujjatlar inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va ularning tarkibidagi mansabdor shaxsning ixtiyoriga ko‘ra subyektiv qaror qabul qilishiga yo‘l ochuvchi noaniq so‘zlar, istisnolar, "haqli", "istisno hollarda", "ruxsat berilishi mumkin" kabi jumlalar butunlay chiqarib tashlanishi zarur. Qonunlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan va hamma uchun bir xil talqin qilinadigan shaklga keltirilishi shart.

3. Raqamli huquq va intellektual mulk himoyasini kuchaytirish: Zamonaviy yuqori texnologiyali va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli aktivlar, startap ekotizimlari, venchur fondlari faoliyatining huquqiy poydevorini yaratish. Intellektual mulk (patentlar, mualliflik huquqlari, franshizalar) himoyasini to‘liq raqamlashtirish hamda ushbu sohaga blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali ma’lumotlarning soxtalashtirilishini va inson omili ta’sirini minimallashtirish lozim.

4. Sud qarorlarining ijro etilish mexanizmini kafolatlash: Faqatgina adolatli sud qarori qabul qilinishi yetarli emas, uning amaldagi ijrosi qat’iy va so‘zsiz ta’minlanishi

kerak. Davlat organlari ishtirokidagi nizolarda sud tadbirkor foydasiga qaror chiqargan taqdirda, ushbu qarorni bajarmagan mansabdor shaxslarning shaxsiy va jinoiy javobgarligini kuchaytirish huquqiy tizimning nufuzini va iqtisodiyotdagi barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qonun ustuvorligi va huquqiy adolat to‘liq qaror topgan milliy iqtisodiyotgina ichki va tashqi inqirozlarga, global iqtisodiy tebranishlarga qarshi mustahkam immunitetga va uzoq muddatli izchil rivojlanish strategiyasiga ega bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Business.

2. World Bank. (2024). Worldwide Governance Indicators (WGI) Report 2023–2024. World Bank Group.

3. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

4. World Justice Project. (2025). WJP Rule of Law Index 2024. WJP Publications.

5. Shodiyev, R. (2023). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda huquqiy institutlarning o‘rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 14(2), 45–58.

6. Cooter, R., & Ulen, T. (2016). Law and Economics (6th ed.). Berkeley Law Books.

7. Karimov, A. (2024). Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning institutsional-huquqiy mexanizmlari. Moliya va bank jurnali, 9(1), 112–126.

8. Asenbaeva, A. E. (2023). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yashil menejment mexanizmlarini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(5), 24–31-b. URL:

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF TOURIST-RECREATIONAL ZONES IN UZBEKISTAN: AN ANALYSIS BASED ON INTERNATIONAL TOURIST FLOW DYNAMICS

Umarova Makhliyo

“Silk Road” International University of Tourizm and Cultural Heritage

ORCID: 0009-0002-3134-0852

mahliyoumarova9893@gmail.com

Abstract. *Uzbekistan’s tourism sector has experienced significant transformation due to institutional reforms, infrastructure modernization, and digital tourism development, strengthening its international competitiveness. This study examines international tourist flow dynamics in Uzbekistan during 2016–2025 and evaluates their implications for improving the organizational and economic development mechanisms of tourist-recreational zones. The research applies statistical, comparative, and structural analysis to assess tourist growth trends, geographic composition, age distribution, and regional concentration patterns. The findings reveal strong post-pandemic recovery, high concentration of tourist flows in major destinations, and dependence on neighboring-country visitors, creating structural challenges for sustainable tourism development. Age-segment analysis indicates the need for diversified tourism products and improved destination management. The study concludes that enhancing tourist-recreational zone efficiency requires integrated organizational-economic mechanisms based on infrastructure modernization, smart tourism governance, service diversification, and destination competitiveness.*

Keywords: *tourist-recreational zones; tourism competitiveness; destination management; smart tourism; Uzbekistan tourism.*

Introduction.

Tourism has become one of the most important sectors of the global economy, significantly contributing to employment generation, regional development, investment attraction, and sustainable economic growth. In recent years, tourism competitiveness has increasingly depended on innovation, digital transformation, infrastructure quality, and effective destination governance[4].

Tourist-recreational zones represent integrated territorial tourism systems that combine natural resources, cultural heritage, tourism infrastructure, recreational services, and management mechanisms to create competitive tourism destinations. According to destination competitiveness theory, sustainable tourism development depends not only on resource endowment but also on management efficiency, service quality, infrastructure readiness, and innovation capacity [5].

Uzbekistan has emerged as one of the rapidly growing tourism destinations in Central Asia due to institutional reforms, visa liberalization, infrastructure modernization, and tourism promotion initiatives. International tourist arrivals increased from 2.03 million in 2016 to 11.68 million in 2025, demonstrating substantial tourism growth. However, this rapid expansion has created structural challenges, including territorial concentration of tourist flows, dependence on neighboring markets, infrastructure pressure, and the need to modernize tourist-recreational zones[6].

Recent tourism studies emphasize the importance of smart tourism governance and digital ecosystem integration in improving tourism efficiency and visitor

[4] J. Zhang, M. Zhang, and C. Liu, “Tourism and economic growth: A global evidence review,” Sustainability, vol. 13, no. 23, 2021.
[5] S. Dwyer and C. Kim, “Destination competitiveness: determinants and indicators,” Current Issues in Tourism, vol. 6, no. 5, 2003.
[6] Uzbekistan national tourism statistical data (empirical source for 2025 statistics)

experience[7]. Despite increasing tourism development in Uzbekistan, limited research has specifically examined organizational-economic mechanisms for improving tourist-recreational zone efficiency through empirical tourism flow analysis.

Therefore, this study analyzes international tourist flow dynamics in Uzbekistan during 2016–2025 and evaluates their implications for improving the efficiency, sustainability, and competitiveness of tourist-recreational zones through integrated organizational-economic development mechanisms.

Results and discussion.

Uzbekistan’s tourism sector has demonstrated significant structural transformation over the past decade, driven by tourism liberalization policies, infrastructure modernization, international destination branding, and institutional tourism reforms. International tourism growth is widely recognized as a key indicator of destination competitiveness, reflecting a country's capacity to attract visitors, generate tourism revenue, and sustain tourism ecosystem development

Table 1. Dynamics of International Tourist Arrivals in Uzbekistan (2016–2025)[8]

Year	**International Tourist Arrivals (thousand persons)**	**Growth Rate (%)**
2016	2 027,0	-
2017	2 690,1	32,7
2018	5 346,2	98,8
2019	6 748,5	26,2
2020	1 504,1	-77,7
2021	1 881,3	25,1
2022	5 232,8	178,2
2023	6 626,3	26,6

[7] D. Buhalis and A. Amaranggana, “Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalization of services,” in Information and Communication Technologies in Tourism 2015.
[8] Compiled by the author based on national tourism statistical data.

2024	10 060,9	51,9
2025	11 679,6	16,1

As shown in Table 1, international tourist arrivals in Uzbekistan increased substantially from **2.03 million in 2016 to 11.68 million in 2025**, representing nearly a six-fold increase over the study period. This upward trend reflects the growing international visibility of Uzbekistan as an emerging tourism destination and indicates improvements in tourism accessibility, infrastructure readiness, and destination competitiveness.

The period between **2016 and 2019** demonstrates strong tourism expansion. Tourist arrivals increased by **32.7% in 2017**, followed by an exceptional **98.8% growth in 2018**. This rapid expansion can be associated with visa liberalization reforms, active destination marketing, and improved tourism accessibility. Similar findings in tourism competitiveness research suggest that institutional reforms and accessibility improvements significantly enhance destination attractiveness and visitor inflows[9].

In 2019, tourist arrivals reached 6.75 million, confirming Uzbekistan’s growing position in the international tourism market. According to destination competitiveness theory, sustained tourism growth reflects successful interaction between tourism resources, infrastructure quality, governance mechanisms, and service system development.

The COVID-19 pandemic caused severe disruption to global tourism systems, resulting in a dramatic 77.7% decline in 2020. This decline corresponds with global tourism crisis patterns identified in international tourism research, where mobility restrictions, border closures, and uncertainty significantly reduced international travel demand. Tourism system resilience studies emphasize that such disruptions reveal structural vulnerabilities in tourism-dependent economies.

[9] N. Dogru, M. Bulut, and E. Sirakaya-Turk, “Modelling tourism demand: a dynamic panel data approach,” Tourism Economics, vol. 25, no. 8, pp. 1196–1212, 2019.

However, Uzbekistan demonstrated notable recovery potential in the post-pandemic period. Tourist arrivals increased by 25.1% in 2021, followed by a remarkable 178.2% increase in 2022, indicating strong rebound effects. This rapid recovery aligns with tourism resilience literature, which highlights compensatory travel demand, border reopening, and restored traveler confidence as major drivers of tourism recovery.

Growth stabilization became visible in 2023, with arrivals increasing by 26.6%, suggesting transition from recovery-driven expansion toward structural normalization. In 2024, tourist arrivals exceeded 10 million, representing a further 51.9% increase, while 2025 recorded 11.68 million visitors, indicating sustained tourism expansion.

From a strategic perspective, this long-term growth demonstrates strong tourism market potential; however, increasing tourist inflows simultaneously create pressure on destination infrastructure, accommodation systems, transport networks, environmental sustainability, and tourism service quality. Tourism competitiveness literature suggests that quantitative growth alone does not guarantee sustainable destination development unless accompanied by governance modernization, service innovation, digital transformation, and territorial tourism diversification.

Therefore, the rapid increase in tourist arrivals strengthens the argument for improving organizational-economic mechanisms governing tourist-recreational zones in Uzbekistan to ensure balanced, sustainable, and competitive tourism development.

The geographic structure of tourist arrivals represents an important indicator of destination market diversification, tourism resilience, and international competitiveness. Tourism studies emphasize that excessive dependence on limited source markets may increase vulnerability to geopolitical instability, regional economic

fluctuations, and mobility disruptions, thereby weakening long-term destination sustainability[10].

Table 2. Geographic Composition of International Tourist Arrivals in Uzbekistan (2025)[11]

Tourist Source Region	**Tourist Arrivals (thousand persons)**	**Share (%)**
Neighboring Countries	9,525.0	81.6
Other CIS Countries	1,063.4	9.1
Distant Foreign Countries	1,091.3	9.3

As presented in Figure 1, the geographic composition of international tourist arrivals in Uzbekistan in 2025 demonstrates a significant concentration in regional source markets. Tourists from neighboring countries accounted for **9.53 million visitors**, representing **81.6%** of total international arrivals. In contrast, tourists from other Commonwealth of Independent States (CIS) countries accounted for **9.1%**, while arrivals from distant foreign markets represented only **9.3%**.

This distribution reveals that Uzbekistan’s tourism sector remains strongly dependent on geographically proximate markets. Such concentration can be explained by factors including territorial proximity, reduced transportation costs, simplified mobility, cultural similarities, and cross-border travel accessibility. Tourism demand theory suggests that geographic distance and travel costs remain significant determinants of international tourism behavior, particularly in emerging tourism destinations[12].

From an economic perspective, regional tourism dependence provides certain short-term advantages, including stable visitor inflows, lower marketing acquisition costs, and resilience in nearby travel markets. However, tourism competitiveness

[10] J. Alegre and M. Cladera, “Analysing the effect of market diversification on tourism resilience,” Tourism Management, vol. 30, no. 3, pp. 315–321, 2009.
[11] Compiled by the author based on national tourism statistical data.
[12] M. Lim, D. McAleer, and C. Min, “Tourism demand and distance effects,” Tourism Management, vol. 29, no. 3, pp. 535–543, 2008.

research indicates that excessive market concentration may create structural vulnerabilities, particularly during regional crises, border restrictions, or economic downturns[13].

At the same time, the relatively modest share of tourists from distant foreign countries represents an important strategic issue. Although numerically smaller, long-haul international tourists typically generate higher per capita tourism expenditure, longer average stays, and stronger demand for premium accommodation, cultural experiences, wellness services, and destination packages[14]. Therefore, increasing the share of distant international tourists could substantially improve tourism revenue generation and destination profitability.

Destination competitiveness models emphasize that internationally competitive tourism destinations maintain balanced source market diversification to reduce dependency risks while increasing revenue sustainability.[15] Similarly, tourism market diversification literature suggests that expanding higher-value international visitor segments improves tourism resilience and economic efficiency[16].

For tourist-recreational zones, these findings imply the necessity of differentiated development strategies. On the one hand, Uzbekistan should maintain its strong regional tourism base through continued facilitation of cross-border mobility, regional destination branding, and infrastructure connectivity. On the other hand, attracting distant international tourists requires modernization of tourism infrastructure, service quality enhancement, multilingual digital services, integrated destination management, and smart tourism ecosystem development[17].

---

[13] S. Dwyer and C. Kim, “Destination competitiveness: determinants and indicators,” Current Issues in Tourism, vol. 6, no. 5, pp. 369–414, 2003.
[14] E. Brida and S. Scuderi, “Determinants of tourist expenditure,” Tourism Management Perspectives, vol. 6, pp. 28–40, 2013.
[15] J. R. B. Ritchie and G. I. Crouch, “The competitive destination: a sustainability perspective,” Tourism Management, vol. 21, no. 1, pp. 1–7, 2000.
[16] B. Assaf and A. Josiassen, “Destination competitiveness and tourism market diversification,” Tourism Management, vol. 45, pp. 213–225, 2014.
[17] U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, and C. Koo, “Smart tourim: foundations and developments,” Electronic Markets, vol. 25, no. 3, pp. 179–188, 2015.

Thus, the current geographic composition of tourist arrivals indicates that while Uzbekistan has achieved substantial tourism growth, long-term competitiveness of tourist-recreational zones depends on strategic international market diversification and destination management modernization.

Conclusion and Recommendations.

The analysis of international tourist arrivals during 2016–2025 demonstrates that Uzbekistan has achieved substantial progress in tourism development, with the number of foreign visitors increasing from 2.03 million to 11.68 million. Despite the severe impact of the COVID-19 pandemic, the tourism sector exhibited strong recovery capacity and returned to a sustainable growth trajectory. This trend confirms the effectiveness of tourism reforms, infrastructure improvements, and destination promotion policies implemented in recent years[18].

The geographic composition analysis revealed that 81.6% of international tourists originate from neighboring countries, indicating a strong dependence on regional tourism markets. While this structure provides stable tourist inflows, it also creates potential vulnerabilities associated with market concentration and limited diversification. The relatively low share of visitors from distant foreign markets suggests untapped opportunities for increasing tourism revenues and enhancing international destination competitiveness[19].

Based on the findings, several practical recommendations can be proposed:

1. Diversify international tourism markets by strengthening promotional activities in Europe, East Asia, the Middle East, and North America to reduce dependence on neighboring countries.

[18] S. Gössling, D. Scott, and C. M. Hall, “Pandemics, tourism and global change: a rapid assessment of COVID-19,” Journal of Sustainable Tourism, vol. 29, no. 1, pp. 1–20, 2021.
[19] A. Rasoolimanesh, M. Seyfi, C. M. Hall, and S. Hatamifar, “Understanding memorable tourism experiences and destination competitiveness: A case study of emerging tourism destinations,” Sustainability, vol. 13, no. 19, 2021.

2. Enhance the competitiveness of tourist-recreational zones through infrastructure modernization, improvement of service quality, and development of innovative tourism products.
3. Expand smart tourism solutions by integrating digital platforms, multilingual information systems, online reservation services, and data-driven destination management tools.
4. Promote regional tourism development by improving accessibility and tourism infrastructure in less-visited regions to reduce excessive concentration of tourist flows in major destinations.
5. Develop high-value tourism segments, including cultural, wellness, ecological, and recreational tourism, to increase tourist expenditure and extend average length of stay.

Overall, sustainable growth of Uzbekistan’s tourism sector requires the implementation of integrated organizational-economic mechanisms that combine market diversification, digital transformation, destination competitiveness enhancement, and balanced territorial development of tourist-recreational zones. Such measures will contribute to strengthening the long-term sustainability and international attractiveness of the country's tourism destinations[20].

REFERENCES

1. J. Zhang, M. Zhang, and C. Liu, “Tourism and economic growth: A global evidence review,” Sustainability, vol. 13, no. 23, 2021.
2. S. Dwyer and C. Kim, “Destination competitiveness: determinants and indicators,” Current Issues in Tourism, vol. 6, no. 5, 2003.

[20] D. Buhalis and A. Amaranggana, “Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalization of services,” in Information and Communication Technologies in Tourism 2015, Springer, Cham, 2015, pp. 377–389.

3. Uzbekistan national tourism statistical data (empirical source for 2025 statistics).

4. D. Buhalis and A. Amaranggana, “Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalization of services,” in Information and Communication Technologies in Tourism 2015.

5. J. Alegre and M. Cladera, “Analysing the effect of market diversification on tourism resilience,” Tourism Management, vol. 30, no. 3, pp. 315–321, 2009.

6. M. Lim, D. McAleer, and C. Min, “Tourism demand and distance effects,” Tourism Management, vol. 29, no. 3, pp. 535–543, 2008.

7. E. Brida and S. Scuderi, “Determinants of tourist expenditure,” Tourism Management Perspectives, vol. 6, pp. 28–40, 2013.

8. B. Assaf and A. Josiassen, “Destination competitiveness and tourism market diversification,” Tourism Management, vol. 45, pp. 213–225, 2014.

9. U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, and C. Koo, “Smart tourism: foundations and developments,” Electronic Markets, vol. 25, no. 3, pp. 179–188, 2015.

10. J. R. B. Ritchie and G. I. Crouch, “The competitive destination: a sustainability perspective,” Tourism Management, vol. 21, no. 1, pp. 1–7, 2000.

11. S. Dwyer and C. Kim, “Destination competitiveness: determinants and indicators,” Current Issues in Tourism, vol. 6, no. 5, pp. 369–414, 2003.

12. N. Dogru, M. Bulut, and E. Sirakaya-Turk, “Modelling tourism demand: a dynamic panel data approach,” Tourism Economics, vol. 25, no. 8, pp. 1196–1212, 2019.

13. S. Gössling, D. Scott, and C. M. Hall, “Pandemics, tourism and global change: a rapid assessment of COVID-19,” Journal of Sustainable Tourism, vol. 29, no. 1, pp. 1–20, 2021.

14. D. Buhalis and A. Amaranggana, “Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalization of services,” in Information and Communication Technologies in Tourism 2015, Springer, Cham, 2015, pp. 377–389.

15. A. Rasoolimanesh, M. Seyfi, C. M. Hall, and S. Hatamifar, “Understanding memorable tourism experiences and destination competitiveness: A case study of emerging tourism destinations,” Sustainability, vol. 13, no. 19, 2021.

OILA INSTITUTIDAGI IJTIMOIY ME’YORLARNING XOTIN-QIZLAR IQTISODIY FAOLLIGIGA TA’SIRI

Nurmonova Zebo Alikovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda oila institutida shakllanadigan ijtimoiy me’yorlarning xotin-qizlar iqtisodiy faolligiga ta’siri sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tengsizligining asosiy ildizlari oila, ta’lim va mehnat bozori kabi ijtimoiy institutlarda shakllanishi asoslab beriladi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar (UNDP, ILO, OECD) ma’lumotlari hamda muallif tomonidan o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari tahlili asosida oila ichidagi qaror qabul qilish iyerarxiyasi, uy mehnati taqsimoti, resurslar ustidan nazorat va gender rollari xotin-qizlarning iqtisodiy avtonomiyasiga ta’sir qiluvchi muhim institutsional mexanizmlar ekani ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila instituti, ijtimoiy me’yorlar, gender rollari, xotin-qizlar iqtisodiy faolligi, gender tengsizligi, qaror qabul qilish, mehnat bozori, ijtimoiy institutlar.*

Аннотация. *В тезисе анализируется влияние социальных норм института семьи на экономическую активность женщин с социологической точки зрения. Обосновывается, что ключевые причины гендерного неравенства формируются в социальных институтах, прежде всего в семье, образовании и на рынке труда. На основе анализа научной литературы, данных международных организаций (UNDP, ILO, OECD), а также результатов авторского эмпирического исследования показано, что иерархия принятия решений в семье, распределение домашнего труда, контроль над ресурсами и гендерные роли выступают*

важными институциональными механизмами, влияющими на экономическую автономию женщин.

Ключевые слова: *институт семьи, социальные нормы, гендерные роли, экономическая активность женщин, гендерное неравенство, принятие решений, рынок труда, социальные институты.*

Abstract. *This paper analyzes the influence of social norms within the family institution on women’s economic activity from a sociological perspective. It argues that the key causes of gender inequality are shaped within social institutions, primarily the family, the education system, and the labor market. Based on an analysis of the academic literature, data from international organizations (UNDP, ILO, OECD), and the results of the author’s empirical research, it is shown that the hierarchy of decision-making within the family, the division of household labor, control over resources, and gender roles serve as important institutional mechanisms influencing women’s economic autonomy.*

Keywords: *family institution, social norms, gender roles, women’s economic activity, gender inequality, decision-making, labor market, social institutions.*

Kirish. Xalqaro huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarga nisbatan kamsitish jinsga asoslangan holda ularning inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklovchi har qanday farqlash, istisno yoki cheklov sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi Konvensiya (CEDAW)da ham mustahkamlangan bo‘lib, gender tengsizligi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda namoyon bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan[21].

[21] Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин: принята Генеральной Ассамблеей ООН 18 декабря 1979 г. — Нью-Йорк: Организация Объединённых Наций, 1979.

Ko‘plab manbalarda xotin-qizlar iqtisodiy faolligi bilan bog‘liq kamsitish asosan oila, ta’lim va mehnat bozori bilan bevosita aloqador bo‘lgan ijtimoiy institutlarda uchrashi o‘z isbotini topgan. Qolaversa, bugungi kunda ijtimoiy institutlar faol va tezkor o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Globallashuv, texnologik taraqqiyot, migratsiya jarayonlari va individualizatsiya tendensiyalari natijasida an’anaviy institutlar shakl va mazmun jihatdan qayta shakllanmoqda. Masalan, oila institutida noan’anaviy oila shakllari ko‘paymoqda, ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar ta’sirida transformatsiyaga uchramoqda, mehnat bozorida esa yangi kasblar va ish usullari vujudga kelmoqda.

Jumladan, oxirgi yillarda xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasining ortishi nafaqat iqtisodiy jarayonlarga, balki ijtimoiy munosabatlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda, xotin-qizlarning ish faolligining oshib borishi an’anaviy gender rollari va oiladagi vazifalar taqsimotiga qayta nazar tashlashni talab etmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, xotin-qizlar ishlayotgan sharoitlarda oilaviy majburiyatlar, ayniqsa, bola parvarishi, uy ishlari va keksalarga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq vazifalarni juftlar o‘rtasida qayta taqsimlash zarurati yuzaga keladi. Bu jarayon ko‘p hollarda “ikkinchi smena” (second shift) fenomeni ya’ni ishdan keyingi uy ishlari yukining xotin-qizlar zimmasiga tushishi orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi va kasbiy o‘sishi oilaviy munosabatlarda tenglikka intilish, qaror qabul qilishda ishtirok darajasini oshirish kabi dinamikalarni rag‘batlantiradi[22].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar tez rivojlanishi oila institutidagi munosabatlarga ham yangi dinamikani olib kirmoqda. Masofaviy ishlash va onlayn ta’limning kengayishi oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalar va uy mehnati taqsimotiga ta’sir qilib, vaqtni boshqarishni qayta shakllantirmoqda. Bir tomondan, uyda ishlash oila bilan ko‘proq vaqt o‘tkazish imkonini bersa, ikkinchi tomondan mehnat va shaxsiy hayot o‘rtasidagi chegaralarni noaniqlashtirib, ayniqsa xotin-qizlar uchun “doim ishda”

[22] Folbre N. The Care Penalty // Challenge. – 2001. – Vol. 44, No. 5. https://www.jstor.org/stable/24562453

bo‘lish holatini yuzaga keltirib, emotsional zo‘riqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli kommunikatsiyaning ortishi an’anaviy jonli muloqotni kamaytirib, oilaviy munosabatlarda formallik va emotsional uzoqlashuvga sabab bo‘lishi mumkin[23]. Bu holat raqamli mehnat shakllarining institutsional tartibga solinmagani bilan ham bog‘liq. Shu jihatdan texnologiyalar faqat texnik vosita emas, balki oila ichidagi ijtimoiy rollar, gender yuklamalari va emotsiyalarni boshqarish mexanizmlariga ta’sir qiluvchi murakkab ijtimoiy omil sifatida ham o‘rganilishi zarur.

Globallashuv va mehnat migratsiyasi ortishi natijasida an’anaviy oila tuzilmalarida transmilliy oilalar, deb ataladigan yangi tushunchalar vujudga kelmoqda. Transmilliy oilalarning asosiy xususiyatlaridan biri — moddiy ko‘mak yuborish orqali oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish va ijtimoiy vazifalarni bajarish hisoblanadi[24]. Shu bilan birga, migratsiya sababli jismoniy masofa, vaqtinchalik ajralish va emotsional uzoqlashuv bunday oilalarda qo‘shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bu holat gender rollarining qayta taqsimlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi: aksariyat hollarda parvarish, uy mehnati va emotsional mas’uliyatlar yana xotin-qizlar zimmasiga tushib, gender yuklamasining oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, globallashuv, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalar rivoji va mehnat migratsiyasi oila institutining shakli va mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, an’anaviy gender rollari, mehnat taqsimoti va oilaviy mas’uliyatlarni qayta shakllantirmoqda. Biroq, ushbu o‘zgarishlar xotin-qizlarning faolligini avtomatik tarzda oshirayotgan jarayon sifatida qaralishi mumkin emas. Aksincha, global transformatsiyalar oila institutidagi ijtimoiy me’yorlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, ayrim hollarda yangi imkoniyatlar yaratsa, boshqa hollarda esa mavjud gender tengsizliklarini yangi shakllarda qayta ishlab chiqarmoqda. Shu bois, globallashuv

[23] Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011. https://www.amazon.com/Alone-Together-Expect-Technology-Other/dp/0465010210

[24] Levitt P., Glick Schiller N. Conceptualizing simultaneity: A transnational social field perspective on society // *International Migration Review*. – 2004. – Vol. 38, No. 3. https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1111/j.1747-7379.2004.tb00227.x

ta’sirini umumiy ijtimoiy fon sifatida qabul qilgan holda, uning oila institutida aniq qanday mexanizmlar orqali namoyon bo‘layotganini, qaysi ijtimoiy me’yorlar orqali xotin-qizlarning sotsioiqtisodiy faolligi cheklanayotganini yoki rag‘batlantirilayotganini tizimli tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Asosiy qism. Oila instituti doirasida qaror qabul qilish jarayoni xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini shakllantiruvchi asosiy institutsional mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ta’lim olish, kasb tanlash, ishlash, migratsiya qilish yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanish kabi iqtisodiy ahamiyatga ega qarorlar ko‘p hollarda shaxsiy tanlov emas, balki oiladagi qudrat iyerarxiyasi asosida qabul qilinadi. Bu holat qaror qabul qilishni individual erkinlik emas, balki institutsional nazorat shakli sifatida talqin qilishni talab etadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda xotin-qizlarning iqtisodiy qarorlarda ishtirok etishi formal tusga ega bo‘lib, amaliy jihatdan qaror qabul qilish huquqi erkaklar qo‘lida jamlangan. BMT Taraqqiyot Dasturining 2022 yilgi tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekistonda respondentlarning 71 foizi muhim oilaviy qarorlarni erkak qabul qilishi kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek, xotin-qizlarning 49 foizi o‘qish yoki ishlash uchun turmush o‘rtog‘i yoki qaynona-qaynotasidan ruxsat olishi lozimligini ta’kidlagan[25]. Institutsional nuqtayi nazardan, bunday holat qaror qabul qilishni iqtisodiy resurslardan foydalanishni cheklovchi norasmiy institut sifatida namoyon qiladi. Xotin-qizlar ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsa ham, qaror qabul qilish vakolati mavjud emasligi sababli ularning iqtisodiy faolligi shartli va cheklangan ravishda tus oladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy institutlar va gender indeksida ham qaror qabul qilishdagi avtonomiya pastligi xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini cheklovchi asosiy institutsional to‘siqlardan biri

[25] Negative Impact of Gender Stereotypes and Patriarchal Attitudes on Gender Equality in Uzbekistan: Findings of the Nationwide Sociological Assessment on the Prevalence of Gender Stereotypes in Uzbekistan. – Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2022. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-03/Gender%20Stereotypes%20final%20%284%29.pdf?utm_source

sifatida qayd etilgan[26]. Qolaversa, SIGIning birinchi tarkibiy indikatori — “diskriminatsion oila kodeksi”, ya’ni oila ichidagi gender tengsizligining qonuniy va madaniy asoslarini aks ettiradi. Bu indikator nikoh yoshidagi tengsizlik, meros huquqidagi cheklanishlar, majburiy va erta nikoh, shuningdek, xotin-qizlarning qaror qabul qilish huquqlarini cheklovchi normalar kabi omillarni baholaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlariga ko‘ra, bu omillar eng ko‘p xotin-qizlarga nisbatan kamsitish joylashgan maydon sifatida oila sohasini ko‘rsatadi[27]. Ya’ni, oila — jamiyatdagi eng asosiy va eng ta’sirchan institut sifatida gender me’yorlari qayta ishlab chiqariladigan va mustahkamlanadigan asosiy tuzilmadir.

Ma’lumki, nikoh instituti oilaviy munosabatlarni huquqiy va ijtimoiy me’yorlar orqali tartibga soluvchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Mazkur institut ko‘p hollarda xotin-qizlarning sotsioiqtisodiy faolligini shakllantiruvchi muhim institutsional bosqich hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, turmush qurish xotin-qizlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish emas, aksincha, ularning mehnat bozoridagi ishtirokini cheklashga olib keluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat nikohni shaxsiy munosabat emas, balki iqtisodiy rollarni qayta taqsimlovchi ijtimoiy institut sifatida tahlil qilishni talab etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlarda nikohdan keyin xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki pasayadi, erkaklarda esa bunday tendensiya kuzatilmaydi[28]. O‘zbekiston sharoitida ham nikohdan keyin xotin-qizlarning ishdan bo‘shashi, kasbiy rivojlanishni to‘xtatishi yoki norasmiy sektorga o‘tishi keng tarqalgan amaliyot hisoblanadi. Dekmak, institutsional jihatdan nikoh xotin-qizlarga nisbatan “oilaviy burch”, “uy vazifalari” va “parvarish majburiyati”ni mustahkamlovchi mexanizm sifatida ishlaydi. Bu esa mehnat bozorida xotin-qizlarning uzluksiz faolligini cheklab, ularda inson

[26] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Social Institutions and Gender Index (SIGI) 2019: Global Report. — Paris: OECD Publishing, 2019.
[27] Ўша манба.
[28] International Labour Organization (ILO). Care Work and Care Jobs for the Future of Decent Work. — Geneva: ILO, 2018.

kapitali rivojlanishida uzilishlarni keltirib chiqaradi[29]. Qolaversa, 2022 yildagi taxminiy statistika shuni ko‘rsatadiki: xotin-qizlar uy mehnati va bolalar parvarishiga erkaklarga nisbatan bir necha baravar ko‘proq vaqt sarflaydilar (xotin-qizlar 5.27, erkaklar 2.15 soat). Shuningdek, 25-49 yoshda xotin-qizlarning 50.6 foizi uyda bolalar yoki uy ishlari bilan shug‘ullanadi. Erkaklarda esa bu ko‘rsatkich 5.9 foizni tashkil qiladi[30]. Bu holat xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki va martaba imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, o‘zbek jamiyatida oila instituti ko‘p hollarda yadroviy emas, balki keng oila modeli asosida shakllanadi. Oila instituti doirasida shakllangan norasmiy institutsional mexanizmlar (jumladan, qaynona-qaynota munosabatlari) xotin-qizlarning kundalik hayoti, harakat erkinligi va iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qaynona nazorati, uy mehnati yuki va itoat kutilmalari xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini cheklovchi norasmiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan BMT Xotin-qizlar tuzilmasi tomonidan o‘tkazilgan mintaqaviy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Markaziy Osiyo mamlakatlarida xotin-qizlarning ishlashiga nisbatan qarshilik ko‘p hollarda nafaqat turmush o‘rtoq, balki qaynona tomonidan ham bildiriladi[31]. Bu holat iqtisodiy faollik oshishini oila ichidagi qudrat munosabatlari bilan bog‘lab qo‘yadi. Institutsional nuqtayi nazardan, qaynona-qaynota omili xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini cheklovchi norasmiy me’yoriy-nazorat mexanizmi vazifasini bajaradi. Bu mexanizm rasmiy qonunlar bilan emas, balki “urf-odat”, “obro‘”, “oilaviy tartib” kabi me’yorlar orqali ishlaydi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi ko‘p hollarda hayotiy sikl bosqichlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Turmush qurish, homiladorlik, farzand tug‘ilishi va bola parvarishi bosqichlari iqtisodiy faollikda uzilishlarga sabab bo‘ladi. Bu uzilishlar

[29] World Bank. Women, Business and the Law 2020. — Washington, DC: World Bank Group, 2020.
[30] International Labour Organization. Care Work and Care Jobs in Uzbekistan: The State of Play. — Geneva: ILO, 2022. https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40europe/%40ro-geneva/%40sro-moscow/documents/publication/wcms_907344.pdf
[31] UN Women. Gender Norms and Social Institutions in Central Asia. — New York: UN Women, 2020.

biologik emas, balki institutsional xususiyatga ega. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bolali xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki bolasiz xotin-qizlarga nisbatan sezilarli darajada past[32]. Bu holat bola parvarishi infratuzilmasining yetarli emasligi va parvarish majburiyatining asosan, xotin-qizlar zimmasiga yuklanishi bilan izohlanadi. Institutsional tahlil shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv mehnatning iqtisodiy qiymati tan olinmagani sababli, xotin-qizlarning iqtisodiy sotsiofaolligi sistemali ravishda cheklanadi. Bu holat iqtisodiy tengsizlikning avloddan-avlodga o‘tishiga xizmat qiladi[33].

Oila institutida shakllangan gender me’yorlari mehnat bozorida ham qayta ishlab chiqariladi. Ish beruvchilar ko‘p hollarda xotin-qizlarni “oilaviy majburiyatga ega”, “nofaol” yoki “nobarqaror” xodim sifatida qabul qiladilar va bu holat mehnat bozorida institutsional diskriminatsiyaga olib keladi. Jahon balki tadqiqotlariga ko‘ra[34], onalik ta’tili va oilaviy majburiyatlar ish beruvchilar nazdida salbiy omil sifatida baholanadi. Bu esa xotin-qizlarning maoshi, lavozimda o‘sishi va barqaror ishga joylashishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, iqtisodiy faollik faqat ishlash bilan emas, balki daromad ustidan nazorat qilish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Ko‘p hollarda xotin-qizlar ishlayotgan bo‘lsa ham, oila budjeti ustidan nazorat erkaklar qo‘lida qoladi. Bu holat iqtisodiy mustaqillikni cheklovchi institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, SIGI indeksida daromad ustidan nazoratning notekis taqsimlanishi xotin-qizlarning iqtisodiy zaifligini oshiruvchi omil sifatida baholangan[35].

Bundan tashqari, oila instituti mahalla va jamoatchilik me’yorlari bilan chambarchas bog‘liq. “Odamlar nima deydi?”, “obro‘”, “uyat” kabi tushunchalar xotin-qizlarning sotsioiqtisodiy faolligini cheklovchi ijtimoiy nazorat mexanizmlari sifatida ishlaydi. Misol uchun, BMT Taraqqiyot dasturi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, mahalla

[32] International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Women 2021. — Geneva: ILO, 2021.
[33] OECD Development Centre. Gender, Institutions and Development Database (GID-DB). — Paris: OECD, 2019.
[34] World Bank. Gender Equality and Development. World Development Report. — Washington, DC: World Bank, 2012.
[35] OECD Development Centre. Gender, Institutions and Development Database (GID-DB). — Paris: OECD, 2019.

va jamoatchilik bosimi xotin-qizlarning ishlash bo‘yicha qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[36]. Bu holat oila institutini kengroq ijtimoiy institutlar tizimiga bog‘laydi.

Shunday qilib, yuzaga kelayotgan gender stereotiplari va diskriminatsion munosabatlarning omillari faqat shaxsiy qarashlar yoki yakka holdagi xulq-atvor bilan izohlanmaydi, balki, ularning ildizlari oilada shakllanadigan an’anaviy tarbiya modellari, jamoatchilikda mustahkamlangan ijtimoiy intizom, shuningdek, huquqiy va institutsional amaliyotlardagi gender jihatdan hisobga olinmagan bo‘shliqlar bilan chambarchas bog‘liq. UNDP (2022) tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi gender stereotiplari aynan oila va mahalla muhitida avloddan-avlodga o‘tib borayotgan xulq-atvor mezonlari, jinsga asoslangan majburiy rollar va ijtimoiy-huquqiy infratuzilmaning yetarli darajada gender-neytral emasligi orqali qayta ishlab chiqariladi. Demak, oila ichidagi rollar taqsimoti, resurslar ustidan nazorat va qaror qabul qilish iyerarxiyasi kabi masalalarni tahlil qilishda bu ildiz omillarni hisobga olish zarur. Zero, ular xotin-qizlarning sotsioiqtisodiy faolligiga ta’sir etuvchi institutsional mexanizmlarning asl tabiati va mohiyatini ochib beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oila institutida shakllanadigan ijtimoiy me’yorlar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligiga ta’sir etuvchi eng barqaror institutsional mexanizmlardan biri hisoblanadi. Uy mehnati, bolalar parvarishi, resurslar ustidan nazorat va qaror qabul qilish amaliyotlari ko‘p hollarda jinsga xos rol kutilmalari asosida tashkil etilgan bo‘lib, xotin-qizlarning iqtisodiy avtonomiyasini cheklaydi. Bu me’yorlar rasmiy qonunlar orqali emas, balki an’anaviy tarbiya, jamoatchilik fikri, norasmiy nazorat va ayrim hollarda diniy qadriyatlarning muayyan ijtimoiy talqinlari orqali qayta ishlab chiqariladi.

Qolaversa, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari ham oila institutidagi kamsituvchi me’yorlar mehnat bozoridagi tengsizliklarning ildiz omillaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Bunda, uy mehnatining teng taqsimlanmasligi, qaror qabul qilishda

[36] UNDP Uzbekistan. Gender Equality and Social Norms in Uzbekistan. Analytical Report. — Tashkent: UNDP, 2022.

avtonomiyaning pastligi va ijtimoiy rollarning qat’iy ajratilishi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini institutsional darajada cheklab kelmoqda. Shu bois, xotin-qizlar iqtisodiy faolligini oshirish faqat iqtisodiy rag‘batlar bilan emas, balki oila institutidagi gender rollari, me’yorlar va ularning madaniy-diniy legitimatsiya mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin. Demak, oila instituti xotin-qizlar iqtisodiy faolligining boshlang‘ich va hal qiluvchi nuqtasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. OECD. SIGI 2023 Global Report: Gender Equality in Times of Crisis. — Paris: OECD Publishing, 2023.

2. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин: принята Генеральной Ассамблеей ООН 18 декабря 1979 г. — Нью-Йорк: Организация Объединённых Наций, 1979.

3. Folbre N. The Care Penalty // Challenge. – 2001. – Vol. 44, No. 5.

4. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.

5. Levitt P., Glick Schiller N. Conceptualizing simultaneity: A transnational social field perspective on society // International Migration Review. – 2004.

6. Negative Impact of Gender Stereotypes and Patriarchal Attitudes on Gender Equality in Uzbekistan: Findings of the Nationwide Sociological Assessment on the Prevalence of Gender Stereotypes in Uzbekistan. – Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2022.

7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Social Institutions and Gender Index (SIGI) 2019: Global Report. — Paris: OECD Publishing, 2019.

8. International Labour Organization (ILO). Care Work and Care Jobs for the Future of Decent Work. — Geneva: ILO, 2018.

9. World Bank. Women, Business and the Law 2020. — Washington, DC: World Bank Group, 2020.

10. International Labour Organization. Care Work and Care Jobs in Uzbekistan: The State of Play. — Geneva: ILO, 2022.

11. UN Women. Gender Norms and Social Institutions in Central Asia. — New York: UN Women, 2020.

12. International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Women 2021. — Geneva: ILO, 2021.

13. World Bank. Gender Equality and Development. World Development Report. — Washington, DC: World Bank, 2012.

MILLIY TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

THE NATURE AND STRUCTURE OF DECLARATIVE KNOWLEDGE

Kulakhmedova Aziza

Millat Umidi University, Teacher , Independent Researcher

Abstract

This thesis examines the pedagogical role of declarative knowledge within language curricula in secondary and higher education. Grounded in modern linguodidactics and Skill Acquisition Theory, the study analyzes how systematic grammar rules, the mental lexicon, and factual data shape communicative competence. The findings reveal that while secondary schooling utilizes explicit instruction to build fundamental cognitive schemas for subsequent proceduralization, higher education shifts the paradigm toward advanced metalinguistic awareness. Ultimately, the paper provides optimization strategies to balance explicit rule-based learning with communicative fluency in contemporary classrooms.

Keywords: *Declarative Knowledge, Linguodidactics, Skill Acquisition Theory, Proceduralization, Metalinguistic Awareness, Mental Lexicon, Secondary and Higher Education, Cognitive Schemas, Explicit Instruction.*

Introduction

Effective foreign language education depends on converting structural data into real-time communication. Cognitive psychology separates this into knowing "that" (explicit rules) and knowing "how" (implicit speech) (Anderson, 1976). Explicit data forms declarative knowledge, an essential baseline for development (DeKeyser, 2015). Excluding it causes grammatical fossilization (Ellis, 2009); thus, understanding its function is vital for curriculum design.

This thesis examines the nature and linguodidactic characterization of declarative knowledge—grammar rules, lexicon, and situational facts—across secondary and higher education tiers. While universally required, its utility depends on learner maturity and institutional objectives. Secondary education uses declarative data for initial habit formation (Ullman, 2001), while higher education shifts toward critical, metalinguistic analysis (Ellis, 2005). This study clarifies explicit learning mechanics to bridge comprehension and communicative fluency.

Object: Linguistic competence development in formal frameworks.

Subject: Structural nature and processing of declarative knowledge across educational tiers.

Hypothesis: Calibrating explicit instruction to transition from foundational cognitive schemas (secondary) to analytical metalinguistic awareness (higher) optimizes proceduralization while preserving fluency.

Architectural Components & Cognitive Mechanics

Language acquisition requires an explicit baseline framework. Declarative knowledge acts as an integrated triad of core components:

Grammar Frameworks: Operates as explicit mental maps. Following Ullman’s (2001) Declarative/Procedural Model, explicit rules help learners decode syntactical hierarchies and structure accurate sentences.

Mental Lexicon: Functions as an organized repository. Vocabulary, idioms, and collocations are stored as discrete, controlled data points linked to direct meanings.

Situational Facts: Provides sociolinguistic norms and regional variations. This contextual awareness ensures communicative appropriateness.

[Targeted Input] ➔ [Working Memory: Encoding] ➔ [Semantic Networks: Storage] ➔ [Deliberate Retrieval]

This structural data is processed through dedicated cognitive phases:

Encoding: Working memory manages focused attention and linguistic hypothesis-testing.

Storage: Data integrates directly into existing long-term semantic networks and schemas.

Retrieval: Access remains controlled and deliberate. Anderson’s (1976) ACT-R model shows that mentally retrieving explicit rules creates a bottleneck, limiting initial real-time processing speed.

Educational Tiers & Methodological Implications

The execution of declarative teaching must adapt to the specific educational tier:

Table 1: Linguodidactic Differences of Declarative Knowledge Application Across Educational Tiers

Dimension	Secondary Education: Foundations	Higher Education: Metalinguistic Mastery
Pedagogical Approach	Balances explicit grammar rules with interactive practice to prevent early error fossilization.	Shifts to analytical, self-reflective rule tracking, evaluating language as a dynamic system.
Lexical Focus	Targets high-frequency vocabulary through mnemonics and thematic groups.	Prioritizes academic jargon, abstract professional terms, and deep semantic analysis.
Primary Goal	Uses explicit instruction as a stepping stone to transform rules into automatic, procedural habits (DeKeyser, 2015).	Establishes autonomous competence for self-correction and professional discourse management.

Note. Overview of declarative knowledge transitions across educational tiers.

Methodological Focus & Conclusion

Pedagogy must avoid pure memorization while rejecting completely unstructured communication. Explicit instruction accelerates adult comprehension (Ellis, 2009), while conscious attention acts as a gateway to deep pattern recognition (Ellis, 2005).

Instructors bridge the declarative-to-procedural gap using structured input processing and tier-appropriate tasks. Ultimately, calibrating declarative knowledge across age groups effectively transforms abstract linguistic theory into fluent communicative practice.

References

1. Anderson, J. R. (1976). *Language, memory, and thought*. Lawrence Erlbaum Associates.

2. DeKeyser, R. M. (2015). Skill acquisition theory. In B. VanPatten & J. Williams (Eds.), *Theories in second language acquisition: An introduction* (2nd ed., pp. 94–112). Routledge.

3. Ellis, N. C. (2005). At the interface: Dynamic interactions of explicit and implicit language knowledge. *Studies in Second Language Acquisition*, 27(2), 305–352.

4. Ellis, R. (2009). *Implicit and explicit knowledge in second language learning, testing and teaching*. Multilingual Matters.

5. Ullman, M. T. (2001). The declarative/procedural model of lexicon and grammar. *Journal of Psycholinguistic Research*, 30(1), 37–69.

INGLIZ TILI DARSLARIDA 5–9-SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI BAHOLASHNING METODIK YONDASHUVLARI

Ahmadjonova Diyoraxon Dilshod qizi

Email: ahmadjonovadiyoraxon@gmail.com

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tili darslarida 5–9-sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashning metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Tanqidiy fikrlashni baholashning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar hamda umumiy o‘rta ta'lim maktablari sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan baholash mezonlari yoritilgan. Shuningdek, formatif va summativ baholashning o‘zaro bog‘liqligi, baholash indikatorlarini ishlab chiqish zarurati hamda ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini aniqlashning metodik jihatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, baholash, metodik yondashuv, formatif baholash, summativ baholash, indikator, rubrika, ingliz tili ta'limi, kompetensiya.*

XXI asrda axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va sun'iy intellekt vositalarining keng qo‘llanilishi o‘quvchilardan axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish kabi murakkab intellektual faoliyatni talab etmoqda. Bunday sharoitda tanqidiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim tizimlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan bir qatorda uni ishonchli baholash metodikasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2, 41-b.].

Ingliz tili fanining o‘ziga xosligi shundaki, mazkur fan nafaqat til birliklarini o‘rgatishga, balki o‘quvchilarning muloqot qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil etish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va o‘z fikrini dalillar asosida himoya qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ushbu fanda tanqidiy fikrlashni baholash grammatik bilimlarni tekshirishdan tubdan farq qiladi. O‘quvchining javobi faqat "to‘g‘ri" yoki "noto‘g‘ri" mezoni asosida emas, balki uning fikrni asoslay olishi, dalillarni tahlil qilishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi va muqobil yechimlarni taklif eta olishi kabi ko‘rsatkichlar orqali ham baholanishi lozim [4, 27-b.].

Mazkur muammoni hal etishda baholashning metodik yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Baholash mezonlari aniq belgilangan taqdirdagina o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasidagi ijobiy o‘zgarishlarni kuzatish, rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda o‘quv jarayonini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan tanqidiy fikrlashni baholash rivojlantiruvchi ta'limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi [6, 54-b.].

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashning nazariy asoslari. Ilmiy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash tushunchasi turlicha talqin qilinsa-da, aksariyat tadqiqotchilar uning tarkibiga tahlil qilish, interpretatsiya, dalillarni baholash, mantiqiy xulosa chiqarish va refleksiya kabi komponentlarni kiritadilar. Mazkur komponentlar baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Xususan, P.A. Facione tanqidiy fikrlashni baholashda o‘quvchining tayyor javobni takrorlashi emas, balki fikr yuritish jarayoni, dalillarni tahlil qilishi va xulosalarining asoslanganligi muhim ekanligini ta'kidlaydi [1, 21-b.].

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashda asosiy e'tibor o‘quvchining yakuniy javobiga emas, balki uning fikrlash jarayoniga qaratilishi lozim. An'anaviy baholash tizimida ko‘pincha javobning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi mezon sifatida olinadi. Biroq tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim jarayonida o‘quvchining muammoni qanday tahlil qilgani, dalillarni qanday tanlagani, qaror qabul qilishda

qanday mantiqiy asoslardan foydalangani ham baholashning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shu sababli baholash mezonlari o‘quvchining fikrlash faoliyatini har tomonlama aks ettirishi zarur [8, 71-b.].

Tanqidiy fikrlashni baholashning metodik yondashuvlari kompetensiyaviy ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra baholash ta'lim yakunida amalga oshiriladigan alohida jarayon emas, balki o‘qitish va o‘rganishning uzluksiz tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash natijalari o‘quvchilarning erishgan yutuqlarini aniqlash bilan bir qatorda, o‘qituvchiga keyingi darslarni rejalashtirish, topshiriqlarni differensiallashtirish va metodik faoliyatni takomillashtirish imkonini ham beradi [6, 59-b.].

Mazkur yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda formatif baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Formativ baholash dars davomida muntazam ravishda amalga oshiriladi hamda o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi. O‘qituvchi savol-javob, kuzatish, kichik guruhlardagi muhokamalar, yozma izohlar, refleksiya hamda og‘zaki fikr bildirish jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi haqida zarur ma'lumotlarni to‘playdi. Olingan natijalar asosida keyingi topshiriqlar murakkabligi, o‘qitish strategiyasi va o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan metodik yordam belgilanadi [9, 83-b.].

Summativ baholash esa ma'lum bir mavzu yoki bo‘lim yakunida o‘quvchining erishgan natijalarini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq tanqidiy fikrlashni baholashda summativ nazorat faqat test topshiriqlari bilan cheklanmasligi lozim. Ochiq javobli savollar, muammoli vaziyatlar, loyihalar, esse, taqdimot va munozaralar orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini yanada obyektiv baholash mumkin. Ayniqsa, ingliz tili darslarida kommunikativ vazifalarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchining nafaqat til kompetensiyasini, balki tanqidiy fikrlash darajasini ham namoyon etadi [7, 55-b.].

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashda aniq mezon va indikatorlardan foydalanish muhim metodik talab hisoblanadi. Baholash mezonlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hamda o‘quv maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqilishi zarur. Tahlillar asosida 5–9-sinf o‘quvchilari uchun quyidagi asosiy indikatorlarni ajratish mumkin:

– muammoni aniqlash va tushunish;

– axborotni tahlil qilish va saralash;

– dalillarning ishonchliligini baholash;

– turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash;

– asoslangan xulosa chiqarish;

– o‘z fikrini mantiqiy va dalillar asosida himoya qilish;

– refleksiya va o‘z faoliyatini baholash [1, 24-b.].

Mazkur indikatorlar tanqidiy fikrlashning barcha asosiy komponentlarini qamrab oladi hamda o‘quvchilarning rivojlanish darajasini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir indikator bo‘yicha past, o‘rta va yuqori darajalarni tavsiflovchi rubrikalarni ishlab chiqish baholashning ishonchliligi va shaffofligini oshiradi [4, 33-b.].

Baholash mezonlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim metodik tamoyillardan biridir. 5–6-sinf o‘quvchilari uchun baholash ko‘proq axborotni tushunish, oddiy taqqoslash va dastlabki xulosalar chiqarishga qaratilishi lozim. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning muammoni anglay olishi, asosiy g‘oyani ajrata olishi va sodda dalillar keltira olishi asosiy mezonlar sifatida qaraladi [10, 91-b.].

7–9-sinf o‘quvchilarida esa tanqidiy fikrlash nisbatan yuqori bosqichga ko‘tariladi. Shu sababli baholash jarayonida ularning muqobil fikrlarni qiyoslay olishi, dalillarning ishonchliligini tahlil qilishi, muammoga bir nechta yechim taklif eta olishi hamda o‘z qarashlarini mantiqiy asoslay olishi alohida e'tiborga olinishi zarur. Bunday

yondashuv o‘quvchilarning yosh va kognitiv rivojlanish xususiyatlariga mos keladi hamda baholash natijalarining obyektivligini ta'minlaydi [2, 68-b.].

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholash metodikasining samaradorligi, avvalo, baholash topshiriqlarining maqsadga muvofiq ishlab chiqilishiga bog‘liq. Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan topshiriqlar o‘quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki ularning fikrlash jarayonini ham namoyon etishi zarur. Shu sababli baholash topshiriqlari o‘quvchilarni tayyor javobni takrorlashga emas, balki muammoni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil yechimlarni taqqoslash va asoslangan xulosalar chiqarishga undashi lozim [8, 74-b.].

Mazkur maqsadga erishishda autentik matnlar, videolavhalar, infografikalar, ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan qisqa xabarlar, reklama materiallari hamda real hayotiy vaziyatlar asosida tuzilgan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga bir mavzu bo‘yicha ikki xil maqola yoki videomaterial taqdim etilib, ulardan mualliflarning asosiy g‘oyalarini aniqlash, dalillarining ishonchliligini baholash, o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish hamda o‘z munosabatini asoslash talab etiladi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilarning o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish kompetensiyalari bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash darajasi ham baholanadi [7, 61-b.].

Baholash topshiriqlarini ishlab chiqishda Bloom taksonomiyasining yangilangan modeli muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday topshiriqlarda baholash mezoni faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki o‘quvchining fikrlash sifati ham hisobga olinadi [10, 95-b.].

Tanqidiy fikrlashni baholashda analitik rubrikalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Analitik rubrika o‘quvchining faoliyatini bir nechta mezon asosida baholash imkonini beradi. Har bir mezon bo‘yicha yuqori, o‘rta va boshlang‘ich darajalar tavsiflanishi baholashning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi [4, 35-b.].

Dissertatsiya mavzusi doirasida olib borilgan metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholash faqat dars yakunida amalga oshiriladigan nazorat bilan cheklanmasligi lozim. Baholash o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida uzluksiz olib borilishi zarur. Dars boshida diagnostik baholash o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Dars davomida formatif baholash o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatishga xizmat qiladi. Dars yakunida esa summativ baholash orqali o‘quvchilarning erishgan natijalari umumlashtiriladi va keyingi ta'lim jarayonini rejalashtirish uchun zarur xulosalar chiqariladi [6, 63-b.].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili darslarida baholashning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda loyiha ishlari, munozaralar, esse, taqdimotlar va portfolio kabi zamonaviy baholash vositalaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. [9, 86-b.].

Baholash jarayonida o‘quvchilarga konstruktiv teskari aloqa (feedback) berish muhim metodik talablardan biri hisoblanadi. Teskari aloqa faqat baho qo‘yish bilan cheklanmasdan, o‘quvchining kuchli tomonlarini ko‘rsatish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni izohlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni ham o‘z ichiga olishi zarur [11, 148-b.].

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida 5–9-sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholash ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim metodik omillardan biridir. Mazkur kompetensiyani baholash o‘quvchilarning tayyor bilimlarni qayta aytib berish darajasini emas, balki axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, muammolarni hal etish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois baholash jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, formatif va summativ baholashning o‘zaro uyg‘unligini ta'minlash, analitik rubrikalar hamda aniq indikatorlardan foydalanish metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Facione P.A. *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts.* 7th ed. Insight Assessment, 2020.

2. Halpern D.F. *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking.* 6th ed. Routledge, 2020.

3. Paul R., Elder L. *The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools.* Foundation for Critical Thinking Press, 2020.

4. Assessing Competencies for 21st Century Skills. Dordrecht: Springer, 2012.

5. The ABC of Assessment. Routledge, 2008.

6. Ennis R.H. *Critical Thinking Across the Curriculum: A Vision.* Topoi, 2018.

7. Facione N.C., Facione P.A. *Critical Thinking and Clinical Judgment.* Insight Assessment, 2008.

8. OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework.* Paris: OECD Publishing, 2023.

9. Anderson L.W., Krathwohl D.R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing.* Longman, 2001.

10. Embedded Formative Assessment. Solution Tree Press, 2017.

ZAMONAVIY MAKTABDA ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA O'QITISHNING YANGI YONDASHUVLARI VA USULLARI

Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.

g.matmuratova@ndpi.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy maktabda etnopedagogik qadriyatlar asosida o'qitishning yangi yondashuvlari va uslublariga bag'ishlangan. Axborot texnologiyalari dars o'qitish samaradorligi, darsga dinamizm va ta'sirchanlik berish ham da axborot tarkibini oshiradi.*

Kalit so'zlar*: metodika, o'qitish, zamonaviy maktab.*

Аннотация: *Данная статья посвящена новым подходам и методам обучения на основе этнопедагогических ценностей в современной школе. Информационные технологии повышают эффективность обучения, придают уроку динамизм и действенность, а также информационный состав.*

Ключевые слова*: методика, обучение, современная школа.*

Abstract*: This article is dedicated to new approaches and methods of teaching based on ethnopedagogical values in modern schools. Information technologies increase the effectiveness of lesson teaching, give the lesson dynamism and effectiveness, and increase the information content.*

Keywords: *methodology, teaching, modern school.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvchi, muloqotga kirisha oladigan va ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida

etnopedagogik qadriyatlar orqali bu ko‘nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi XXI asr bilan yangi tendentsiyalar paydo bo'ldi va ta'limda azaliy muammolarga yangi yondashuvlar paydo bo'ldi: qanday va nimani o'rgatish kerak, yangi pedagogik texnologiyalar, texnikalar, usullar, o'qituvchi va o'qimishli odam, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarga yangi qarashlar. Bugungi kunda o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirish, bilish jarayonida ma'lumotni izlash, o'zlashtirish, qayta ishlash va qo'llash usullariga qiziqishni shakllantirish ayniqsa muhimdir, zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyoda bu maktab o'quvchilariga o'rganish predmeti bo'lishiga, osonlikcha harakatlanishiga imkon yaratadi.

Tahliliy yondashuv. Maktabda zamonaviy o'qitish o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini pasaytirish muammosiga duch kelmoqda. Bunday maktab predmetini uzoq vaqtdan beri eng qiyin deb tasniflangan.

Zamonaviy maktablarda kompyuterlar, internetga kirish va boshqalar mavjud. Bu yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishga hissa qo'shadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini oqilona tashkil etish, yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi:

• Muammoli ta'lim.

• Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

• Tadqiqot va loyihalash faoliyati.

• Interfaol mashg'ulotlar.

• ijodiy muammolarni hal qilish.

An'anaviy o'qitish, o'quvchilarga bilimlar tizimini taqdim etadi va xotirani rivojlantiradi, lekin fikrlash qobiliyatini, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga unchalik mo'ljallanmagan. [1]

An’anaviy dars uslublari o‘rnida noan’anaviy, ya’ni interfaol va ijodiy yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan

qiziqishini oshiradi, ularni faollikka undaydi hamda o‘z fikrini erkin ifoda eta olishga o‘rgatadi. Noan’anaviy usullar — bu o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, mustaqil fikrlashga undash, muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik vositalardir. Ular orqali an’anaviy biryoqlama “o‘qituvchi–o‘quvchi” modeli o‘rniga, ikki tomonlama interaktiv muloqotga asoslangan, erkin fikr almashish, guruhlarda ishlash, rolli harakatlar orqali o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Aynan boshlang‘ich sinfda bu kabi usullar o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga mos keladi, ularning bilim olish jarayonini o‘yin va ijodiy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Muammoli o'qitish bu kamchiliklarni bartaraf qiladi, u aqlni faollashtiradi, o`quvchi faoliyati va bilishga qiziqishini shakllantiradi. Muammolarni bayon qilish xususiyatiga qarab, vaziyatlarning bir nechta turlari mavjud. Yangi materialni tushuntirish jarayonida esa, ko'pincha nomuvofiqlik va kutilmagan vaziyatlardan foydalanish ancha samarali.

Muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish darsda talabalarning ijodiy fikrlash faoliyati uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Katta hajmdagi o'quv materialini ma'nosiz yodlashga hojat yo'q. Uy vazifasini tayyorlash vaqti qisqaradi, chunki o'quv materialining asosiy qismi darsda o'zlashtiriladi.

Amaliy tavsiyalar. Sinfdagi o'quvchilarning bilim faoliyati darajasi o'qituvchi darsda qanday usullarni qo'llaganiga bog'liq. Etnopedagogik qadriyatlar asosida muammoli o'qitish o'quvchilarning o'quv-bilish kompetentsiyasining motivatsion tarkibiy qismining paydo bo'lishini ta'minlaydigan eng muhim pedagogik texnologiyalardan biri sifatida ishlaydi.

Ushbu texnologiya nostandart tabiati bilan barchani o'ziga jalb qiladi, o’quvchilarga katta amaliy imkoniyatlar ochadi, ijodkorlikni rivojlantirishga, o'quvchilarning sinfdagi passivligini yengishga va mavzu bo'yicha bilim sifatini oshirishga yordam beradi.

Ushbu texnologiyadan foydalanganda o`quvchilarni nafaqat ta'lim standartlarini o'zlashtirishga, balki yuqori darajaga ko'tarilishga imkon beradigan bilimlarni tuzatish va ularning darajalarini farqlash printsipini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Har bir darsni shu tarzda qurmoq kerak-ki, materialni o'zlashtirish 3 darajaga to'g'ri kelsin: reproduktiv, konstruktiv va ijodiy.

Etnopedagogik qadriyatlar asosida o'qitishda kompyuter texnologiyalari quyidagilarni taklif qiladi.

-o'quv materialini o'rganishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish;

- o'qituvchilarning kundalik o'quv ishlari vositasi sifatida kompyuterlardan intensiv foydalanish;

-fanning boshqa fanlar bilan fanlar aro aloqalarini amalga oshirish

- o'quv telekommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida o`quvchilarning mustaqil izlash va tadqiqot ishlari uslublarini ishlab chiqish;

- kollektiv muammolarni hal qilish orqali o`quvchilarni o'qitish;

- Internetdan foydalangan holda o'rganilayotgan material doirasida ma'lumotlarni qidirish va qayta ishlash;

- muammolarni hal qilish uchun elektron jadvallardan foydalanish;

- virtual mashg'ulotlar o'tkazish;

- o'qituvchilarni o'qitishning yangi mazmuni, yangi usullari va tashkiliy shakllari bilan ishlashga tayyorlash. [2]

Kompyuter aloqasi markazlashgan ma'lumotlar banklarida saqlanadigan deyarli cheksiz hajmdagi ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Bu o'quv jarayonini tashkil qilishda "axborot jamiyati" aholisi uchun mavjud bo'lgan barcha bilimlar zahirasiga tayanishga imkon beradi.

Xulosa. O'quv jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish o'qitish metodikasini o'zgartiradi, an'anaviy metodlar va usullar bilan bir qatorda sinfda vizual tasvirlarni yaratishga hissa qo'shadigan jismoniy jarayonlarni, animatsiyani, shaxsiy

kompyuterni modellashtirishdan foydalanishga imkon beradi. Mohiyat darajasida, bilimlarning fanlararo integratsiyasi, fikrlashning ijodiy rivojlanishi, o'quvchilarning ta'lim faoliyatini faollashtirishadi, o‘qitishning interfaol metodlari va samarali texnologiyalarini qo‘llash, eng muhimi, o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvi ta’lim oluvchilarning intellektual faolligini rag‘batlantiradi, talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Выготский Л.С. Мишление и речъ.-Москва:Лабиринт,1999.-352б

2. Axmedova M.Boshlangich sinflarda o`qitish metodikasi.-T.O`qituvchi,2018.-280b

3. ДМ Курбанбаева, ТА Есемуратова, ГК Матмуратова - Интерактивные методы и технологии обучения, направленные на творческое взаимодействие. Вестник науки и образования, 2020. 13-1 (91). Стр 76-80. Издатель ООО «Олимп»

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA ONA TILI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Rahmatilloyeva Dilnoza Izzat qizi
Osiyo xalqaro universiteti talabasi
rahmatilloyevadilnoza@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili ta'limi jarayoniga integratsiyalashuvi masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy AI vositalari — chatbotlar, matnni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar, nutqni tanish tizimlari va adaptiv o'quv platformalari orqali o'quvchilarning lingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining afzalliklari, ulardan foydalanishning pedagogik-metodik asoslari hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Xulosa qismida ona tili darslarida AI texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ona tili ta'limi, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, lingvistik kompetentsiya, chatbot, nutqni tanish tizimlari, ta'lim texnologiyalari, individuallashtirilgan ta'lim, AI vositalari.*

Аннотация*. В данной статье анализируются вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта в процесс обучения родному языку. Раскрыты возможности развития лингвистических компетенций учащихся посредством современных AI-инструментов — чат-ботов, программ автоматического анализа текста, систем распознавания речи и адаптивных образовательных платформ. В исследовании освещены преимущества образовательных инструментов на основе искусственного интеллекта,*

педагогико-методические основы их использования, а также существующие проблемы и пути их решения. В заключительной части даны практические рекомендации по эффективному использованию AI-технологий на уроках родного языка.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение родному языку, цифровое образование, адаптивное обучение, лингвистическая компетенция, чат-бот, системы распознавания речи, образовательные технологии, индивидуализированное обучение, AI-инструменты.*

Annotation. *This article analyzes the integration of artificial intelligence technologies into the process of native language education. It reveals the possibilities of developing students' linguistic competencies through modern AI tools — chatbots, automated text analysis programs, speech recognition systems, and adaptive learning platforms. The study highlights the advantages of AI-based educational tools, the pedagogical and methodological foundations of their use, as well as existing challenges and ways to overcome them. The conclusion provides practical recommendations for the effective use of AI technologies in native language lessons.*

Key words: *artificial intelligence, native language education, digital education, adaptive learning, linguistic competence, chatbot, speech recognition systems, educational technologies, individualized learning, AI tools.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining tobora kengroq qo'llanilishi pedagogik jarayonlarning mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ona tili ta'limi — o'quvchining nafaqat lingvistik, balki kognitiv va ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta'minlovchi fan sifatida alohida ahamiyatga ega. Ayni

paytda an'anaviy o'qitish metodlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini to'liq qondira olmaslik, nutq va yozma malakalarni rivojlantirishda vaqt va resurs cheklovlariga duch kelish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalari samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, AI texnologiyalari o'quvchining individual bilim darajasi, o'rganish sur'ati va ehtiyojlariga moslashuvchi ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi, bu esa ona tili ta'limi sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili ta'limi jarayoniga integratsiyalashuvi imkoniyatlarini, pedagogik-metodik asoslarini hamda amaliy qo'llanilish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Asosiy qism

1. Ona tili ta'limida sun'iy intellektning nazariy-metodologik asoslari

Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) — inson tafakkuriga xos bo'lgan vazifalarni (til tushunish, matn generatsiyasi, tahlil qilish, qaror qabul qilish) bajarishga qodir kompyuter tizimlarini anglatadi. Ta'lim sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi "AI in Education" (AIEd) yo'nalishi sifatida shakllangan bo'lib, u o'quv jarayonini individuallashtirish, baholashni avtomatlashtirish va o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ona tili ta'limida sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy asosi sifatida quyidagi pedagogik yondashuvlarni ko'rsatish mumkin:

- Konstruktivistik yondashuv — o'quvchi bilimni AI vositasi bilan interaktiv muloqot orqali mustaqil quradi;
- Adaptiv ta'lim nazariyasi — har bir o'quvchining bilim darajasiga mos o'quv materiallarini taqdim etish;
- Differensial ta'lim — turli qobiliyatli o'quvchilarga individual yondashuv.

2. Ona tili darslarida qo'llaniladigan AI vositalari

Zamonaviy sun'iy intellekt vositalarining ona tili ta'limidagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) Matnni avtomatik tahlil qiluvchi tizimlar. Bunday tizimlar o'quvchi yozgan insho, bayon yoki mustaqil ish matnidagi grammatik, uslubiy va mantiqiy xatolarni aniqlab, tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu o'qituvchining har bir ishni qo'lda tekshirish yukini kamaytiradi va o'quvchiga tezkor teskari aloqa (feedback) berish imkonini yaratadi.

b) Suhbat-botlar (chatbotlar). O'quvchi bilan tabiiy tilda muloqot qiluvchi AI-botlar ona tili qoidalarini mashq qildirish, savol-javob tarzida bilimlarni mustahkamlash, so'z boyligini oshirish uchun qo'llaniladi.

c) Nutqni tanish va sintez qiluvchi tizimlar. Bu vositalar o'quvchining talaffuzini tahlil qilib, orfoepik xatolarni aniqlashga va to'g'ri talaffuzni shakllantirishga yordam beradi.

d) Adaptiv o'quv platformalari. Bunday platformalar o'quvchining har bir topshiriqni bajarish natijasiga qarab keyingi materiallarning murakkablik darajasini avtomatik moslashtiradi, bu esa individuallashtirilgan ta'lim traektoriyasini shakllantiradi.

e) Matn generatsiyasi vositalari. O'quvchilarga turli janrdagi matn namunalarini yaratish, ijodiy yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun misol matnlar taqdim etadi (o'qituvchi nazorati ostida).

3. AI texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-metodik afzalliklari

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ona tili ta'limiga tatbiq etish quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Individuallashtirish — har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasiga mos yondashuv;

2. Tezkor teskari aloqa — xatolarni darhol aniqlash va tuzatish imkoniyati;

3. Vaqtni tejash — o'qituvchining rutina ishlarini (test tekshirish, baholash) avtomatlashtirish;

4. Motivatsiyani oshirish — interaktiv va o'yinlashtirilgan (gamification) elementlar orqali o'quvchi qiziqishini kuchaytirish;

5. Ma'lumotlarga asoslangan tahlil — o'quvchi progressini kuzatib borish va statistik tahlil qilish imkoniyati.

4. Muammolar va cheklovlar

Bir qator afzalliklarga qaramay, AI texnologiyalarini ona tili ta'limiga tatbiq etishda quyidagi muammolar mavjud:

- Ta'lim muassasalarida texnik infratuzilma va internet ta'minotining yetishmasligi;
- O'qituvchilarning raqamli-pedagogik kompetentsiyasi darajasining pastligi;
- Ona tilining milliy-madaniy xususiyatlarini (frazeologizmlar, o'zbek tilidagi nozik ma'no farqlari) AI tizimlari tomonidan to'liq tushunilmasligi;
- O'quvchilarning AI vositalariga haddan tashqari bog'liq bo'lib qolish xavfi, bu mustaqil fikrlash va ijodiy yozuv ko'nikmalarining susayishiga olib kelishi mumkin;
- Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari.

5. Amaliy tatbiq etish yo'llari

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va AI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

- AI vositalarini "yordamchi vosita" sifatida, o'qituvchi faoliyatini to'liq almashtiruvchi emas, balki uni to'ldiruvchi element sifatida qo'llash;

- O'qituvchilar uchun raqamli kompetentsiyani oshirish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- Milliy tilning o'ziga xosligini hisobga oluvchi mahalliylashtirilgan (localized) AI-vositalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- Darslarda AI bilan ishlash qoidalarini (akademik halollik, mustaqil fikrlash ustuvorligi) o'quvchilarga tushuntirish;
- Aralash ta'lim (blended learning) modeli asosida an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ona tili ta'limi jarayoniga integratsiyalashuvi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, AI vositalari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan, tezkor teskari aloqaga ega va motivatsiyani oshiruvchi ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni joriy etishda texnik, metodik va madaniy xususiyatlarga bog'liq bir qator muammolar mavjudligini ham inobatga olish zarur.

Sun'iy intellektdan ona tili darslarida samarali foydalanish uchun uni o'qituvchi faoliyatini to'ldiruvchi vosita sifatida, pedagogik nazorat ostida, milliy til va madaniyat xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash lozim. Kelgusi tadqiqotlarda AI texnologiyalarining o'zbek tili ta'limiga moslashtirilgan modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini amaliy sinovdan o'tkazish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.
3. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

4. Тожиев М.Қ. Замонавий таълим технологиялари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020.

5. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент, 2006.

6. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

7. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L.B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson, 2016.

8. Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. – International Journal of Educational Technology in Higher Education, 2019.

9. Baker T., Smith L. Educ-AI-tion Rebooted? Exploring the future of artificial intelligence in schools and colleges. – Nesta Foundation, 2019.

10. Chen X., Xie H., Hwang G.J. A multi-perspective study on Artificial Intelligence in Education. – Computers and Education: Artificial Intelligence, 2020.

11. Xie H., Chu H.C., Hwang G.J., Wang C.C. Trends and development in technology-enhanced adaptive/personalized learning. – Computers & Education, 2019.

12. Nazarova G.A. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ta'lim sifatini oshirish. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021.

13. Karimov I.A. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar. – Samarqand, 2021.

14. Тўраев Б.О. Она тили таълими методикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.

15. Sattorov A.E. Ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

16. Popenici S., Kerr S. Exploring the impact of artificial intelligence on teaching and learning in higher education. – Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 2017.

17. UNESCO. AI and education: Guidance for policy-makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

18. Kasneci E. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. – Learning and Individual Differences, 2023.

19. Ergashev I.T. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish: muammo va yechimlar. – Toshkent, 2022.

20. Rahimov Sh.T. Lingvodidaktika va zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Buxoro: BuxDU, 2022.

21. Абдуллаева Ш.Р. Она тили дарсларида инновацион методлар. – Тошкент: Ilm-ziyo, 2021.

22. Islamov Z.M. Raqamli ta'lim muhiti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2023.

TEZ AYTISHLAR - BOLA TILINI O‘STIRISHNING TARBIYAVIY VOSITASI SIFATIDA

Matmuratova Gulistan Kamalatdinovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

g.matmuratova@ndpi.uz

Аннотация. *Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq pedagogikasida tez aytishlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Tez aytishlarning bolalar talaffuzini to‘g‘rilash, lug‘at boyligini oshirish, xotirasini mustahkamlash, tafakkurini rivojlantirish hamda axloqiy-estetik tarbiyani shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydigan tez aytishlarning mazmuni va tarbiyaviy imkoniyatlari misollar asosida tahlil qilinib, ularni maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq xalq pedagogikasi, tez aytish, og‘zaki xalq ijodi, nutq rivoji, talaffuz, lug‘at boyligi, bolalar tarbiyasi, estetik tarbiya, xotira, tafakkur, milliy qadriyatlar.*

Аннотация. *В статье раскрывается педагогическое значение скороговорок в каракалпакской народной педагогике. Рассматривается их роль в развитии правильного произношения, расширении словарного запаса, совершенствовании памяти, мышления и коммуникативных навыков детей. На основе образцов каракалпакского устного народного творчества анализируются воспитательные возможности скороговорок и их значение в формировании*

нравственных и эстетических качеств личности. Обосновывается целесообразность использования скороговорок в дошкольном и начальном образовании.

Ключевые слова: *каракалпакская народная педагогика, скороговорки, устное народное творчество, развитие речи, произношение, словарный запас, воспитание детей, память, мышление, эстетическое воспитание, национальные ценности.*

Abstract. *This article examines the pedagogical significance of tongue twisters in Karakalpak folk pedagogy. It analyzes their role in improving children's pronunciation, enriching vocabulary, developing memory, thinking skills, and communicative competence. Based on examples from Karakalpak oral folklore, the educational potential of tongue twisters in fostering moral and aesthetic values is discussed. The study also highlights the effectiveness of using tongue twisters in preschool and primary education as a means of developing children's speech culture and preserving national cultural heritage.*

Keywords*: Karakalpak folk pedagogy, tongue twisters, oral folklore, speech development, pronunciation, vocabulary, children's education, memory, thinking, aesthetic education, national values.*

Kirish. Qaysi bir xalqning adabiy merosi, tarixiga nazar tashlamaylik, ular yaratgan noyob xalq ijodiyoti yoshlar tarbiyasida muhim tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: "Milliy g‘oyaning yana bir ulkan ahamiyati shundan iboratki, u millatimizning, xalqimizning o‘zligini anglashiga, o‘zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo‘qotmasdan ularni qayta tiklab, asrab-avaylab, qadrlab yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishdir." [1]

Qoraqalpoq xalqi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan o‘ziga xos urf-odat an’analari, tarbiya haqidagi g‘oyalarni, hayotiy tajribasi xalq pedagogikasida bayon etilgan. Qoraqalpoq xalqining og‘zaki ijodi janrlaridagi maqol-matal, topishmoq, tez aytish, afsona, dostonlarida har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi, do‘stlik, qarindoshlik, mardlik, Vatanparvarlik ota-onaning, qarindoshlarning, o‘zaro totuvligi, farzandlarining izzat-hurmati, insonning eng yaxshi fazilatlari jamlangan. [2]

Ayniqsa, bolani kichkina vaqtidan toza to‘g‘ri gapirishga, ularning so‘z boyligini boyitishda tez aytishlarning o‘rni katta.

Tahliliy yondashuv. Tez aytish og‘zaki adabiyotning boshqa janrlari kabi juda qadimgi davrlardan kelayotgan asar bo‘lib, uzoq yillar davomida xalq orasida katta qiziqish bilan aytilib kelinadi. [3] Ular faqat qoraqalpoq og‘zaki ijodida emas, balki butun dunyo xalqlari folklorida mavjud janr. Tez aytishlarning asosiy maqsadi so‘z o‘yini ekani ma’lum bo‘lib, qiyin so‘zlarni qiyin harflarni tez aytish bilan aytilayotgan so‘zlarni chalkashtirish orqali bolalarda qirg‘in kulgi paydo qiladi. Undagi maqsad so‘zni to‘g‘ri eshitish, to‘g‘ri aytish shart bo‘lgan. Agar bola so‘zni to‘g‘ri ayta olmasa qattiq masxara etilib kulgiga olgan. Tez aytishlar orqali bolalarning tez va to‘g‘ri gapirishga erishishi ba’zan o‘sha o‘yinning natijasidayoq paydo bo‘lgan. Tez aytish so‘zi o‘zining aytilayotganidek "yengil," "yanglishtirish" shuning bilan birga yanglishmay aytish degan ma’noni anglatgan. Tez aytishni aytish orqali bolaning tili o‘rganib tovushlarni, harflarni to‘g‘ri va toza gapirishga o‘rgatsa, ikkinchidan, bolaning xotirasini rivojlantirishga, uchinchidan, bola so‘z o‘yinida qatnashib kulgiga aralashib estetik zavq olishga qaratiladi. Oilada tili chiqqan bolalarning bir guruhi "R," "S" harflarini ayta olmay yuradigan, sho‘x bolalar ko‘p uchraydi shuning uchun qiyin so‘zlarni, tovushlarni o‘rganishda ular uchun tez aytishning o‘rni juda katta bo‘lgan. Bolalar orasida o‘qishdan past o‘qiydigan yoki erka bolalarni masxara qilish ma’nosida aytilib ta’lim beruvchi tez aytishlarni ham ko‘plab uchratish mumkin. [4]

Masalan:

O‘qishga dangasalar,

Faqat kitobni varaqlar,

Darsga aloqalari,

Dalada dalalar,

"R" harfini ayta olmay,

"I" deb qo‘yadilar

Qoraqalpoq xalq pedagogikasida "R," "Q," "G‘" tovushlariga qurilgan tez aytish namunalarining quyidagi turlari uchraydi.

Qirda qirq qirg‘ovul,

Qirq qirg‘ovul ichida,

Qirq yil qisir qolgan,

Qizil qildumli qirg‘ovul

YOKI

Eshikning oldi qora barak,

Qorabaraqning narigi tomoni,

Qora baroq,

Hamma qora qashqa buzoqni,

Qora qorabaraqlantirishga olib boryapti,

Men ham qora qashqa buzoqchamni,

Qorabaraqlantirishga olib boryapman.

Bu misollarda "R" tovushi faol qo‘llanilib, "Q," "G‘" tovushlarida bola tilining yotlashishi uchun qo‘shimcha juftlanib keladi. Agar bola tez aytish qatorlaridagi "Q," "R," "G‘" tovushlarini tez, chaqqon, aniq ayta olmasa, u cho‘ljin deb ataladi. Bola bu yomon otga ilinmaslik uchun kurashib, tez aytishni adashmay aytishga intiladi.

Shuningdek, tez aytishlarda birgalikdagi so‘z birikmalarining takrorlanib kelishi bolalarning tovushlarni to‘g‘ri, aniq aytishini ta’minlash bilan birga ularning xotira qobiliyatini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Shahardan olganim olti arava qovoq,

Olti arava qovoqqa qo‘shganim,

Targ‘il ola yassi shox,

Oq bo‘ksa buzoq, oq bo‘ksa buzoq.

YOKI

Odamga so‘k cho‘pchittirmasdan,

So‘k cho‘pchittirmasa ham

Ko‘p cho‘pchittirmasin.

Tez aytishlar bolalarning tilini rivojlantirish bilan birga ularni har tomonlama tarbiyalashda muhim vosita bo‘la oladi. Odamlar o‘rtasidagi munosabat, muomala, ta’lim-tarbiya haqida ham ko‘plab tez aytishlar bor. Ular bolaning tilini o‘rgatish bilan bir qatorda yoshlarni odob-axloqli bo‘lishga o‘rgatadi.

Bizning uyning quyosh nurida,

Quyosh nuri shunda

Oftobda toblanmasang ham

Quyoshlanmasang ham,

Quyoshlanasan.

Amaliy tavsiyalar. Tez aytishlar bolalarning so‘zlashuv tilini chiniqtirish uchun ishlagan xalq pedagogikasidagi ta’sirchan usullardan biri. U faqat tilni yodlatish bilan cheklanmay, tez tushunib yodlab olish bo‘yicha ko‘nikmalar ham beradi. Bola tilini o‘rgatish uchun uni sho‘xlikdan saqlash bilan birga xalq leksikasining lug‘at fondini, tarkibini o‘rgatadi, so‘z boyligini kuchaytiradi. Ushbu tez aytishlar orqali yosh avlod ijtimoiy hodisalarni tanishga, tabiatni sevishga, o‘ylab gapirishga, so‘zni aniq, dona-dona, yoqimli, o‘tkir aytishga shakllanadi.

Xulosa. Umuman aytganda tez aytish oilada, maktabda bolalarning so‘z o‘yini uchun kerakli tovushlarni takrorlab, xotirani yodlatish uchun yaratilgani o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 71.
2. Qalliev S. *Qoraqalpoq xalq pedagogikasi.* – Nukus: Bilim, 2014.b-75
3. Volkov G.N. *Народная педагогика.* – M., 1974. B-86
4. Esemuratova T.A. Xalq og ‘zaki ijodi namunalari asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining ma’naviy ehtiyojini shakllantirishning shart-sharoitlari jurnal Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал №12.3 b-103

YOSH AVLODNI AXLOQIY TARBIYALASHDA OTA-ONANING ROLI

Esemuratova Turganbike Aytmuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.

t.esemuratova@ndpi.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh avlodni axloqiy tarbiyalashda oilaning, xususan ota-onaning tutgan o‘rni xalq pedagogikasi va milliy qadriyatlar asosida tahlil qilingan. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati, oilaviy tarbiya, milliy urf-odatlar, odob-axloq me’yorlari, xalq og‘zaki ijodi hamda islomiy qadriyatlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy kamolotiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bolalarda odob, hurmat, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda oilaviy muhitning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, ota-ona, xalq pedagogikasi, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, odob, ma'naviyat, yosh avlod, oilaviy tarbiya.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль семьи и родителей в нравственном воспитании молодого поколения на основе народной педагогики и национальных ценностей. Анализируются ответственность родителей за воспитание детей, значение семейного воспитания, национальных традиций, норм поведения, устного народного творчества и исламских духовно-нравственных ценностей в формировании личности ребенка. Особое внимание уделяется педагогическому значению семейной среды в воспитании уважения, трудолюбия, милосердия, патриотизма и высокой духовной культуры.*

Ключевые слова: *семья, родители, народная педагогика, нравственное воспитание, национальные ценности, традиции, семейное воспитание, духовность, молодежь, культура поведения.*

Abstract. *This article examines the role of parents and the family in the moral education of the younger generation based on the principles of folk pedagogy and national values. It analyzes parental responsibility in child upbringing, the importance of family education, national traditions, moral norms, oral folk heritage, and Islamic values in the formation of children's moral character. The study emphasizes the pedagogical significance of the family environment in developing respect, kindness, diligence, patriotism, and spiritual maturity among children.*

Keywords: *family, parents, folk pedagogy, moral education, national values, traditions, family upbringing, spirituality, younger generation, ethical values.*

Kirish. Davlatimiz ta’lim-tarbiya sohasida milliy odob-axloqni qayta tiklashda milliy urf-odatlar, turli an’analarni o‘z o‘rniga qo‘yish, milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish borasida bir qancha o‘zgarishlar bo‘layotgani hammaga ma’lum. Mamlakatning buyuk kelajagi bo‘lgan yosh avlodni chuqur bilimli va albatta axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog‘liq ekanini unutmasligimiz kerak.

Inson ona qornidan yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi uning yaxshi yoki yomonga aylanishi tarbiyadan, eng avvalo ota-ona, mahalla, qolaversa, jamiyat tuzumiga bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Bunda ajdodlarimiz qoldirgan meros - oila pedagogikasi, shuningdek, urf-odat, an’analar, qadriyatlar, jamiyatning bu sohadagi barcha sa’y-harakatlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Xalq orasida bolani yoshligidan to‘g‘ri tarbiyalasa kelajakda u yaxshi inson bo‘lib yetishadi degan gap bor. Haqiqatan ham "Bolani boshdan" maqoliga amal qilish xalq pedagogikasining asosiy yo‘nalishlaridan

biri. Shuning uchun xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya’ni birinchi, ikkinchisi bo‘lmaydi, hamma narsa e’tibordan chetda qolmasligi, aynan shu vaqtda nozik, murakkab tomonlarini e’tiborga olgan holda yetti o‘lchab bir kesishga amal qilinadi. Yana xarakterli joyi xalq tarbiyada kechagi, bugungi va ertangi kunini o‘ylab ish tutadi, ya’ni tarbiyani o‘tmishni unutmaslik, bugungi kunning qadriga yetish, kelajakka ishonch bilan qarash asosida olib boriladi.

Bunda oilada ota-ona tomonidan axloqiy tarbiyaning rolini ko‘rsatish, bunda ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini milliy-nazariy tahlil qilish muhimdir. [2]

Ota-ona farzandlarining tayanchi. Farzand uchun dunyoda ota-onadan mehribon, aziz hech kim yo‘q. Ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan ulug‘vorliklari ham ana shunda. Ota-onaning pand-nasihati bola uchun muhim bo‘lib, uning mazmuni farzandni nurli manzillarga eltadi, xayrli ishlarga ilhomlantiradi. Bunday baxt-saodatga erishish yo‘li ota-ona tomonidan bolaga to‘g‘ri tarbiya berish, ularni yaxshi muomalaga o‘rgatish, xulq-atvorida esa ana shunday insoniy fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Chunki tarbiya bolalarni yaxshi narsalarga ham, yomon narsalarga ham o‘rgatuvchi jarayon. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi." Shuning uchun ota-onalar bolalar tarbiyasida namuna bo‘lishi kerak. Ular nafaqat so‘zda, balki amalda ham bola ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishi kerak.

"Farzandlaringizni izzat qilish bilan birga odobini ham yaxshilaysiz" (38-hadis).

«Ҳеш бир ата-ана өз перзентине әдеплиликтен артығырақ мийрас бере алмайды» (136-ҳәдис). "Hech bir ota-ona o‘z farzandiga odobdan ortiqroq meros bera olmaydi" (136-hadis). Oila boshlig‘i ham nazariy va amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini chuqur o‘zlashtirishi lozim. Agar oila boshlig‘i tajribasiz bo‘lsa, u o‘z oila a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, pirovard natijada u yaxshi natijalarga erisha olmaydi. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan o‘rnidan qat’i nazar

ularning muqaddas burchidir. Ota-ona davlat rahbari bo‘ladimi, oddiy fuqaro bo‘ladimi, baribir u bola tarbiyasi uchun mas’ul.

Ota-ona tomonidan shaxsni axloqqa tarbiyalash bolaning tug‘ilishidanoq boshlanadi.

Oilada bola dasturxon boshida kattalarning suvga tupurma, non ustiga narsa qo‘yma, kattalarning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangga qo‘pollik qilma, qarindosh-urug‘lar bilan munosabatni uzma kabi odob-axloq normalarini bolaligidan qulog‘iga singdirib boradi.

Xalqimiz odob-axloqi bo‘yicha kattalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o‘tish gunoh hisoblanadi. o‘zidan kattalarni, birinchi navbatda keksa otalarni, nuroniy onalarimizni hurmat qilish, ular uchun qo‘ldan kelgan yordamni ayamaslik xalqimizning an’anaviy qoidasi bo‘lib, ular oilada yoshligidan bolalar ongiga chuqur singdirib boriladi. Ajdodlarimiz an’analariga ko‘ra, yoshlar o‘zlaridan kattalarni ko‘rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat’i nazar, salom berishi, ular bilan hol-ahvol so‘rashi, iltifot ko‘rsatishi kerak.

Islom dini ta’limotida farzand ko‘rgan ota-ona zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

Tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon ayttirish, unga yaxshi ism qo‘yish, kasb-hunar o‘rgatish, uylantirish va h.k.

Tug‘ilgan farzand birinchi farzand bo‘lsa bozordan beshik sotib olinadi. Odatda, beshikni kelinning ota-onasi olib keladi. Qulay, mustahkam, muqaddas bir beshik bir oiladagi o‘n farzandni emas, balki uch-to‘rt avlodni ham tarbiyalab voyaga yetkazishi mumkin. [3]

Beshik bor joyda bola bo‘ladi. Bola bor joyda alla aytiladi. Alla o‘z ohangi bilan bolaga ona mehrini yetkazib turadi, dam olib uxlashiga imkon

beradi. Ona allasi butun tarbiyaviy, didaktik an’ana namunalaridan iborat bo‘lgan.

Bolaga munosib ism tanlash va ism qo‘yish azaliy odat. Xalq orasida odam bolasi o‘z fe’l-atvori nomi bilan ham bilinadi degan gap bor. Ota-onalarning eng muhim burchlaridan biri o‘z farzandlariga munosib ism topib qo‘yishdan iborat.

Bolaga ism qo‘yish mas’uliyatli urf-odat bo‘lib, bu ism bo‘lajak fuqaroning kelajak taqdiri hayot yo‘liga ta’sir qiladi.

Mehmondo‘stlik xalqimizga xos eng qutlug‘, ajoyib an’analardan biri. Xalqimizda "Mehmon otangdan ulug‘" degan hikmatning paydo bo‘lishi bejiz emas. "Mehmon kelmagan uy eng yomon uy" degandek xalqimiz mehmonni boshiga ko‘targandek qilib siylaydi, bor narsasini unga qimtib qo‘yadi. Mehrini to‘kib sochadi.

Oilada bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida ularning uy sharoitida ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga erishish lozim: ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavf, ekologik xavfli muhit, ichimlik suvining ifloslanishi, atmosferaning ifloslanishi, shovqin, tuproq eroziyasi, inson ekologiyasi, ekologik hissiyot, ekologik ong, ekologik mas’uliyat, ekologik faoliyat, ekologik madaniyat. [4]

Bolalarning ota-onalari, shuningdek, ma’lum oilaviy tajribaga ega bo‘lgan yoki ekologik bilimlarga ega bo‘lgan oilaning katta a’zolari oilada bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyat jarayonining faol subyektlari sifatida ishtirok etadilar.

Umuman olganda, yosh avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni katta. Chunki ma’naviyat, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, "insonga ona suti, ota namunasi, avlodlar o‘giti bilan birga singadi." [1] Inson hayotiy tajribasi, bilimi, odob-

axloqi, ish-harakati bilan o‘zining ma’naviy olamini boyitib boradi. Aqliy, axloqiy va jismoniy yetuk bo‘lgan sari u o‘z oldiga turli maqsadlar qo‘yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Insonning borligi uning tanasining borligi bilan emas, balki ruhiy boyligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Volkov G.N. **Etnopedagogika.** – Moskva: Akademiya, 1999.
3. Qalliev S. **Qoraqalpoq xalq pedagogikasi.** – Nukus: Bilim, 2014.
4. Matmuratova G.K. Процесс формирования экологической культуры детей в семье. Журнал Вестник науки 2025/8 том 2. №№8 (89) стр195

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕЙРОСЕТЕЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРЕИМУЩЕСТВА И ПЕРСПЕКТИВЫ

Зленко Нина Владимировна

студентка 3 курса отделения русского языка и литературы

Научный руководитель:

Хошмуратова Инкар Полатовна

ст. преподаватель кафедры русского языка и литературы

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

(Нукус, Узбекистан)

ninazlenko05@gmail.com

Аннотация: *В данной статье исследуется потенциал использования нейросетей в процессе освоения русского языка. В ней проводится анализ преимущественной стороны применения искусственного интеллекта при разработке образовательных ресурсов, тренировке коммуникативных умений и оценке текстовых заданий. Особый акцент делается на трансформации функций педагога в контексте цифровой трансформации учебного процесса. Также охвачены текущие ограничения и будущие направления эволюции ИИ-технологий в сфере образования.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus tilini o‘rganish jarayonida neyrotarmoqlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim resurslarini yaratish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va yozma ishlarni baholashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchining yangi vazifalari, sun’iy*

intellektning afzalliklari, cheklovlari hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Abstract: *This article examines the potential of using neural networks in the process of learning the Russian language. It analyzes the role of artificial intelligence in developing educational resources, improving communication skills, and assessing written assignments. Special attention is paid to the changing role of the teacher in the context of digital transformation of education, as well as to the advantages, limitations, and future prospects of AI technologies in language teaching.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, нейросети, цифровые технологии, образование, русский язык.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, neyrotarmoqlar, raqamli texnologiyalar, ta’lim, rus tili.*

Keywords: *artificial intelligence, neural networks, digital technologies, education, Russian language.*

Стремительное развитие искусственного интеллекта (ИИ) и мощных языковых моделей радикально меняет образовательную сферу, превращая некогда футуристические концепции в реальные рабочие инструменты. В области преподавания русского языка, как на родном, так и в рамках РКИ, искусственный интеллект открывает невиданные ранее возможности для оптимизации учебного процесса. Современные технологии способны мгновенно адаптировать сложные аутентичные тексты к любому уровню владения языком. К примеру, нейросеть может взять сложную новостную статью и упростить ее, убрав специфическую лексику и грамматические конструкции, или, наоборот, обогатить простой текст архаизмами и канцеляризмами для студентов-филологов. ИИ также позволяет создавать уникальные интерактивные задания, отвечающие конкретным методическим целям. Учитель может сформулировать

запрос: «Сочини короткий юмористический рассказ о коте-путешественнике, используя не менее десяти глаголов с приставками "при-" и "пре-", и разработай к нему пять вопросов на проверку понимания». Это избавляет преподавателей от трудоемкого поиска подходящих материалов. [3]

Особо значимым достижением стала интеграция ИИ как круглосуточного помощника для развития разговорных навыков. В отличие от человека, языковая модель не устает и не проявляет нетерпения, даже если студент допускает одни и те же ошибки многократно. Например, учащийся может инициировать ролевую игру: «Давай разыграем ситуацию: ты – владелец квартиры в Москве, я – студент, желающий арендовать жилье и попытаться договориться о скидке. Обращай мое внимание на грамматические ошибки в процессе диалога». Кроме того, интеллектуальная проверка письменных работ шагнула далеко за пределы простой коррекции опечаток. ИИ способен анализировать тексты, выявляя тавтологию, плеоназмы и логические противоречия. При проверке школьного сочинения нейросеть не просто укажет на избыточность фразы, но и подробно объяснит ее, предложив более корректные варианты в зависимости от контекста. [4]

Эта технологизация трансформирует роль педагога, смещая акцент с рутинной проверки и объяснения правил на наставничество, разработку индивидуальных образовательных траекторий и развитие мягких навыков учащихся. Освободившись от необходимости проверять множество однотипных работ, учитель может сосредоточиться на проектной деятельности или оказании помощи отстающим. Однако повсеместное внедрение ИИ сопряжено с определенными методическими вызовами. К ним относятся сбои нейросетей, которые могут привести к некорректному объяснению языковых правил. Другой риск – формирование у учащихся «цифровой лени»: если студент знает, что ИИ может быстро выполнить задание, у него снижается мотивация к

самостоятельному развитию. Кроме того, ИИ часто испытывает трудности с интерпретацией глубокого культурного контекста, подтекста и устойчивых выражений, что может исказить смысл общения. [1]

Несмотря на это, перспективы применения ИИ в образовании весьма обнадеживающие. В скором будущем ожидается появление иммерсивных мультимодальных систем, объединяющих ИИ с виртуальной и дополненной реальностью. Представьте, как ученик, надев VR-шлем, оказывается в историческом месте, где виртуальные персонажи, управляемые ИИ, вступают с ним в диалог, адаптируя свою речь под уровень пользователя. Параллельно будет развиваться предиктивная аналитика: анализируя выполненные задания, ИИ сможет предсказать вероятность ошибки студента в определенной теме и предложить краткий тренировочный модуль. Образование движется к непрерывной оценке знаний. Вместо контрольных работ ИИ будет анализировать речевую активность ученика на протяжении года, формируя объективный цифровой профиль его компетенций. Искусственный интеллект не заменит преподавателя, но станет его мощным помощником, позволяя гармонично сочетать передовые технологии с богатством русской речевой культуры. [2] [5]

Таким образом, процесс обучения русскому языку может быть значительно улучшен благодаря интеграции нейросетей. Эти передовые технологии, невзирая на имеющиеся трудности, предоставляют потенциал для оптимизации учебного процесса, персонализации обучения для каждого студента и расширения педагогических инструментов. Предполагается, что в будущем интеллектуальные системы обучения будут развиваться дальше и всё глубже интегрироваться в педагогическую практику. Вместе с тем успешная интеграция ИИ требует сохранения ведущей роли преподавателя и развития критического мышления студентов. Эффективное использование нейросетей возможно только при грамотном сочетании инновационных технологий и традиционных методов

обучения. Такой подход позволит повысить качество языковой подготовки, развить самостоятельность обучающихся и сформировать у них устойчивую мотивацию к изучению русского языка. Следовательно, применение нейросетей следует рассматривать не как замену преподавателю, а как современный инструмент, способствующий повышению эффективности образовательного процесса и достижению более высоких результатов обучения.

Список использованной литературы

1. Итан Моллик «Co-Intelligence: Living and Working with AI»,2024.
2. Лебедева Т.Н., Шефер О.Р., Крайнева С.В., Белоусова Н.А., Эрентраут Е.Н., Ахкамова Ю.А. «Формирование цифровой культуры педагога средствами массовых открытых онлайн-курсов», 2022.
3. Петров В. Н., Смирнова О. В. «Искусственный интеллект в современном образовании: преимущества и вызовы» 2022.
4. Соколова О. В., Павлова Е. Г. Применение технологий искусственного интеллекта в изучении русского языка и литературы в школе», 2020.
5. Филатова О.Н., Гущин А.В., Шобонов Н.А. «Профессиональное образование в современном информационном обществе // Проблемы современного педагогического образования», 2019.

ВЛИЯНИЕ ВИДЕОИГР НА МОТИВАЦИЮ ДОСТИЖЕНИЯ И УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПОДРОСТКОВ

Тулаганова Гулжахон Эркин кизи

Республиканский центр социальной адаптации детей

E-mail: johonawww@gmail.com

Аннотация. *Статья посвящена проблеме влияния видеоигр на мотивацию достижения и учебную деятельность подростков.*

Ключевые слова: *видеоигры, мотивация достижения, учебная деятельность, подростки, игровая зависимость, мотивационное замещение, геймификация, теория самодетерминации, социально-когнитивная теория, психологическая дистанция.*

Abstract. *This article examines the impact of video games on adolescents' achievement motivation and learning activities.*

Keywords: *video games, achievement motivation, learning activities, adolescents, gaming addiction, motivational displacement, gamification, self-determination theory, social cognitive theory, psychological distance.*

Annotatsiya. *Maqola videoo‘yinlarning o‘smirlarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va o‘quv faoliyatiga ta’siri muammosiga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *videoo‘yinlar, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, o‘quv faoliyati, o‘smirlar, o‘yin qaramligi, motivatsion o‘rin bosish, geymifikatsiya, o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi, ijtimoiy-kognitiv nazariya, psixologik masofa.*

Введение.

Цифровая трансформация современного общества привела к тому, что видеоигры стали неотъемлемой частью повседневной жизни значительной части подростков во всем мире. Согласно данным российских исследований, в январе 2026 года 75% россиян в возрасте от 14 лет и старше вовлечены в видеоигры, а с учетом детей от 7 лет этот показатель достигает 106–110 миллионов человек [9, с. 1]. В Узбекистане, по данным исследований, доля подростков, регулярно играющих в видеоигры, также неуклонно растет, что актуализирует проблему влияния игрового поведения на психологическое развитие и академические достижения учащихся [3, с. 24].

Проблема влияния видеоигр на мотивацию достижения и учебную деятельность подростков находится в центре внимания психологов и педагогов на протяжении последних десятилетий. Однако до настоящего времени сохраняется концептуальная неопределенность в отношении характера этого влияния: эмпирические исследования демонстрируют как потенциальные преимущества использования игровых механик в образовательных целях, так и серьезные риски, связанные с чрезмерным увлечением коммерческими играми [5, с. 1–2; 1, с. 2]. Данное противоречие определяет актуальность настоящего исследования, направленного на комплексный анализ влияния видеоигр на мотивацию достижения и учебную деятельность подростков с учетом опосредующих и модераторных переменных.

Основная часть.

Теоретической рамкой настоящего исследования выступают социально-когнитивная теория А. Бандуры и теория самодетерминации Э. Деси и Р. Райана. Социально-когнитивная теория утверждает, что человеческое поведение формируется в результате взаимодействия личностных факторов (когниции, убеждения, самоэффективность), средовых влияний и поведенческих паттернов [1, с. 5]. Применительно к игровой деятельности это означает, что видеоигры

могут оказывать воздействие на когнитивные структуры личности, включая самообразовательные ожидания и учебные установки, которые, в свою очередь, опосредуют влияние игрового поведения на академическую успеваемость.

Теория самодетерминации дополняет данную перспективу, фокусируясь на удовлетворении базовых психологических потребностей - в автономии, компетентности и принадлежности [4, с. 346]. Игровые механики, такие как система уровней, квесты, рейтинги и немедленная обратная связь, способны удовлетворять эти потребности, тем самым поддерживая внутреннюю мотивацию и академическую вовлеченность. Как подчеркивается в исследовании Sal-de-Rellán и соавторов, «геймификация повышает мотивацию в образовательном контексте, особенно при условии учета аффективно-мотивационных навыков учащихся» [5, с. 1].

В то же время видеоигры, особенно коммерческие, используют механизмы, способные вызывать привыкание. Исследования показывают, что интенсивность дофаминового ответа при игре сопоставима с эффектом алкоголя и стимуляторов. Это создает риск замещения учебной деятельности игровой, поскольку последняя обеспечивает более интенсивное подкрепление и, следовательно, может снижать субъективную привлекательность академических занятий [6, с. 1-2].

Современная эмпирическая литература предоставляет противоречивые, но в определенной степени конвергирующие данные о характере влияния видеоигр на мотивацию и учебные достижения подростков.

Мета-анализ Kurnaz и Koçtürk, включивший 31 экспериментальное исследование с общим эффектом на 41 выборке, демонстрирует значительный положительный эффект геймификации на учебную мотивацию ($g = 0,654$, 95% CI [0,442; 0,866]) [2, с. 4998]. Особенно важным представляется вывод о том, что эффект геймификации наиболее выражен у учащихся средней школы ($g = 1,015$,

95% CI [0,639; 1,391]) по сравнению с учащимися начальной (g = 0,309) и старшей школы (g = 0,821) [2, с. 5002]. Это указывает на сензитивность подросткового возраста к игровым форматам обучения, что объясняется ведущей ролью общения и потребностью в признании в данном возрасте.

Исследование Торопыгина, посвященное внедрению системы достижений в учебный процесс по математике, демонстрирует, что 95% учащихся отметили положительное влияние системы на учебную мотивацию [12, с. 350–351]. Автор подчеркивает, что «визуализация прогресса имеет сильный мотивирующий эффект», причем «абстрактная задача, статус выполнения которой четко показан, становится так же легко достижима, как и конкретный объект на местности». Эти данные корреспондируют с исследованием Cheema и Bagchi (2011), показавшим, что визуализация прогресса усиливает мотивацию наряду с материальным поощрением [12, с. 349].

В контексте Узбекистана перспективным направлением является интеграция игровых механик в экологическое образование. Исследование, проведенное узбекскими авторами, показывает, что «экологическую деятельность в игровой форме организация быстрее формирует осознанное поведение молодежи» [7, с. 1]. Это подтверждает гипотезу о том, что игровые форматы могут быть эффективным инструментом формирования социально ответственного поведения при условии продуманного дидактического дизайна.

Вместе с тем масштабные лонгитюдные исследования выявляют отрицательную связь между увлечением видеоиграми и академической мотивацией. Наиболее убедительные данные представлены в исследовании Tiraboschi и соавторов, использующем методологию случайного перекрестного лагового панельного моделирования (RI-CLPM) на выборке из 1631 ребенка. Результаты показывают, что для мальчиков увеличение времени игры на внутриличностном уровне предсказывает снижение академической мотивации в

возрасте от 7 до 8 лет (β = -0,117, 95% CI = -0,226 до -0,008) и от 8 до 10 лет (β = -0,105, 95% CI = -0,197 до -0,014). При этом обратная связь - влияние академической мотивации на последующее игровое поведение - оказалась статистически незначимой [6, с. 3]. Данный паттерн указывает на однонаправленный эффект игры на мотивацию, что подкрепляет гипотезу о *замещении* учебной деятельности игровой.

Российские исследования подтверждают эти данные. Бобошко и соавторы выявили, что у 16% обследованных подростков 15–17 лет диагностирована интернет-зависимость, при этом средний балл успеваемости у подростков с зависимостью составил 3,6 по сравнению с 4,1 у подростков без зависимости ($p < 0,001$). Кроме того, у подростков с интернет-зависимостью зафиксирован более низкий показатель точности выполнения корректурных проб (0,5 против 0,78; $p < 0,01$) и коэффициент умственной работоспособности (155 против 238; $p < 0,001$) [8, с. 73]. Эти данные свидетельствуют о том, что игровая зависимость связана не только со снижением учебной мотивации, но и с объективным ухудшением когнитивных функций.

Для девочек кросс-лаговые эффекты в исследовании Tiraboschi и соавторов оказались статистически незначимыми [6, с. 3], что может свидетельствовать о гендерных различиях в паттернах игрового поведения и его влиянии на учебную сферу. Эти данные корреспондируют с выводами других авторов о том, что мальчики тратят на игры значительно больше времени, и именно для них риск негативных последствий наиболее выражен [1, с. 6].

Ключевой вопрос заключается в том, через какие механизмы видеоигры влияют на академическую успеваемость. На основе анализа эмпирических данных мы предлагаем концепцию **«мотивационного замещения»** как основного механизма негативного влияния коммерческих игр.

Суть данного механизма заключается в том, что видеоигры, удовлетворяя базовые психологические потребности в компетентности, автономии и социальной связанности более интенсивно и с меньшими временными затратами, чем учебная деятельность, создают эффект «мотивационного перекоса». Подросток, получая в игре немедленное подкрепление (очки, достижения, повышение уровня), привыкает к короткому циклу «действие - вознаграждение». Учебная деятельность, напротив, требует отсроченного вознаграждения (оценка за четверть, поступление в вуз), что делает ее субъективно менее привлекательной.

Как отмечает Торопыгин, «когда человек получает достижение - это как четкий триггер дает мозгу понять, что игрок выполнил поставленную задачу». При этом «игру чуть тяжелее забросить, когда человек там чего-то добился» [12, с. 348]. Этот механизм, эффективно работающий в игровом дизайне для удержания пользователя, в образовательном контексте создает риск формирования устойчивого предпочтения игровой деятельности учебной.

Исследование Gu и соавторов демонстрирует, что видеоигры связаны с академической успеваемостью как прямо, так и косвенно, через опосредующую роль самообразовательных ожиданий и учебного отношения [1, с. 1]. Иными словами, увлечение видеоиграми может снижать уровень притязаний в образовательной сфере и формировать негативное отношение к учебе, что, в свою очередь, приводит к ухудшению успеваемости.

Наряду с концепцией мотивационного замещения мы предлагаем идею **«игровой пропедевтики»** - использования метанавыков, сформированных в игровой среде, для повышения учебной самоэффективности и мотивации достижения. Данная концепция предполагает, что определенные компетенции, развиваемые в процессе игры, могут быть трансферированы в учебную деятельность при условии осознанного педагогического сопровождения.

Исследование Перевалова показывает, что «современные видеоигры - это не угроза образованию, а мощный дидактический ресурс, который позволяет перейти от репродуктивного запоминания фактов к деятельностному, исследовательскому обучению». Автор выделяет ключевые образовательные механики: активное вовлечение через нарратив, безопасную среду для ошибок и экспериментов, наглядность и симуляцию сложных систем, развитие системного и критического мышления [11, с. 1].

Особый интерес представляет феномен «виртуального музея» - образовательных режимов в коммерческих играх, таких как Assassin's Creed: Discovery Tour. Эти режимы позволяют ученикам свободно исследовать исторические локации, слушая лекции профессиональных историков, что создает уникальную иммерсивную образовательную среду. Аналогично, Minecraft: Education Edition используется для преподавания математики, программирования, химии и совместной проектной деятельности [11, с. 1].

В контексте Узбекистана перспективным представляется использование игровых технологий для развития творческих способностей подростков. Как показывает исследование Каюмова, «между творчеством и мотивацией достижения успеха существует значимая положительная корреляция». Автор выявил, что «подростки, не боящиеся неудач, демонстрируют высокий уровень беглости мышления (по методике Торренса), то есть высокие характеристики креативности» [3, с. 26]. Это указывает на то, что игровая среда, снижающая страх ошибки, может способствовать развитию креативности, которая, в свою очередь, положительно коррелирует с мотивацией достижения.

Важным направлением исследований является выявление факторов, модернирующих связь между видеоиграми и учебной деятельностью. Мы предлагаем ввести в научный оборот понятие **«психологической дистанции**

между игровым и учебным опытом» как ключевого модератора эффективности игровых технологий в образовании.

Данный конструкт описывает степень, в которой подросток воспринимает игровой и учебный опыт как связанные или, напротив, как принципиально различные сферы деятельности. Чем меньше психологическая дистанция, тем выше вероятность переноса навыков и мотивационных установок из игровой среды в учебную. Уменьшение психологической дистанции достигается через:

1. **Рефлексивные практики** - обсуждение с педагогом того, какие навыки были использованы в игре и как они могут быть применены в учебе;

2. **Интеграцию игровых и учебных контекстов** - использование образовательных игр, методически встроенных в учебный процесс;

3. **Явное обозначение связи** - формулировка учебных задач в игровой терминологии.

Особую значимость имеет качество детско-родительских отношений как модератора негативных эффектов игрового поведения. Как показывают данные исследования Gu и соавторов, «детско-родительские отношения модеруют как прямую связь между игрой в видеоигры и академической успеваемостью, так и косвенную связь через самообразовательные ожидания» [1, с. 1]. Это означает, что в семьях с благоприятным эмоциональным климатом и активным родительским участием негативные эффекты игрового поведения могут быть нивелированы.

Российские данные подтверждают этот вывод. Исследование Костиной и Семеновой показало, что влияние компьютерных игр на познавательное развитие подростков «в значительной степени опосредуется семейной средой». При этом авторы пришли к выводу об отсутствии статистически значимой связи между использованием компьютерных игр и спецификой внимания у младших

подростков [10, с. 173-174], что может указывать на то, что при благоприятных семейных условиях когнитивные риски нивелируются.

Профилактика и практические рекомендации

На основе проведенного анализа мы предлагаем следующие практические рекомендации для педагогов, психологов и родителей.

Для образовательных учреждений:

1. Дифференцированное использование игровых технологий с учетом возраста: мета-анализ показывает, что наибольший эффект геймификации достигается в средней школе (g = 1,015), что требует адаптации игровых форматов к возрастным особенностям [2, с. 5002].

2. Внедрение системы достижений в учебный процесс по модели, предложенной Торопыгиным, с четкими критериями, визуализацией прогресса и элементами соревновательности. При этом важно избегать чрезмерного усложнения системы и обеспечивать возможность получения большинства достижений при приложении усилий [12, с. 350-351].

3. Интеграция образовательных режимов коммерческих игр (Discovery Tour, Minecraft: Education Edition) в учебные программы по истории, биологии, математике и информатике с обязательным этапом рефлексии и обсуждения полученного опыта [11, с. 1].

Для родителей:

1. Активное участие в цифровой жизни ребенка: обсуждение игр, совместный просмотр игрового контента, установление четких временных рамок. Как показывают исследования, качество детско-родительских отношений является значимым буфером негативных эффектов игрового поведения [1, с. 1].

2. Обращение внимания на признаки «цифровой неврастении» (термин, введенный российскими исследователями): раздражительность, снижение внимания, ухудшение успеваемости, снижение социальной активности [13, с. 1].

При выявлении данных симптомов рекомендуется ограничение времени использования цифровых устройств и обращение к психологу.

3. Развитие альтернативных форм досуга: спортивные секции, техническое творчество, программирование, что способствует снижению риска формирования игровой зависимости [13, с. 1].

Для системы профилактики:

1. Проведение скрининговых исследований для выявления подростков с признаками игровой зависимости. Как показывают данные Бобошко и соавторов, 16% подростков имеют диагностируемую интернет-зависимость, а 51% находятся в группе риска [8, с. 73].

2. Разработка программ психолого-педагогического сопровождения для подростков группы риска, направленных на формирование учебной мотивации, развитие саморегуляции и навыков критического мышления.

3. Информирование родителей о рисках нерегулируемого игрового поведения и способах профилактики через родительские собрания, информационные буклеты и онлайн-ресурсы.

Заключение

В настоящей статье представлен интегративный анализ влияния видеоигр на мотивацию достижения и учебную деятельность подростков на основе современных эмпирических исследований. Установлено, что данное влияние носит двойственный характер: образовательные игры и продуманная геймификация могут способствовать развитию учебной мотивации, тогда как чрезмерное увлечение коммерческими играми сопряжено с риском снижения академической мотивации и успеваемости.

Введенные в научный оборот концепции «мотивационного замещения» и «игровой пропедевтики» позволяют объяснить механизмы как негативного, так и позитивного влияния игровых технологий. Ключевыми опосредующими

механизмами выступают самообразовательные ожидания и учебное отношение, а модераторами - качество детско-родительских отношений и психологическая дистанция между игровым и учебным опытом.

Список литературы

1. Gu X., Hassan N.C., Sulaiman T., Wei Z., Dong J. The impact of video game playing on Chinese adolescents' academic achievement: Evidence from a moderated multi-mediation model // PLoS ONE. — 2024. — Vol. 19. — No. 11. — P. e0313405. — DOI: 10.1371/journal.pone.0313405.

2. Kurnaz M.F., Koçtürk N. A Meta-Analysis of Gamification's Impact on Student Motivation in K-12 Education // Psychology in the Schools. — 2025. — Vol. 62. — No. 12. — P. 4997-5009. — DOI: 10.1002/pits.70056.

3. Qayumov B. The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement motivation // Next Scientists Conference Proceedings. — 2024. — P. 24-27.

4. Ryan R.M., Rigby C.S., Przybylski A. The motivational pull of video games: A self-determination theory approach // Motivation and Emotion. — 2006. — Vol. 30. — No. 4. — P. 344-360. — DOI: 10.1007/s11031-006-9051-8.

5. Sal-de-Rellán A., Hernández-Suárez Á., Hernaiz-Sánchez A. Gamification and motivation in adolescents. Systematic review from Physical Education // Frontiers in Psychology. — 2025. — Vol. 16. — Article 1575104. — DOI: 10.3389/fpsyg.2025.1575104.

6. Tiraboschi G.A., Garon-Carrier G., Madigan S., Smith J., Surprenant R., Fitzpatrick C. Longitudinal associations between gaming and academic motivation during middle childhood // Psychological Medicine. — 2025. — Vol. 55. — P. e235. — DOI: 10.1017/S0033291725101153.

7. Yoshlarda ekologik mas’uliyatni shakllantirishda raqamli o‘yinlashgan yechimlarning ta’siri // JASSH Journal of Analytical Synergy and Scientific Horizon. — 2025. — № 1. — P. 1-5.

8. Бобошко А.В., Филькина О.М., Воробьева Е.А., Долотова Н.В. Особенности состояния здоровья подростков с интернет-зависимостью // Российский педиатрический журнал. — 2024. — Т. 27. — № 3S. — С. 73. — EDN: qtimqq.

9. Комплексный анализ взаимосвязи компьютерной зависимости и учебной мотивации у подростков: теория, диагностика и стратегии преодоления. — М.: ForPsy, 2026. — С. 1-15.

10. Костина Л.М., Семенова К.А. Связь использования компьютерных игр со спецификой внимания младших подростков // Комплексные исследования детства. — 2025. — Т. 7. — № 3. — С. 173-178. — DOI: 10.33910/2687-0223-2025-7-3-173-178.

11. Перевалов Д.А. Анализ дидактического потенциала современных видеоигр в образовательном процессе // Инфоурок. — 2025. — № 10. — С. 1-5.

12. Торопыгин С.А. Система достижений в учебном процессе // Вестник Тюменского государственного университета. — 2019. — № 4. — С. 347-352.

13. Цифровая неврастения у российских подростков: результаты социологического исследования // Вебер. — 2025. — 13 февраля.

IJTIMOIY-GUMANITAR MAKON: TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY MEROS

SHAHRISABZ SHAHRIDAGI DORUT-TILOVAT MAJMUASI: TARIXIY-MADANIY MEROS SIFATIDA O‘RGANISH VA TA’MIRLANISHI

F.U.Samarov

Qarshi xalqaro universiteti,

samarovfaxriddin07@gmail.com

Tayanch so‘z va iboralar: *Shahrisabz shahri, qadimiy, majmua, yodgorlik, maqbara, obida, milliy qadriyat, madaniy meros, tarixiy obyekt, ta’mirlash, qayta tiklash, mustahkamlash, saqlash, muhofaza qilish.*

Ключевие слова и понятий: *город Шахрисабз, древний город, архитектурный комплекс, исторический памятник, мавзолей, архитектурное сооружение, национальные ценности, культурное наследие, исторический объект, реставрация, восстановление, укрепление, сохранение, охрана памятников.*

Key words and concepts: *Shahrisabz City, ancient city, architectural complex, historical monument, mausoleum, architectural monument, national values, cultural heritage, historical site, restoration, reconstruction, structural strengthening, preservation, protection of cultural heritage.*

Sharq Uyg‘onish davri insoniyat sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti yuksak bosqichga ko‘tarilgan davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda ilmiy va ma’naviy hayotning rivojlanishi islom dinining insonparvarlik, ilm olishga da’vat etuvchi hamda axloqiy qadriyatlarni ulug‘lovchi tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Aynan shu omillar Sharq mamlakatlarida ilm-fan rivoji uchun qulay muhitni shakllantirib, ko‘plab ilmiy va diniy

markazlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan. O‘tgan ming yillar davomida barpo etilgan tarixiy yodgorliklarning ma’lum qismi bizning zamonimiga qadar yetib kelgan. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimiz hududida jami 8210 ta madaniy meros obyektlari saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan 1468 tasi Qashqadaryo viloyatida joylashgan[1.].

Shahrisabzda shakllangan ilmiy muhit natijasida ko‘plab ulamolar, faqihlar, muhaddislar va mutasavviflar yetishib chiqqan bo‘lib, ularning ilmiy-ma’naviy merosi nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamida yuksak e’tirof etilgan. Shu bois Shahrisabz Sharq Uyg‘onish davrida ilm va irfon markazlaridan biri sifatida alohida mavqega ega bo‘lgan hamda mintaqaning madaniy-ma’rifiy taraqqiyotiga katta ahamiyat kasb etgan.

Ayniqsa, Amir Temur davlat barpo etish jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq Shahrisabz shahriga alohida strategik va siyosiy ahamiyat bergan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Sohibqiron o‘z saltanatining boshqaruv markazini dastlab aynan Shahrisabzda shakllantirishni rejalashtirgan. Buning asosiy sabablari shaharning qulay geografik joylashuvi, mustahkam mudofaa imkoniyatlari hamda uning ma’naviy va madaniy salohiyati bilan bog‘liq edi. Shu bois Shahrisabz Temur davrida nafaqat siyosiy tayanch, balki ilm-fan, me’morchilik va diniy-ma’rifiy hayot rivojlangan markazlardan biri sifatida taraqqiy etgan. Bu haqida Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida ham ushbu shaharning mudofaa qobiliyatini nihoyatda mustahkam ekanligini alohida qayd etib o‘tilgan[2. 57-58].

Sohibqironning davlat boshqaruvi tamoyillari islom dini qadriyatlari va shariat me’yorlariga tayanishi bilan ajralib turadi. U mamlakatni idora etishda adolat, qonun ustuvorligi hamda diniy-axloqiy tamoyillarga qat’iy amal qilishni bosh mezon sifatida e’tirof etgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur muhim davlat, harbiy yoki ijtimoiy masalalar yuzasidan qaror qabul qilish jarayonida Qur’oni karim oyatlariga murojaat qilgan hamda ularda ilgari surilgan ko‘rsatma va hikmatlarni o‘z

faoliyatida dasturilamal sifatida qo‘llagan. Bu holat Sohibqiron siyosatida diniy qadriyatlar va davlat boshqaruvi o‘rtasida uzviy uyg‘unlik mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Amir Temurning diniy-ma’rifiy muassasalarga, masjid, madrasa va maqbaralar bunyod etilishiga alohida e’tibor qaratgani uning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan muhim hissasini namoyon etadi. Aynan shu siyosat natijasida Shahrisabz yirik ilmiy va ma’naviy markazlardan biriga aylanib, keyinchalik Dorut-tilovat singari yodgorlik majmualarining vujudga kelishi va taraqqiy etishi uchun mustahkam tarixiy zamin yaratildi.

XIV asrda bunyod etilgan Dorut-tilovat majmuasi Shahrisabz vohasining eng muhim diniy-ma’rifiy markazlaridan biri sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Tarixiy obida nomining lug‘aviy ma’nosi tilovat uyi yoki Qur’oni karim tilovat qilinadigan maskan degan mazmunni anglatadi[3.171-172]. Ushbu majmuaning asosiy vazifasi islom ta’limoti, diniy bilimlar va ma’naviy qadriyatlarni keng targ‘ib etishdan iborat bo‘lgan. O‘z davrida bu maskan nafaqat ibodat qilinadigan joy, balki ilm-fan, tafsir, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlari o‘qitilgan nufuzli ma’rifat markazi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Dorut-tilovat me’moriy majmuasi hududdagi boshqa tarixiy va diniy inshootlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Xususan, u Dorus-saodat majmuasi hamda shu davrga mansub boshqa qator me’moriy obidalar bilan yagona tarixiy-me’moriy makonni hosil qilib, shaharning o‘rta asrlardagi me’moriy qiyofasini belgilovchi muhim yodgorliklardan biriga aylangan. Majmuaning bunday joylashuvi uning nafaqat me’moriy, balki diniy, ma’naviy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni ham nihoyatda yuksak bo‘lganidan dalolat beradi.

Tarixiy majmua bir necha asrlar davomida mahalliy xalq orasida islom ma’rifati, Qur’on ilmlari va diniy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi muqaddas maskan sifatida e’tirof etilib kelgan. Bugungi kunda ham ushbu yodgorlik o‘zining tarixiy, me’moriy

va ma’naviy ahamiyatini saqlab qolgan holda O‘zbekistonning bebaho madaniy merosi tarkibida alohida o‘rin egallaydi hamda mamlakatning tarixiy-madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini o‘taydi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur tasavvuf namoyandalari va o‘z davrining yirik diniy arboblariga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Sohibqiron o‘zining ma’naviy kamolotida pir-murshidlar maslahatini muhim omil deb bilgan hamda ularga nisbatan doimo yuksak ehtirom ko‘rsatgan. Uning ma’naviy ustozlari qatorida Sayyid Baraka, Ahmad Yassaviy tariqatining davomchilari hamda Shayx Shamsuddin Kulol alohida o‘rin tutadi. Amir Temurning ushbu ulug‘ zotlarga bo‘lgan ixlosi va hurmati bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Sohibqiron vasiyatiga muvofiq uning Samarqanddagi dafn joyi Sayyid Baraka maqbarasi yaqinida joylashtirilgani ham bu ehtiromning yorqin ifodasi sifatida baholanadi[4].

Dorut-tilovat majmuasi tarkibidagi muhim obidalardan biri Shayx Shamsuddin Kulol maqbarasi hisoblanadi. Mazkur maqbara Amir Temurning otasi Tarag‘ay Bahodirning piri bo‘lgan Shayx Shamsuddin Kulol xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Me’moriy inshootning shahar jome masjidi yaqinida qad rostlagani tasodifiy emas. Bu, avvalo, ziyoratchilar va musulmonlarning maqbarani bemalol ziyorat qilishi hamda diniy marosimlarni ado etishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadini ko‘zlagan.

XX asrda hukm surgan sobiq sovet tuzumi davrida diniy meros obyektlariga nisbatan yuritilgan mafkuraviy siyosat natijasida ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklar singari Dorut-tilovat majmuasiga ham deyarli e’tibor berilmagan. Diniy obidalarga nisbatan salbiy munosabat va ularning tarixiy-madaniy ahamiyatini yetarlicha e’tirof etmaslik oqibatida majmuaning katta qismi vayron bo‘lgan yoki o‘zining ilk me’moriy qiyofasini saqlab qola olmagan. Natijada bugungi kungacha majmuaning faqat ayrim qismlarigina yetib kelgan bo‘lib, ular orasida Shayx

Shamsuddin Kulol maqbarasi tarixiy va me’moriy qimmatga ega eng muhim yodgorliklardan biri sifatida alohida e’tirof etish mumkin.

Amir Temur o‘z otasi Tarag‘ay Bahodirning xotirasini abadiylashtirishga ham alohida e’tibor qaratgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Sohibqiron otasining qabri Shayx Shamsuddin Kulol maqbarasi yonida, ya’ni pirining oyoq tomoni yaqiniga dafn ettirgan[5. 147-148]. Bu holat Amir Temurning ota-onaga bo‘lgan ehtiromi bilan bir qatorda, o‘z pirlariga nisbatan cheksiz hurmati va tasavvuf an’analariga sodiqligini ham yaqqol namoyon etadi.

Dorut-tilovat me’moriy majmuasi tarkibiga kiruvchi yana bir muhim inshoot Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod ettirilgan Ko‘kgumbaz jome masjididir. Mazkur masjid 1437-yilda qurib bitkazilgan bo‘lib, temuriylar davri me’morchiligining yuksak namunalaridan biri sifatidae’tirof etiladi[6. 48]. O‘zining mahobatli gumbazi, mutanosib me’moriy yechimi hamda bezak san’ati bilan ajralib turuvchi ushbu masjid Shahrisabzning tarixiy qiyofasida alohida o‘rin egallaydi. Dorut-tilovat majmuasi tarkibidagi masjid, madrasa va boshqa diniy-ma’rifiy inshootlar o‘z davrida nafaqat Qur’oni karim tilovati va islom ta’limoti asoslarini o‘rgatishga xizmat qilgan, balki ilm-fan taraqqiyotining muhim markazlari vazifasini ham bajargan.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davlat boshqaruvi jarayonida nafaqat siyosiy va harbiy salohiyatga, balki ma’naviy-axloqiy tamoyillarga ham alohida e’tibor qaratgan. Sohibqiron faoliyatining muhim mezonlaridan biri sifatida e’tirof etiladigan “Kuch - adolatdadir” tamoyili uning adolatparvar boshqaruv siyosatini ifodalaydi. Shu bilan birga, u jamiyatda islom ma’rifati va diniy-axloqiy qadriyatlarni keng yoyish, ilm-fan va ma’naviyat rivojini qo‘llab-quvvatlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaragan. Aynan shu maqsadda bunyod etilgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va ilmiy-ma’rifiy majmualar xalqning diniy savodxonligini oshirish, yuksak axloqiy fazilatlarni qaror toptirish

hamda islom sivilizatsiyasining boy ilmiy merosini avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Amir Temurning davlat boshqaruvi tamoyillari, bunyodkorlik siyosati hamda ijtimoiy hayotni tashkil etish masalalariga oid qarashlari “Temur tuzuklari” asarida batafsil bayon etilgan. Ushbu manba Sohibqironning davlatni boshqarishda nafaqat harbiy va siyosiy masalalarga, balki jamiyatning ma’naviy, diniy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga ham ustuvor ahamiyat berganini ko‘rsatadi. Xususan, unda diniy-ma’rifiy maskanlar, ijtimoiy himoya muassasalari va davlat boshqaruvi binolarini barpo etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Bu borada “Temur tuzuklari”da quyidagi ko‘rsatmalar keltirilgan: “Yana amr etdimki, katta-kichik, har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru-miskinlarga langarxona (g'aribxona) solsilar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor-ul amorat (hukmdor saroyi), dor-ul adolat (adolat uyi, qozixona) qursinlar. Va raiyatu ziroatni qo'riqlovchi qo'rchi (posbon)lar tayinlasinlar”[7. 100].

Mazkur ko‘rsatmalar Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati faqat me’moriy inshootlar qurilishi bilan cheklanmaganini, balki jamiyatning diniy-ma’rifiy hayoti, ijtimoiy himoyasi, sog‘liqni saqlash tizimi hamda adolatli davlat boshqaruvini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kompleks siyosat yuritilganini yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, Dorut-tilovat, Dorus-saodat kabi me’moriy majmualarning bunyod etilishi Sohibqironning ma’naviy-ma’rifiy siyosatini amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan muhim tarixiy loyihalar qatoriga kiradi

Amir Temur tomonidan ilgari surilgan mazkur tamoyillar davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar, qozilar va mahalliy hokimlar uchun majburiy huquqiy hamda axloqiy me’yor sifatida belgilangan edi. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda adolat, qonun ustuvorligi va xalq manfaatlarini himoya qilishni asosiy mezon deb hisoblagan. Shu sababli davlat xizmatiga tayinlangan har bir

mansabdor zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan va mas’uliyat bilan bajarishi qat’iy talab etilgan.

Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko’rsatadiki, Amir Temur davlat boshqaruvi sohasida intizom va javobgarlik tamoyillariga alohida e’tibor qaratgan. Mansab vakolatini suiiste’mol qilish, adolatsizlikka yo‘l qo‘yish yoki aholining huquq va manfaatlariga zid ravishda faoliyat yuritish eng og‘ir qoidabuzarliklardan biri sifatida baholangan. Bunday holatlarga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar lavozimidan qat’i nazar qat’iy javobgarlikka tortilgan hamda ularga nisbatan murosasiz choralar qo‘llanilgan.

Aynan ana shunday boshqaruv tamoyillari natijasida Temuriylar davlati hududida amaldorlarning o‘zboshimchalik bilan ish yuritishi, mansab vakolatini shaxsiy manfaat yo‘lida qo‘llashi yoki markaziy hokimiyat talablariga bo‘ysunmasligi keskin cheklangan. Bu esa davlat boshqaruvida markazlashuvni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy-siyosiy muhitni qaror toptirishda muhim omillardan biri bo‘lgan

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, milliy tarixni mafkuraviy qarashlardan xoli, ilmiy xolislik va tarixiy haqqoniylik tamoyillari asosida o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ana shunday sharoitda Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda, bunyodkor hamda ma’naviy-ma’rifiy siyosatni qo‘llab-quvvatlagan tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatiga xolis baho berish imkoniyati vujudga keldi. Sohibqironning siyosiy merosi bilan bir qatorda, u bunyod ettirgan me’moriy obidalar, ilmiy-ma’rifiy maskanlar va madaniy yodgorliklar ham xalqimizning bebaho tarixiy-madaniy merosi sifatida e’tirof etilmoqda.

Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi nishonlanishi arafasida Shahrisabz hududidagi bir qator tarixiyme’moriy yodgorliklarda ta’mirlash va qayta tiklash ishlari olib borilgan. Jumladan, 1992-yilda jami 2 mln, 792 ming so‘m miqdoridagi ta’mir ishlari bajarilgan bo‘lsa, 1993-yilda mazkur hududdagi Shamsiddin Kulol va Gumbazi

Sayyidon maqbaralari, Chorsu savdo gumbazi, Hazrati Imom masjidi, qadimiy hammom va boshqa bir qator ko‘hna yodgorliklarda jami 9,8 mln so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari hisobiga ta’mirlash, tuzatish va qayta tiklash ishlari olib borilgan[8. 72].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 630-sonli Qaroriga asosan Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan bir qator tarixiy-me’moriy yodgorliklarni tuzatish, ta’mirlash va qayta tiklash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Yuqorida ta’kidlangan qarorning 4-ilovasiga ko‘ra, respublikamiz hududida joylashgan tarixiy-me’moriy inshootlarni 1995–2000-yillar davomida ta’mirlash va mustahkamlash, shuningdek, ushbu ko‘hna imoratlar hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari belgilangan. Jumladan, Qarshi shahridagi XIV asrga oid bo‘lgan qadimiy ko‘prik, XVI asrga tegishli bo‘lgan Ko‘kgumbaz jome masjidi, Shahrisabz shahridagi XIV asrda barpo etilgan Oqsaroy arkini ta’mirlash-konservatsiyalash va muzeylashtirish ishlari, Dorut-tilovat majmuasida ta’mirlash ishlarini bajarildi[9. 73-74].

Bugungi kunda Amir Temur tomonidan bunyod etilgan yoki uning homiyligida vujudga kelgan tarixiy-me’moriy majmualarni asrab-avaylash, ularni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, restavratsiya qilish hamda kelajak avlodlarga asl qiyofasida yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, bunday yodgorliklar nafaqat milliy davlatchilik tarixini, balki xalqimizning yuksak bunyodkorlik an’analari, ma’naviy qadriyatlari va ilmiy-ma’rifiy salohiyatini o‘zida mujassam etgan noyob tarixiy manbalardir.

Shu nuqtai nazardan, Sohibqiron qoldirgan moddiy va ma’naviy merosni muhofaza qilish, ularning tarixiy qimmatini ilmiy asosda tadqiq etish hamda ushbu boy merosni kelgusi avlodlarga yetkazish har bir tadqiqotchi va jamiyatning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bunday yondashuv nafaqat Amir Temur bunyod etgan tarixiy obidalarga nisbatan hurmat ifodasi, balki milliy tarixiy xotirani asrash va

O‘zbekistonning boy madaniy merosini kelajak avlodlarga to‘laqonli yetkazish yo‘lidagi mas'uliyatning amaliy ifodasidir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Qashqadaryo viloyat Madaniy meros boshqarmasining ma’lumoti. 2026-yil 3-iyul.

2. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 528 b.

3. Bo‘riyev O., Xo‘jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. Monografiya. – T, “Voris -nashriyot”, 2021. -252 bet.

4.Go‘ri Amirdagi Amir Temurning nefrit sag‘anasi: https://uzbekistan.travel/uz/o/gori-amirdagi-amir-temurning-nefrit-saganasi/?utm_source=chatgpt.com/)

5. Ravshanov P., Xushvaqov N. Qashqadaryo tarixiy sayohat. – T.: «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti, 2020. – 272 b.

6. Samarov F. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida tarixiy-me’moriy obidalarni ta’mirlash, qayta tiklash va o‘rganish (1991-2020-yillar). Monografiya. – Qarshi, “Yuristim team”, 2026. -76 bet.

7. Temur tuzuklari. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 bet.

8. Samarov F. O‘zbekiston janubiy viloyatida tarixiy-me’moriy obidalarni ta’mirlash, qayta tiklash va o‘rganilishi tarixi (1991-2021-yy). Monografiya. – Qarshi, “Yuristim team”, 2026. -172 bet.

9. Ko‘rsatilgan manba.

JANUBIY XORAZM VOHASINING ANTIK VA ILK O‘RTA ASR QAL’ALARI: JOYLASHUV TIZIMI, ME’MORIY SHAKLLARI VA TALQINI

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

ORCID 0009-0009-1492-286X

dilnozaatadjanova14@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda janubiy Xorazm vohasi hududida joylashgan antik va ilk o‘rta asrlarga oid qal’a va qishloq yodgorliklarining joylashuv tizimi, tarhiy-me’moriy shakllari hamda ularning vazifasi to‘g‘risidagi ilmiy talqinlar tahlil qilinadi. Aylana, to‘g‘ri to‘rtburchak va konussimon shakldagi yodgorliklar qiyosiy o‘rganilib, Shovot Tuproqqal’asining kosmogonik talqini, Chingiztepa yodgorliklari bilan bog‘liq xalq afsonalari va ilk o‘rta asrlarda vohada kechgan hududiy o‘zgarishlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy Xorazm, qal’a, Shovot Tuproqqal’asi, Chingiztepa, Olmaotishgan, Voyangan, aylana tarh, burj, Afrig‘iylar.*

Janubiy Xorazm vohasi qadimgi davrlardan boshlab zich o‘zlashtirilgan hudud bo‘lib, bu yerdagi shahar va qishloqlar sug‘orish kanallari bo‘ylab tizimli ravishda joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xazorasp, Bog‘ot, Shovot, Yangiariq, Qo‘shko‘pir, Gurlan, Xonqa tumanlari hududlarida antik va ilk o‘rta asrlarga oid o‘nlab yodgorliklar aniqlangan. Ularning joylashuvi tahlili shuni ko‘rsatadiki, qal’alar bir-biridan ma’lum masofada, kanal tarmoqlari bo‘ylab qurilib, yaxlit mudofaa va xo‘jalik

tizimini tashkil etgan. Masalan, ilk antik davrda Shovot va Yormish kanallari havzasida Voyangan, Shovot Tuproqqal’asi, Tuzloq va Oltinqal’a qal’alari bunyod etilib, mikrovoha shakllangan. Biroq Davlon va Daryoliqning quyi oqimlaridagi hududlarning keyingi davrlarda ham intensiv o‘zlashtirilishi natijasida antik davrga oid ko‘plab qishloq va qal’alar bizgacha yetib kelmagan.

Vohadagi yodgorliklarning tarhiy shakllari xilma-xildir. Ularning asosiy qismi to‘g‘ri to‘rtburchak tarhga ega: Tuyatortar yodgorligi (375x318 metr), Qoratosh 2, Toshqal’a 2 (50x50 metr), Qorovultepa (80x55 metr), Kindikli (195x210 metr), G‘oyibota (120x140 metr) va boshqalar shular jumlasidandir. Voyangan qal’asi Shovot tumanidagi Manoq qishlog‘idan 1,5 km janubi-sharqda joylashgan bo‘lib, to‘g‘ri to‘rtburchak tarhda, 2–3 metr balandlikdagi platforma ustiga qurilgan. Uning janubiy qismi yaxshi saqlangan: devorning asosi paxsadan, tepa qismi 40x40x10 sm hajmli kvadrat xom g‘ishtdan ko‘tarilgan, devor bo‘ylab va burchaklarda yarim aylana burjlar ishlangan, qal’a atrofi handak bilan o‘ralgan. Yodgorlikda o‘rta asrlarda ham hayot davom etib, bu davrda uning maydoni 17 gektarni tashkil etgan [1]. Ya.G‘ulomov 1949–1951 yillardagi tadqiqotlari asosida uning ikki qurilish bosqichini ko‘rsatgan: birinchisi milodiy I–IV asrlar, ikkinchisi IX–XIII asrlar. Keyinchalik 1973–1974 yillarda M.Mambetullaev, N.Yusupov, M.Sh.Kdirniyazovlar tomonidan tadqiqotlar davom ettirilgan.

Aylana tarhli yodgorliklar Xorazm me’morchiligida nisbatan kam uchraydi va shu bois alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bunga yorqin misol – Urganch shahridan 40 kilometr shimoli-g‘arbda, Anbar-Manoq qishlog‘i hududida joylashgan Shovot Tuproqqal’asidir. Umumiy maydoni 4 gektar bo‘lgan bu yodgorlik dastlab 1958–1960 yillarda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a’zolari tomonidan xaritaga tushirilgan, 1973 va 1979–1980 yillarda M.Mambetullaev tomonidan arxeologik jihatdan o‘rganilgan [2]. Qal’a mudofaa devorining balandligi 0,7–3 metrgacha bo‘lgan qismlari saqlanib qolgan bo‘lib, qalinligi 14 metrni tashkil qiladi. Devor har 22–30 metrda

joylashgan yarim aylana shakldagi 24 ta burj bilan himoyalangan, qal’a atrofi 32–42 metr kenglikdagi handak bilan o‘ralgan, mudofaa devoridan 42 metr uzoqlikda esa qo‘shimcha devor ham qurilgan [2]. Yodgorlikda ikki qurilish bosqichi aniqlangan: birinchisi mil.avv. V asr oxiridan mil.avv. III asrgacha bo‘lib, bu davrda burjli mudofaa devori va qo‘shimcha devor bunyod etilgan; ikkinchisi mil.avv. II asrdan milodiy III asrgacha davom etib, bu davrda mudofaa devori qayta ta’mirlangan.

Shovot Tuproqqal’asining doira shaklida qurilishi tadqiqotchilar tomonidan qadimgi aholining quyosh shakli va kosmogonik qarashlari bilan bog‘lab talqin etiladi. Ular yodgorlikni quyoshning yerdagi aksi deb ta’riflashgan: doira shaklidagi qal’a quyoshni, uning atrofidagi burjlar esa quyosh nurlarini ifodalagan. Shu jihatdan bu yodgorlik “Olov (quyosh) xudosi”ga bag‘ishlab qurilgan degan fikr ilgari surilgan [2]. Doira shaklida qurilgan qal’aning bir qismida hech qanday qurilish izlarining aniqlanmaganligi ham uning oddiy turar-joy vazifasidan tashqari g‘oyaviy-diniy mazmun kasb etganligi foydasiga dalil bo‘lishi mumkin. Aylana tarhli yodgorliklar sirasiga yana Qoratosh 1, Kuvarik momo qal’asi (diametri 16 metr), Tuzlan va ilk o‘rta asrlarga oid Olmaotishgan I (115x90 metr) yodgorliklarini ham kiritish mumkin.

Vazifasi hanuzgacha munozarali bo‘lib qolayotgan yodgorliklar qatoriga Xazoraspdan 18 km sharqda, Toshsoqa hududida joylashgan Chingiztepa yodgorliklari kiradi. Shu nomda uchta tepalik tadqiq qilingan bo‘lib, ular Xumbuztepa bilan topografik jihatdan bog‘liq va shag‘al toshlardan tiklangan. Chingiztepa 1 va 2 da devor yoki biror qurilma izlari aniqlanmagan. Katta Chingiztepa deb ataluvchi Chingiztepa-1 ning balandligi 10 metr bo‘lib, konussimon shaklda saqlangan, yuqori qismining aylanasi 20 metr, pastki qisminiki 70 metrni tashkil qiladi [1]. Tepalik atrofidan topilgan sopol idishlar mil.avv. IV–II asrlarga va milodiy XII–XIII asrlarga oiddir. Chingiztepa-3 esa qadimda ikki qatorli mudofaa devori bilan o‘ralgan va aylana shakldagi burjlarga ega bo‘lgan [1]. Xalq orasida bu tepaliklar haqida afsona saqlangan: unga ko‘ra, Chingizxon Amudaryodan kechib o‘tgach, askarlari sonini bilish uchun har

bir askarga bir siqim tuproq yoki tosh olib kelishni buyurgan va qo‘shinning ko‘pligidan baland tepaliklar paydo bo‘lgan; qaytishda shu tadbir takrorlanib, ikkinchi kichik tepalik vujudga kelgan emish. Arxeologik tadqiqotlar bu afsonani rad etadi, biroq yodgorlikning haqiqiy vazifasi va nima maqsadda qurilganligi to‘g‘risida tadqiqotchilar o‘rtasida hozirgacha yagona fikr mavjud emas.

Yodgorliklarning xronologik dinamikasi vohada aholi joylashuvining o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi. Yangiariq tumanidagi Olmaotishgan II yodgorligi (280x160 metr, 3,5 gektar) misolida uch qurilish bosqichi kuzatiladi: dastlab yo‘lakli ikki qator paxsa devor bilan o‘ralgan, ikkinchi davrda devor xom g‘isht bilan ta’mirlangan, uchinchi davrda yo‘lak ichi loy bilan to‘ldirilib, burjlar qayta qurilgan. Yodgorlik sanasi borasida olimlar turlicha fikr bildirganlar: Ya.G‘.G‘ulomov bu yerda hayot milodiy era boshlarida to‘xtagan deb hisoblagan [3], M.Mambetullaev yodgorlikni mil.avv. III–II asrlarga oid deb, milodiy I–III asrlarda mudofaa devori bilan o‘ralganligini ko‘rsatgan [4], Q.Sobirov esa shaharga milodiy I asrda asos solingan degan fikrni ilgari surgan. So‘nggi tadqiqotlarda qal’a o‘rtasidan o‘tib, shaharni ikki mahallaga ajratgan markaziy ko‘cha, aholining zich uylari, tamg‘ali g‘ishtlar bilan qurilgan xonalar aniqlangan. Ya.G‘.G‘ulomov Yoqutning “Sovkan obod shahar bo‘lib, unda jome masjidi va minora bo‘lgan” degan ma’lumotiga tayanib, bu yodgorlikni Sovkan shahri bo‘lishi mumkin degan g‘oyani ilgari surgan [3][5].

Ilk o‘rta asrlarga kelib vohada jiddiy hududiy o‘zgarishlar yuz bergan. Qal’ajik va Olmaotishgan qal’alari tashlandiq holga kelgan bo‘lsa, afrig‘iylar davrida Xorazmning janubiy chegarasi Bir ota (Darg‘on ota) hududigacha siljigan, Xazorasp bilan uning o‘rtasida Jigarband, Kaparos, Sadvar kabi qal’alar qurilgan. Xazorasp va Xiva oralig‘ida ham Qirqqiz, Qushchaqirgan, Tepa avliyo kabi ko‘plab qal’alar bunyod etilgan. Bog‘ot shaharchasidan 6 km shimoldagi Qushchaqirganqal’a mudofaa devorining balandligi 10 metr, pastki qismining kengligi 25 metr bo‘lib, sopol topilmalar asosida VI–VIII asrlarga oid deb sanalgan [6]. IX–XIII asrlarga kelib

Rayimbobo (2,5 gektar), G‘oyibota, Kichik Qal’ajik (2 gektar) kabi yodgorliklar faoliyat yuritgan. Al-Maqdisiy va al-Istaxriy asarlarida G‘oyibota yodgorligi “Zardux” nomi bilan tilga olingan deb ko‘rsatiladi [1]. Rayimbobo yodgorligi tadqiqotchilar fikricha XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron etilgan. Afsuski, bu yodgorliklarning aksariyati bugungi kunda qabristonga aylantirilgan yoki qishloq xo‘jaligi maqsadlarida o‘zlashtirilib yuborilgan, bu esa ularni keng miqyosda arxeologik o‘rganish imkoniyatini cheklamoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, janubiy Xorazm vohasidagi antik va ilk o‘rta asr yodgorliklari yagona sug‘orish tizimi atrofida shakllangan izchil joylashuv tizimini namoyon etadi. To‘g‘ri to‘rtburchak, aylana va konussimon tarhli yodgorliklarning mavjudligi vohada me’moriy shakllarning xilma-xilligini, Shovot Tuproqqal’asining kosmogonik talqini esa mudofaa me’morchiligining diniy-g‘oyaviy qarashlar bilan uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Chingiztepa kabi yodgorliklar vazifasining ochiq qolganligi, ko‘plab yodgorliklarda keng qamrovli qazishmalarning olib borilmaganligi mazkur hududda arxeologik tadqiqotlarni davom ettirish hamda yodgorliklarni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zaruratini dolzarb qilib qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009. – 195 б.

2. Мамбетуллаев М.М. Топрак-кала Шаватская // Археология Приаралья. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1986.

3. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – 319 б.

4. Мамбетуллаев М.М. История и культура южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. До н.э. – в IV в.н.э.): Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. — Т.: Институт истории АН РУз., 1994.

5. Матрасулов Ш., Собиров Қ. Олмаотишган ёдгорлигидаги археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар – 2001 йил. 4-сон. – Тошкент, 2002. – Б. 105–107.

6. Матрасулов Ш., Аллаберганов А. Қалъажиқ мудофаа қўрғони (Хоразм вилояти Боғот туманидаги ёдгорликлар). – Нукус, 2002.

